

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

MAQSUDOV ASLIDDIN MURODOVICH

**TURKISTONDA RUS SHARQSHUNOSLIGI VA
ARXELOGIYASI TARIXI**

5A 220206 – Arxeologiya

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: Djuraqulova D

Samarqand – 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3-10
I BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDAGI IJTIMOIIY, IQTISODIY SHAROIT	11-30
I.1. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda siyosiy ahvol..	11-21
I.2. Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti.....	21-25
I.3. Turkiston o'lkasida harbiy generallar tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar.....	25-30
II BOB. RUS CHORIZMINING TURKISTONGA KIRIB KELISHI VA UNING QIBATLARI	31-49
II.1. Rossiyaning Turkistonni bosib olishga bo'lgan dastlabki urinishlari.....	31-34
II.2. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi.....	34-41
II.3. Podsho Rossiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati.....	41-49
III BOB. RUS SHARQSHUNOSLARINING TURKISTON O'LKASINING QADIMIY TARIXINI O'RGANISHDAGI HARAKATLARI	50-79
III.1. Turkistonning ilmiy jihatdan o'rganilishining boshlanishi.....	51-61
III.2. Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi faoliyati.....	61-79
IV BOB. TURKISTONDA DASTLABKI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA MAHALLIY O'LKASHUNOSLARNING ARXEOLOGIYA SOHASIDAGI HARAKATLARI	80-103
IV.1. Turkistonda arxeologik tadqiqotlarning olib borilishi.....	80-90
IV.2. Mahalliy o'kashunoslarning arxeologiya sohasiga qo'shgan hissalari.....	90-103
XULOSA	104-111
Foydalanilgan adabiyotlar	112-116

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan asoru-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, memorchilik va shaaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshavqat davr sinovlaridan omon kelgan, eng qadimgi tosh yozuvlar bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan yigirma mingdan ortiq qulyozma ularda mujasamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, ximiya, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olamiz.¹

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan. Bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Bizga ma'lumki, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmay edi. Hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga oid risolalar yozishmoqda «tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy, sahna asarlari yaratilmoqda ommaviy axborot vositalari ma'naviy qadiratlarimizni keng targ'ib qilayotgani suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo'layotgani diqqatga sazovor. Davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz kimligimizni bilishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix faniga doir tadqiqotlarni har taraflama takomillashtirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtboshimiz

¹ Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-жилд, Тошкент., «Ўзбекистон», 1999. 132-б.

I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, «O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz, yana bir bor qurollantirishimiz zarur»²

Ilgari soxtalashtirib kelingan Vatanimiz tarixini chuqur qayta tafakkur qilish, o'tmishimizni tadqiq etish uchun mutlaqo yangicha nazariy va metodologik yanoshuvlarni ishlab chiqishga katta ehtiyoj borligi xususida davlatimiz rahbarining qator asarlari hamda nutqlarida bir-necha bor eslatib o'tiladi. Jumladan, O'zbekistondagi tarix fanining taraqqiyotida I.A.Karimovning Respublika tarixchi olimlari bilan 1998-yil yozida o'tkazgan uchrashuvi shuningdek, Prezidentimizning milliy mafkurani shakllantirishga doir chiqishlarida juda ko'p olimlarni ko'rishimiz mumkun.

Prezidentimiz ushbu uchrashuvlarda O'zbekistonning yangi tarixini yaratish hamda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan kamol toptirish uchun boy tariximizni xolisona o'rganish o'ta dolzarb vazifa ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarorida tarix fani muommolariga, tarixni milliy istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan o'rganishning falsafasi va uslubiyatini egallash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu hujjatda birinchi navbatdagi vazifalar sifatida «o'zbek xalqi va davlatchiligining haqiqiy tarixini o'rganish» ko'rsatib o'tilgan.³

Sobiq sho'ro saltanati-yillarida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tariximiz soxtalashtirildi. Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda: «O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi - yo'qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir»⁴, - deb juda o'rinli uqtirgan edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkistonda istibdodga va xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi. Mahalliy aholini xo'rlash va qatag'on etish oktyabr to'ntarishi tufayli hokimiyatga kelgan sho'ro saltanati davrida yanada kuchayib, eng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Shu tariqa, Turkistonda mustaqil davlatchilikni poymol etgan, til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan mustabidlik tuzumi 130-yil umr ko'rdi.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1997. 140-бет.

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, «Ўзбекистон», 1998. 8-бет.

⁴ Каримов И.А. Ўша асар.10- бет.

Yaqin va o'tmish tarix bugungi kun va kelajak uchun ibrat darsligidir. Darvoqe, «vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlay olish uchun, avvalo, tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan. Tarix insonning ko'zini ochar ekan. Shunda ko'p xatolarning oldini olish mumkin bo'lar ekan»⁵.

Endilikda, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida kurrai zaminda qad rostlaganining yigirma bir-yilini kechirayotgan damlarda kechagi kunga nazar tashlash, so'nggi mustamlakachilik asoratini o'rganish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, millatni asrash uchun uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoya qilish kerak bo'ladi.

Turkistonda rus sharqshunosligi qanday bo'lganligi, qo'lga kiritilgan yutuqlar, arxeologiya sohasidagi izlanishlarni o'rganib chiqish katta ahamiyat kasb etadi. XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkamizdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ahvol og'ir bo'lib ilmiy-madaniy rivoji uchun mavjud sharoit u qadar imkon bermas edi. Rus sharqshunos olimlari o'z izlanishlarini boshlab yubordilar. Mahalliy hududlar, arxeologik markazlarda izlanishlar olib borildi. Ammo rus chorizmining O'rta Osiyoga kirib kelishi ko'pgina sohalarning yemirilishiga olib kelganligi bizga ma'lum. Rus sharqshunoslari olib borgan tadqiqotlarning natijalari, o'lkamizning qanday yutuqlarga ega ekanligini bilib olish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sharqshunos olimlarning qadimiy tariximizni o'rganishda sa'y-harakatlarini izsiz qoldirmaslik lozimdir. O'lkamizdagi mavjud sharoitdan kelib chiqib, arxeologik topilmalarni ro'yxatga olishdi. Qadimiy manzilgohlarimizning joylashuvi u yerdagi topilmalar yoshi ahamiyati rus sharqshunoslari va mahalliy hujjatlarni tuzgan kishilarning asarlarida o'z aksini topgan.

Turkistonda o'tkazilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlarni bilish, ularni tahlil qilib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy o'lkashunoslar ham bu borada juda ko'plab ishlarni amalga oshirgan. Tarixiy adabiyotlar orqali ularni tahlil qilib chiqish ham asosiy talablardan biridir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Turkiston, uning tarixi, madaniyatiga qiziqish va o'rganish o'rta asrlarning so'ngidayoq boshlangan bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin boshlangan. Ammo shu paytgacha Turkistonda rus sharqshunosligi va arxeologiyasi mavzusida alohida dissertasiya tarzida ishlanmagan. Shunga qaramay turli maqola, yoki monografiyalarda ushbu mavzu turli darajada talqin qilingan. Umuman, Turkistonning arxeologik jihatdan o'rganilishini mutaxassislar uchta katta davrga bo'lishadi. Birinchi bosqich Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinguniga qadar bo'lib, berilayotgan ma'lumotlardagi sistemaning yo'qligi, ularning uzuq-yuliqligi bilan xarakterlidir.

Turkistonning arxeologik jihatdan o'rganilishidagi ikkinchi bosqich Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olinganidan keyin to Turkiston havoskorlar to'garagining tashkil topishiga qadar bo'lgan davrga to'g'ri kelib, chop etilgan turli maqola va monografiyalarda biz ko'rayotgan masalalarga qisman to'xtalib

⁵ Karimov I. O'z keljagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. "Turkiston" gazetasi muxbirlarining savolariga javoblar. Toshkent., O'zbekiston, 1999. 4-ber.

o'tilgan. Ammo, bu davrga kelib ancha qamrovi keng ishlarni paydo bo'lganligini, sohaga alohida to'xtalishni ko'rish mumkin.

Uchinchi bosqich Turkiston havoskorlar to'garagining tashkil topishidan oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda tarixiy va madaniy jarayonlarni taraqqiyotini umumiy, ko'proq ilmiy-ommabop tarzda bayon etishga bag'ishlangan kitoblar va albomlar chop etildi.

Tadqiqotning davriy va xronologik chegaralari. Tadqiqot Turkistonning rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan arxeologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan bo'lganligi uchun ham, ilmiy ishni quyi davriy chegarasini XIX asr ikkinchi yarmidan deb olsak, uning yuqori chegarasi XX asr boshlari, ya'ni oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davri bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning umumiy maqsadi O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi XX boshlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar asosida chop etilgan maqolalar, monografiyalar, to'plamlardan foydalangan holda Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi va sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yagona tizimi yaratiladi. To'plangan materiallar tanqidiy qarab chiqiladi va bundan kelib chiqadigan yangi tarixiy va madaniy xulosalar umumlashtiriladi.

Maqsadga muvofiq tadqiqotning aniq vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olganidan keyingi, ya'ni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga oid Yevropalik va Rossiyalik sayyohlarni, elchilarni, fotograflarni, harbiylarni, arxeolog va sharqshunos olimlarni ishlarini tanqidiy o'rganish;

- O'rta Osiyoning dastlabki arxeologik jihatdan o'rganilishi bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertasiyalar, ilmiy hisobotlar, arxiv materiallarini o'rganish;

- O'rta Osiyoning arxeologik o'rganishni boshlangan davridan boshlab oktyabr to'ntarishigacha qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlarni o'rganib, ulardan olingan xulosalarni tarixiy va madaniy jihatdan tanqidiy ko'rib chiqish;

- Hozirgi zamon talablari darajasidagi magistrlik dissertasiyasi uchun Turkistonda rus sharqshunosligi va arxeologiyasi tarixi bo'yicha yakunlangan ilmiy ish yaratish vazifa qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda Turkistonda rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan o'rganilgan arxeologik materiallarni shu kungacha o'rganilganligi darajasini tanqidiy tahlil qilinib, yangi tarixiy, madaniy va uslubiy xulosalar chiqariladi. O'rta Osiyoning arxeologik jihatdan o'rganilish masalalari batafsil tahlil qilinadi, olingan xulosalardan tarixiy va ilmiy xulosalar chiqariladi. O'rta Osiyoda arxeologiya fanining rivojlanishiga bag'ishlangan bunday ilmiy ishlar shu paytgacha deyarli yo'q edi.

Tadqiqotda Turkistonda rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan O'rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar tarixiy, tanqidiy, metodologik nuqtai nazardan maxsus tadqiq etiladi. Bu hududni o'rganilayotgan davridayoq olimlar tomonidan amalga oshirilgan katta, so'zsiz fundamental ishlar bilan bir

qatorida yo'l qo'yilgan ayrim xato va kamchiliklar aniqlanib to'g'rilanadi. Shu vaqtgacha arxeologik tadqiqotlar olib borishdagi yutuq va kamchiliklar yagona tizim ostida, alohida monografik tadqiq qilinadi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Respublikamiz I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan nazariy konseptual qoidalar, tarixiy voqyealarni ob'ktiv tahlil qilish, tarixiylik, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining birligi tamoyili tashkil etadi. Tadqiqot ishi xolislik, qiyosiy tahlil va konseptual yondoshuv usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Ushbu dissertasion ish Turkistonda rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan yurtimizning arxeologik yodgorliklarini dastlabki ilmiy jihatdan o'rganilishiga bag'ishlangan.

Dissertasiya ishi Turkistonda rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan olib borilgan arxeologik kuzatuvlar hamda topilmalarni hozirgi kundagi arxeologiya fani uchun ahamiyatini holisona baholashga harakat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertasiya kirish, 4 ta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlari va illyustrativ materiallardan iborat. Ilmiy ishning hajmi 117 bet.

Ushbu dissertasiya ishi Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni yoritishga yordam beradi.

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalaridan ilm va fan masalalarda, Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi hamda sharqshunoslik haqidagi ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanma dasturlar maxsus kurslar tayyorlashda, oliy va o'rta maxsus maskanlarida talabalar, magistr'larga ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkin.

I BOB.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDAGI IJTIMOIIY, IQTISODIY SHAROIT.

I.1. XIX asrning ikkinchi yarmida Turistonda siyosiy ahvol.

Yevropaning mustamlakachi davlatlarining ko'pchiligidan farqli ravishda Rossiya imperiyasi hukumati bosib olingan va olinayotgan yangi hududlarda ko'chirib keltirilgan ruslarning sonini ko'paytirishni u joylarni mustamlakaga aylantirishning eng muhim omillaridan biri, deb hisoblardi. Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan Polsha va Finlyandiyada bunga deyarli amal qilinmadi. Chunki Rossiya imperiyasi, birinchidan, bu hududlarga rus fuqarolarini joylashtirish Yevropa davlatlari bilan shusiz ham faol keskin munosabatlarini yanada og'irlashtirib yuborishini, ikkinchidan Rossiya imperiyasining mazkur mamlakatlar ustidan hukmronligi g'oyat omonat bo'lib, uzoq davom etmasligini tushunar edi. Turkistonda esa garchi XIX asrning o'rtalarida bu yerda «ekspansiyaning ikki qarshi oqimi to'qnashgan, Rossiya imperiyasi ham, Angliya ham hujumkor siyosatni o'tkazib kelgan. Bunda har ikkisi ham bir-biridan cho'chib turgan» bo'lsada, Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy doiralari anchagina muhim (bosib olinayotgan hududlarning yonma-yonligi mintaqadagi o'zaro dushmanlashib kelgan xonliklardan harbiy jihatdan ustunligi va xakozolar) ustunliklarga ega edi. Imperiya hukumati XIX asrning 60-yillarida ayniqsa Krapostnoylik huquqi bekor qilingach, yuz minglab rus qishloq aholisini O'rta Osiyoga chiqarib yuborish yo'li bilan katta xarajatlarsiz ko'plab ishchi guberniyalar qishloqlaridagi ijtimoiy-siyosiy keskinlikni yumshatishga umid bog'landi. Lekin muhimi, strategik tashqi siyosiy maqsadlar bilan bir qatorda, Rossiya imperiyasini bu mintaqadagi katta mustamlakachilik rejalarini amalga oshirishga undagan narsa bu yerda moddiy (tabiiy ishlab chiqarish) boyliklar hamda mehnat resurslaridan metropoliya manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatlari edi.

Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir singari salohiyati bor mintaqalarni rivojlantirishga mablag' sarflashni, harakat qilishni istamagan, ba'zan esa sarflay ham olmagan Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligining juda qimmatli moddiy va qishloq xo'jalik xomashyo manbaini (eng avvalo paxta tolasi va ipakni) ancha ilgaridan mo'ljallagan edi. Rossiyaning to'qimachilik, ya'ni yengil sanoati asosan AQShdan keltiriladigan paxtaga bog'liq edi. Biroq XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya- Amerika aloqalari yomonlashgach, Rossiya paxtani Yevropa mamlakatlari orqali sotib olishga majbur bo'ldi.

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari savdogarlar, sayyohlar, tabiatshunos olimlar va boshqalar orqali o'lkaning moddiy boyliklarini, barcha xo'jalik, harbiy imkoniyatlarini puxta o'rganishdi. Shu munosabat bilan o'lkaga harbiy yurishlar boshlanmasdan avval, maxsus ekspedisiyalar uyushtirilib, Orol dengizi, tog' massivlari, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishi, xonliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'rganildi.

Chunonchi, 1848-yil iyul – 1849-yil sentabrda Rossiya harbiy dengiz floti leytenanti A. I. Butakov rahbarligidagi ekspedisiya Orol dengizida qirg'oqlar, orollar va suv havzasi xususiyatlarini tadqiq etdi. 1841-yilda K. Butenev rahbarligidagi ekspedisiya Buxoro amirligining turli hududlarida ma'lum va topilishi mumkin bo'lgan foydali qazilma konlarini aniqlash bilan shug'ullandi.

U o'rta asrlardagi qazish ishlarini izlari va geologik alomatlari, mis va temir rudasi konlari, Nurota tog'larida feruza koni borligidan dalolat berayotganini takidlagandi. Ayni mahalda Rossiya imperiyasi hukumati o'z maqsadini ko'zlab, XIX asrning 30-yillaridan boshlaboq xonliklar o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirish, Buxoro amirligining Buyuk Britaniya, Afg'niston bilan diplomatik va boshqa munosabatlarini zaiflashtirish, O'rta Osiyo xonliklari bozorlarida Rossiya mollari pozitsiyasini kengaytirish, shuningdek, bu xonliklar to'g'risida har qanday ma'lumotlar to'plash bo'yicha turli chora-tadbirlarni faollik bilan qo'llab kelgandi. Masalan 1833-yili Orenburg general-gubernatori V. Perovskiy bilan P. I. Demezoni (Mirza Ja'far nomi bilan) Buxoroga qushbegi Muhammad Hakimbiy bilan muzokoralar olib borishga jo'natar ekan, unga jumladan, quyidagilarni aniqlashni topshirdi: «Buxoroliklar inglizlar va ularning Ost-Indiya kompaniyasi to'g'risida qanday fikrda? Shuyil ichida Buxoroga ingliz mollarning sifati qanday yedi, Qanaqa bahoda sotildi va ular yaxshi sotib olindimi?». Ayni mahalda B. Perovskiy; «Bu narsa juda muhim va shuning uchun e'tibor berish kerak», - deb qayd etgandi.

Buxorodagi va boshqa xonliklardagi Rossiya-Angliya ta'siri va hukmronligi uchun raqobatda savdoga ham katta e'tibor berilganligi shundan ko'rinib turibdi. Biroq Rossiya imperiyasining hukmron savdo-sanoat doiralari savdo sohasidagi yerkin raqobatda Angliyani yengaolmasliklarini, chunki sifati Rossiyaniqidan qolishmaydigan sanoat mollari xonliklar bozorlarida ataylab arzon sotilishini yaxshi tushunardi. Masalan 1940-yilda Turkistonning yaxshi bilimdoni, Orenburg general-gubernatorining safdoshi Ya. V. Xannikov ta'kidlaganidek, xonlikda sotiladigan Rossiya to'qimachilik buyumlari 24 foiz foyda qoldiradi. Biroq «1830-yillarda G'ulja va Buxoroda paydo bo'lgan ingliz mollari Rossiyaning kreditini barbod qilishdek oshkora niyat bilan haddan tashqari past bahoda, aynan Rossiyada 50 rubl arshinni, Rossiyada 25 rubl turadigan bir bo'lak qalin surp 3 kumush rubldan ikki tomoni oxarlangan 12 arshin chit 4 kumush rubldan sotilgan. Rossiya imperiyasi hukmron doiralarning fikricha bunday sharoitda xonliklar bozorida Rossiya mollari jumladan yag'och-taxta, cho'yan, don ko'ngildagidek o'tishi uchun bu yerda Rossiya imperiyasi hukmronligini o'rnatish kerak edi.⁶

Zero u bu xonliklarga Angliyaga qaraganda yaqinroq edi. Turkiston (1867-yil iyul), Dasht (1881-yil) va Xiva xonligi (1873-yil) ustidan Rossiya imperiyasi protektorati o'rnatilmagunicha Rossiya imperiyasi ayni shu yo'nalishda bosqinchilik amaliyotini olib bordi.

Rossiya hukumati va savdo-sanoati doiralari O'rta Osiyodagi savdo-iqtisodiy ekspansiya uchun jiddiy tayanchlarni (Orenburg, Troiuk va Kavkazortida)

⁶ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прогресс. М., 1915. Стр. 34.

barpo eta boshladi. Shu bois ko'p rus savdogarlari, tadbirkorlari rus qo'shinlari ortidan bu mintaqaga kelib kazaklar bilan birga Rossiya imperiyasining bo'lajak mustamlakalarining ilk rus aholisini tashkil qilishgan. Keyinchalik esa, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, Rossiya imperiyasi hukumatining Turkistondagi ma'muriyati mustamlakachilik maqsadlari hamda buyuk davlatchilik me'zonlariga muvofiq, ko'chirish amaliyotini o'lkaning ishlab chiqarish zaxiralari tabiiy, madaniy boyliklaridan metropoliya manfaatlari yo'lida faol foydalanish ishiga, tub xalqlarga milliy va ijtimoiy zulm o'tkazish siyosatiga bo'ysindirish uchun barcha choralarni ko'rgan edilar.

Ma'lumki, Turkiston general-gubernatorligini tashkil etgan viloyatlar sug'orma dehqonchilik, ko'nchilik va ko'p tarmoqli xalq hunarmandchiligi (to'qimachilik, zargarlik, gilamdo'zlik va hako'zalar)ga asoslangan ancha rivojlangan tavor ishlab chiqarish bilan ajralib turardi. Ayniqsa qishloq xo'jaligida serdaromad paxtachilik va ipakchilik Rossiya savdo-sanoat doiralarining o'lkaga qiziqishini nihoyatda ko'paytirdi. Metropoliyada to'qimachilik, yengil sanoat va metallurgiya sanoati ustun bo'lgani uchun rus tadbirkorlari Turkistonda paxta tolasi, ipak tolasi, chorvachilik mahsulotlari, mineral hamashyoni ko'plab etishtirishga va tashib ketishga asosiy e'tibor qaratdilar. Rossiya imperiyasi hukmron doiralarining fikricha, Turkistonda paxtachilikni yanada rivojlantirish zarurati rus dehqonlarining ko'p hosilini mustamlakaga ko'chirish ehtiyojini to'lamosh tushunardi. Qishloq xo'jaligidan eng avvalo dehqonchilikdan mustamlakachilik maqsadlarida to'laroq foydalanish uchun Rossiya imperiyasi o'zining buyuk davlatchilik qonunlari bilan Turkiston yerlarini davlat, ya'ni Rossiya mulki deb e'lon qildi. Yuqorida takidlaganidek, o'lkaning o'troq aholisiga yer meros bo'lib o'tadigan jamoa uy-joyi sifatida foydalanish huquqi bilan berildi. Ilgari ko'chmanchi aholiga tegishli bo'lgan, endi esa ko'chirib keltirilgan ruslar tomonidan ham, mustamlakachi ma'muriyat tomonidan ham qisqartirilgan yerlar esa, ko'chmanchilarda yerdan foydalanish bo'yicha tarixan tarkib topgan odatlar asosida jamoa bo'lib, muddatsiz foydalanish uchun ularda qoldirildi.⁷

Musulmon muassasalari (madrasa, maktab va masjidlar) mulki bo'lgan yerga, ya'ni vaqf mulkiga kelganda esa Turkiston yerlari Rossiya imperiyasi mulki deb, e'lon qilinguniga qadar, agar hukumdorlar muhri va boshqa hujjatlar bo'lgan taqdirdagina uni bu muassasa ixtiyoriga o'tkazish, qayta ro'yxatga olish ishlari olib borilardi. Bu hukumatning tub aholi hayotida islomning, musulmon muassasalarining va ruhoniylarning o'rnini zaiflashtirish boyicha buyuk davlatchilik-shovinistik yo'lga ham javob berardi. Bu amaliyotni turli davrlarda rus amaldorlari va olimlari, jumladan, A.P.Nalivkin ham qo'llab quvvatlagan. Ular yerni musulmon muassasalari va ruhoniylari mulkidan Rossiya imperiyasi mulkiga o'tkazishni foydali va o'rinli deb hisoblashgan. Turkistondagi yerdan foydalanish tartibini metropoliya manfaatlari, birinchi navbatda paxta boshqa qishloq xo'jaligi xom ashyosini etishtirish iqtisodiy hukmronlikni ta'minlash asosiy talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shahar aholisining hayoti ikkinchi darajali bo'lib qolgan.

⁷Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прогресс. М., 1915. Стр. 35-36.

Turkistonni mustamlaka qilishning dastlabki-yillaridayoq shakllanib ulgurgan, tub aholini iqtisodiy, ijtimoiy ezish bo'yicha, xususan o'lka dehqonchiligida Rossiya imperiyasiga ma'qul o'zgartirishlarni amalga oshirishga qishloq tumanlarida rus qishloqlarini imkoni boricha ko'proq barpo etishga yo'naltirilgan buyuk davlatchilik-shovinistik siyosati tub qishloq aholisini soliqqa tortishni kuchaytirishni oldindan belgilab bergandi. To'g'ri mustamlakachilikning boshida Turkiston ma'muriyati xalq ommasi qarshiligining oldini olish, hatto ularni o'z tomoniga og'dirish maqsadida asosiy soliqlarni jiddiy kamaytirgan, ruhoniylar yoki qishloq ovul oqsoqollari tomonidan joriy etilgan o'lpon va yig'implarni bekor qilgandi. Masalan: ilgari daromat yoki hosilning uchdan biri miqdorida undirib kelingan yer solig'i 1868-yilga kelib beshdan bir qismigacha kamaytirilgandi va bu miqdor 1871-yilgacha saqlangandi. Keyinchalik ruslar ommaviy ravishda ko'plab keltirila boshlangach, tub aholini soliqqa tortish keskin ortdi. Turkistonni mustamlakaga aylantirish, bu yerda Rossiya imperiyasining hukmronligini o'rnatishda, tub aholining yerini ko'chirib keltirilgan rus dehqonlari va kazaklar uchun bosib olish, tortib olishdan, shuningdek, ularga tub millatlar qishloq, shahar aholisining ham yer va suvdan foydalanishdagi an'anaviy tizimini jiddiy buzib yuborgan soliq-o'lpon hamda boshqa sohalarda jiddiy imtiyozlar berishdan (bu ham asosan tub aholi hisobidan edi) tashqari boshqa xususiyatlar ham xos edi. Bu borada xususan, suvdan foydalanish masalalarida mustamlakachilarga yondashuv faqatgina Turkistonning tub aholisiga nisbatan emas, balki Buxoro amirligiga nisbatan ham qollanilgan. XIX asr o'rtalariga kelib sanoat ishlab chiqarishda ancha yuqori darajaga erishgan, o'z mustamlakalarida sanoat korxonalari tashkil qilib, bu bilan ularning tabiiy va odam resurslarini ekspluatatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va qator boshqa davlatlardan farqli ravishda Rossiya ko'proq agrar ishlab chiqarish munosabatlariga ega bo'lgan, nisbatan qaloq, lekin eng avvalo sanoat kapitalizmi shakllanib kelayotgani aniq ko'rinib turgan mamlakat edi. Biroq o'sha davrda Rossiyani sanoat maxsulotlarga G'arbiy Yevropada talab yo'q edi. Buning sababi, birinchidan siyosiy munosabatlarning keskinligi; ikkinchidan, bu maxsulotlar yetarlicha raqobatbardosh emasligida edi. Boz ustiga Rossiya-Qrim urushida Turkiyadan (1853-1856-yillar) engilganidan so'ng hamda Amerika paxtasini keltirish qiyinlashgani bois, Rossiya imperiyasining sanoati, umuman iqtisodiy ahvoli jiddiy yomonlashdi⁸.

Qo'shin ortidan bu yerga kelgan rossiyalik savdogarlar, tadbirkorlar Turkistonda paxtaga mablag' sarflash foydaliligini darhol tushinib qolishdi. Masalan shunday savdogarlardan biri D.Filatov bo'lib, 1865-yildayoq, Toshkent bosib olinishi bilanoq bu yerda spirtli ichimliklar savdosini boshlab yuborgandi. O'sha-yillarda Sirdaryo viloyatining Toshkent, Chimkent, Aliyoota, Pishpak uyezdlarda I.Pervushin, A.Xrennikov, B.Kuznesov, N.Ivanov (uni endigina bosib olingan o'lkadagi «rus savdosi va sanoatining birinchi kashshofi» deb atashgandi) va boshqa ko'plab ilgari mayda, o'rta savdogar bo'lganlar mustamlakachilik

⁸ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прогресс. М., 1915. Стр.37.

xususiyatiga ega bo'lgan savdo-sanoat faoliyatini keng avj oldirib yuborishdi. Bu yerda savdo operatsiyalari va boshqa sohalarga to'xtashmasdan, shuni aytib o'tadilarki Turkistonga ayniqsa, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlariga, Zarafshon okruglariga kelgan rossiyalik savdogar va tadbirkorlar paxta, pillani qayta ishlash, ulgirji sotish, shuningdek to'qimachilik sanoatini egallab olishdi. Rossiya va Turkistonlik tadbirkorlar bilan qo'shma savdo-sanoat shirkatlari, firmalarini ochishga intilish Toshkentning bosib olinishi va Turkiston viloyatini tuzish arafasidayoq boshlangan edi. Masalan 1863-yilda Peterburgda general-leytenant S.A.Xrulev tomonidan ishlab chiqilgan «O'rta Osiyo uchun savdo bo'yicha nizomi» ning loyihasi e'lon qilingandi. Bu loyihani Rossiya hukumati ma'qullamadi, lekin shaxsan imperatorning roziligi bilan 1866-yilda «Moskva-Toshkent tovar shirkati» tuzildi.

Metropoliyaning yirik savdogarlari, fabrikantlari Xludovlar, Karetnikovlar, Savva Marozov va boshqalar uning muassislari bo'lishdi. Bu shirkat Rossiya sanoati uchun qishloq xo'jalik va mineral xom ashyo ishlab chiqarishni ko'paytirishga, shuningdek yangi mustamlaka bozorini metropoliya moli bilan to'ldirishga yordam berishni o'zining Turkistondagi asosiy vazifalaridan biri deb hisoblardi. Keyinchalik bir qator mahalliy tadbirkorlar, ko'proq Buxoro yaxudiyolari mustamlakachi amaldorlarni pora berib sotib olish orqali ma'muriy to'siqlarni yengib, dastgoh yaratishga hamda asosan paxta tayorlash, qayta ishlash bilan bog'liq savdo-moliya tizimlarini vujudga keltirishga erishdilar. Bunday tuzilmalar orasida aka-uka Vadyayevlar, Yaushev, Yu.Davidov, R.Potelyaxe, B.Pexasiv o'zbeklar Komilboy Rahimboyev, Tillaboy Sobirboyev, Muhammad Boboyev, Muhammad Ahmadboyev, Saidg'ani Saidzimboyev, Bekmuhammad Nurmuhammadov, Ahmadbek Temurbekov, Mirkomilboy Mirmo'minboyev va boshqalarning savdo uylari va firmalari kattaligi va faoliyat ko'rsatishi bilan ancha taniqli edi.⁹

Rossiya Davlat banki bo'limlari metropoliyaning turli mintaqalardagi yer banklari Turkistonda g'oyat muhim mustamlakachilik rolini o'ynadi. Ular o'z kapitalini Turkiston iqtisodiyotini muayyan maqsadni ko'zlab, eng avvalo paxta, pilla etishtirishni boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, aholini ko'chirish amaliyotini kengaytirish manfaatlari yo'lida yekspulatasiya qilish uchun faol joriy etishga katta e'tibor berishgan. Aleksandr II ning farmoni bilan 1874-yil dekabrda Toshkentda Davlat bankining bo'limi ochildi. Turkiston viloyati mavjud bo'lgan davridayoq mustamlakachi ma'muriyat davlat hisobiga o'tkazilgan bo'lib, tub aholidan natural soliq tarzida olingan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan rus armiyasini ta'minlash uchun foydalanilgan edi. Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, Toshkent, Avliyoota, Pishpak, Verniy, Samarqand, Xo'jand, Yangi Buxoro, Chorjuy, Kattaqo'rg'on, Ashxabodda garnizonlar qurish shuningdek, qator qismlarda rus qo'shinlarini bunyod etish zarurati tufayli mustamlaka boshqaruv tizimi barpo etilgach, tub aholiga yangi soliqlar, bir yo'la pul yig'inlarini solish,

⁹ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прогресс. М., 1915. Стр 38.

shu jumladan ilgari hych qachon soliq va o'lponga tortilmagan vaqf mulklaridan ham soliq olish boshlandi.¹⁰

Imperiya amaldorlari Turkistonni ta'minlash uchun metropoliya katta xarajatlar qilayotgani haqida tez-tez gapirib hatto 1868-1881-yillarda bu xarajatlar mustamlakadan olingan daromadlardan 100 mln so'mga oshib ketganini ham ta'kidlab o'tishgan. Mustamlakachi ma'muriyat o'lkaning ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi aholisidan olinadigan soliq va o'lponlarni qisqa muddatda oshirib yubordi. Agar dastlabki yig'implar kam ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa, har bir o'tovdan olinadigan o'lpon-yiliga ma'lum hissa oshib ketaverdi. Tabiiyki rus qo'shinlari ketidan kelganlar harbiy ma'muriyati, keyinchalik harbiy xalq ma'muriyati yordami bilan shaharlarda, ayniqsa qishloq joylarda juda yaxshi imkoniyatlarga va katta imtiyozlarga ega bo'lishdi. Masalan 1865-1868-yillarda Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat ruslarning manfaatlariga xizmat qilgan. Mahalliy aholidan tortib olingan dehqonchilikka yaroqli yerlar yaylovlar, xususan, shaharlarni bog'lovchi yo'llar bo'yida, rus dehqonlariga berilishi natijasida, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori bu holatlarni atroflicha tahlil qilib bergan. XIX asrning 70-yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligining hududi Qo'qon xonligini yo'q qilish, Buxoro amirligining, Xiva xonligining anchagina hududlarini bosib olish hisobiga juda kengaydi.

Metropoliya ehtiyojlariga foydali Forg'ona vodiysi, Zarafshon vohasi, Amudaryo hovzasi mustamlakachilar ixtiyoriga o'tdi. O'lkada mustamlakachi tizimini mustahkamlash tabiiy va ishlab chiqarish resurslaridan metropoliya manfaatlarida mumkin qadar faolroq foydalanish, sobiq rus mafkurasini barqarorlashtirish rus umuman, nasroniy aholini ko'plab ko'chirish zarurati ma'qul topilgan edi. XIX asrning 60-yillaridan keyin imperiya hukmron doiralarida metropoliyadan ko'chirilganlar yer bilan ta'minlangan va yana yuz minglab ko'chirilganlar oladigan yerlarni xususiy mulk qilib, berish to'g'risidagi masala ancha uzoq vaqt qizg'in muhokama qilingan. Yettisuv, Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi 1867-yil 11-iyuldagi nizom loyihasida agrar munosabatlar borasidagi masala uncha yoritilmagani, birinchi general-gubernator K.P.Kaufmanga esa «Mazkur nizom loyihasida ko'rsatilgan asoslar qo'llanib, unda o'lka tuzumi uchun foydali va zarur deb e'tirof etilgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish» huquqi berilganligi sababli, yer-mulki to'g'risidagi masala deyarli 15-yil davomida general-gubernatorning ko'rsatma xarakteridagi farmoyishlariga muvofiq, lekin ko'pincha ancha erkin rus amaldorlari ixtiyoricha hal qilib kelindi. Bu ko'proq kazaklar va rus dehqonlarini Yettisuvda, Sirdaryo viloyatining Chimkent, Avliyoota uyezdlaridagi sug'orma mintaqada joylashtirish hamda yer bilan ta'minlash amaliyotiga xos edi. Chorizm va Turkiston ma'muriyati o'lkadagi siyosiy, ijtimoiy ahvolni o'ziga xos tarzda hisobga olgan holda, mustamlaka boyliklarini bu mintaqada Rossiya imperiyasining manfaatlariga yanada ko'proq va faolroq xizmat qildirish, imperiyaning hukmronligini tobora mustahkamlash maqsadida metropoliyadan birinchi navbatda ruslarning hukmronligi ta'minlash talab qilingan. Ular Turkiston iqtisodiyotiga, shuningdek, soliq tizimida jiddiy

¹⁰Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии . М., 1974. Стр. 17.

o'zgarishlarni amalga oshirdi. Bu Turkistondagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvol ularga bevosita bog'liq bo'lib qolganligidan darak beradi.¹¹

Umuman, XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasining hukmron doiralari O'rta Osiyoni bo'ysindirish, mustamlakaga aylantirish bo'yicha harbiy - ma'muriy choralarni faol hamda tajovuzkarona amalga oshira boshlagan pallada rus hukumati Kaspiy va Qora dengizlardan Tinch va Muz okeanlarigacha bo'lgan ulkan hududda hukmronlik qilib turgan edi. Imperiyaga tobe bo'lgan Polsha va Finlyandiya ham Rossiya imperatorining hukmi ostida edi. Sobiq sovet davridagi siyosiy-ijtimoiy nashrlarning ko'pchiligida, hatto ilgari davrlarning rasmiy nashrlarida ham XIX asr o'rtalarida Rossiya hukumatining mustamlakachilik intilishlarining ko'payishi asosan rivojlanayotgan kapitalizmning yangi xom ashyo va savdo bozorlariga bo'lgan ehtiyojlari bilan izohlanardi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, yangi boy, lekin harbiy jihatdan zaif bo'lgan tutash hududlarni bosib olishga intilishga, harakat qilishga asrlar davomida Rossiya tashqi siyosatida muhim o'rin egallab kelgan. Rus qo'shinlari endigina Samarqandni egallagan XIX asrning 60-yillari ikkinchi yarmiga oid tadqiqotlarning materiallari Turkistonning istilo etilishi Rossiya imperiyasi uchun uzoqni ko'zlagan strategik maqsadlarning bir qismigina bo'lganidan dalolat beradi. Turkiston viloyati tuzilguniga (1865-yil 2-mart) qadar Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorliklarining chegaralaridan tortib to Toshkent vohasigacha bo'lgan shaharlarga, harbiy istehkomlar atrofiga Rossiyadan aholi ko'chib kela boshlagan edi. Chor Rossiyasi mahalliy aholi manfaatlarini ifoda etuvchi ichki islohatlarni amalga oshirishni umuman xohlamas edi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy tuzim rus ma'murlari tomonidan bevosita boshqarildi. Mahalliy vakillar tomonidan bildirilgan talablar bajarilmasdan qoldi. Harbiy bosqinchilik-yillarida iqtisodiy tizim butunlay izdan chiqdi. Yirik markazlar ushbu holatlar natijasida ilgari ko'rinishlarini yo'qotdi. Madrasalar nazorat ostiga olindi. Tadqiqotchilar aholining iqtisodiy ta'minlanganlik darajasini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib chiqishgan.¹²

I.2. Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti

Rossiya hukumati Turkistonni iqtisodiy jihatdan batamom bo'ysundirish, uning boyliklarini tashib ketish, rus sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlovchi o'lkaga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini yuritdi. Bu siyosatni podsho Rossiyasi dvoryan-pomeshiklari va burjuaziyasi qo'llab-quvvatladi, ular o'lkani zuluk kabi so'rishga kirishib ketdilar. Rossiya to'qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun-yiligi 30-40 million so'm boj to'lab kelardi. Shu boisdan Turkistonni paxta xomashyosi etishtiradigan bazaga aylantirish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi, deb belgilandi. Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta-katta yer maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni ilgari egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga yer olib, undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga

¹¹ Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии . М., 1974. Стр. 24-25.

¹² Лювомиров П.Г. Очерки по истории русской промышленности. М.,1947. Стр. 431-436.

o'sha yerlar meros qilib birlashtirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa o'lkani barcha hosildor yerlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. Yer solig'i XIX asr oxirida 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1916-yilda 38 million so'mdan oshib ketdi. Podshoh ma'muriyati Turkistonning doimiy egasi bo'lish uchun «ko'chirish» siyosatini qo'lladi. Fon Kaufman tashabbusi bilan 1875-yildayoq Avliyoota tumanida Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar hisobiga 8 ta rus qishlog'i vujudga keldi. 1886-yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga muvofiq rus dehqonlarini ko'chirib keltirish va joylashtirish kuchayib ketdi. Podsho hukumatining «Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan yerlardan» foydalanish borasida yaratgan imkoniyatidan foydalangan kam yerli yoki yersiz rus xonadonlari, kazaklar ma'muriyatning ijozatisiz Turkistonga boyish maqsadida oqib kela boshladi. Shu tariqa, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 1910-yilga kelib 124 ta rus qishlog'i vujudga keldi, ularda 70 mingga yaqin ko'chib kelganlar yashardi. Ko'chib kelganlar mahalliy aholiga qarashli sersuv va hosildor yerlarni ham egallay boshlaydilar, yer-suv masalasida ular o'rtasida norozilik, to'qnashuvlar bo'ldi. Rus ma'murlari ko'chib kelgan kazaklarga tayanish, mahalliy aholi g'alayon ko'targuday bo'lsa, ularning yordamida bostirish maqsadida Turkistonda dehqonchilik qiluvchi rus kazaklarini qurollantirdi. Ular amalda podshoizm uchun zaxira qo'shinga aylantirildi. Mustamlakachilar o'lkada, xususan Farg'ona viloyatida paxta plantasiyalaritashkil etdi, sug'oriladigan yekin maydonlarini kengaytirdi. 1885-1916-yillarda paxta ekiladigan yer maydoni 40 ming tanobdan 550 ming tanobga ko'paydi. Hosildorlikni oshirish maqsadida 1884-yilda tajriba urug'chilik stansiyasiochildi. Tolasi sifatli urug'lik chigiti yaratildi. Paxtachilikda pishiq tolali va hosildor «Amerika» navini ekish keng tarqaldi, boshqa ekin maydonlari-yildan-yilga qisqartirib borildi. Qishloq xo'jaligida pilla etishtirish ko'paytirildi, qand-lavlagi, kartoshka, karam ekinlarini ekish o'zlashtirildi. Vinochilik, asalarichilik paydo bo'ldi. 1867-1896-yillarda Rossiya imperiyasi xazinasiga 150 million so'm sof daromad tushdi. Podshoh ma'muriyati Turkistonni Rossiyaning bir qismiga aylantirish, uning janubiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, boyliklarni va etishtirilayotgan xomashyoni tashib ketish maqsadida Temir yo'l qurilishini boshlab yubordi. 1880-1889-yillarda zudlik bilan Krasnovodsk, Asxabad, Marv, Podshojo'y, Kushka, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon shaharlarini bog'lovchi O'rta Osiyo temir yo'li qurildi. 1890-1905-yillarda Toshkent-Orenburg temir yo'li qurilib, Turkiston Rossiyaning markazi bilan bog'landi. 1915-yilda Buxoro-Qarshi va Termiz-Qarshi-Shahrisabz-Kitob temir yo'li qurildi.¹³ Temir yo'llar qurilishi munosabati bilan Rossiyadan ko'plab ishchilar, injener-texnik xodimlar ko'chib kelishdi va ular qadimiy Turkiston shaharlariga joylashtirildi, ular joylashtirilgan qism yangi shahar, yerli aholi yashaydigan qism eski shahar deb ataladigan bo'ldi. Yangi shaharlar, jumladan, Skobelev (Hozirgi Farg'ona) shahri vujudga keldi. Turkiston Rossiyaning markazi bilan temir yo'l orqali bog'langach, rus kapitali (sarmoyalari) o'lkaga oqib kela boshladi. Turkiston xom-ashyo bazasida savdo-sanoat yuritish, zavod-fabrikalar qurishga intiluvchilarga Rus-Osiyo banki,

¹³Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии . М., 1974. Стр. 28.

Moskva savdogarlar banki, Rossiyada valyuta banki pul qarz berib turdi. Natijada bir qator zavodlar, savdo shohobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi. Paxta va uni xarid qilish bilan shug'ullanuvchi 30 ta savdo shohobchasi vujudga keldi. 1913-yilda tuzilgan «Besh bosh» degan paxta-yog'shirkati Turkistonda 29 ta paxta zavodi qurdi, o'lkada etishtirilgan paxtaning 30 foizini xarid qilardi, 80 ming tonna paxta tolasini tashib ketar, 160 ming tonna chigit tayyorlardi. Katta sarmoyador Vodyayevlar Turkistonda «Vodyayevlar savdo uyi»ni tashkil etib, 30 ta paxta zavodi qurdi. Farg'ona vodiysidagi keng paxta dalalari, temir yo'llar, paxta tozalash zavodlari va Ivanovo to'qimachilik korxonalari Vodyavlar nazoratidagi katta kombinat tarkibiga kiritilgan edi. Ular-yiliga Farg'ona vodiysida etishtirilgan 7-8 million pud paxtani Ivanovoga tashib ketardi. Mustamlakachilar qanchalik boyib borsa, arzon ishchi kuchi bo'lgan mahalliy aholi shunchalik qashshoqlashib bordi. Dehqonlar og'ir shartlar asosida qarz olardi, qarzini to'layolmay o'ziga tegishli yerini sotib, yersiz qolardi, mardikorlik qilishga majbur bo'lardi. Ular yoki yer egalari qo'lida yollanib batraklik qilishga yoki yangi ochilayotgan korxonalariga arzimagan ish haqi evaziga ishlashga majbur bo'lardi. Yerni Rossiya banklari yoki puldor mahalliy boylar sotib olardi. Shu tariqa o'lkada 90-100 gektarcha sug'oriladigan yeri bo'lgan boy xo'jaliklari vujudga keldi. XX asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra o'lka aholisining 70 foizi kambag'al va qashshoqlar, 17 foizi o'rta hol, 13 foizi o'ziga to'q, boy oilalar hisoblanardi. Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada paxta tozalash, yog' va spirt ishlab chiqarish, pivo, tamaki, un, qand, sovun, g'isht, ko'n, mis eritish, jun yuvish, ohak qizdirish zavodlari va oziq-ovqat korxonalari qurib, ulardan mo'may daromad olishni yo'lga qo'yidilar. 1908-yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 1917-yilda ularning soni Buxoro amirligi va Xiva xonligida qurilgan korxonalarni ham qo'shib hisoblaganda 1200 taga etgan. O'lkada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi aholining tabaqalanishiga ta'sir etib, milliy burjuaziya va ishchilar sinfi shakllana boshladi. 1914-yilgi ma'lumotlarga ko'ra o'lkada 49,5 ming ishchi bo'lib, ulardan 25,5 mingi sanoatda, 24 mingi temir yo'l va unga xizmat qiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Turkistonda paxta tozalash zavodlari, do'konlari, tegirmonlar, katta-katta bog' uzumzorlarga ega bo'lgan mahalliy burjuaziya tabaqasi ham faoliyat yuritdi. Mahalliy aholiga mansub ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatan 2,5-3,5 baravar kam ish xaqi to'langan. Dehqonmi, mardikormi, ishchimi mahalliy aholi Rossiya mujiklari va ishchilari oldida kamsitilardi. Turkiston Rossiyaning jahon bozorlarida o'tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. 1895-yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan 6 million so'mdan ortiqroq summada temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog'och, choy, oziq-ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo'lsa, 1914-yilda sotilgan buyumlar salmog'i 243 million so'mdan oshib ketdi. Sotilgan maxsulotlarning 40 foizi o'lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to'qimachilik korxonalarida to'qilgan gazlamalar tashkil etardi.¹⁴ Rossiya savdo-

¹⁴Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прогресс. М., 1915. Стр. 45.

sanoatchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, Turkistondan xom-ashyo sotib olishdan ham katta daromad olardilar.

I.3. Turkiston o'lkasida harbiy generallar tomonidan oshirilgan tadbirlar.

Harbiy gubernatorlar, qoida tariqasida, O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan, Turkistonning tinch shahar va qishloqlarini ishg'ol qilishda «alohida mahorat» namoyish etgan ofiserlardan tayinlanar edi. Ana shundan 5-6-yillik xizmat davomida poruchik va shtabs-kapitanlar general-mayyor yoki general-leytenantga aylanishardi. Ularning maoshi bir-yilda 12 mingdan 15 ming rublgachani tashkil etar, bu esa Markaziy Rosiyadagi gubernatorlarnikidan 2 baravar ko'p edi.

O'zbekiston va Rossiya arxiv materiallari mustamlakachilikning 50-yil mobaynida harbiy gubernatorlar xizmati davomiyligini ko'zdan kechirishga imkon beradi. U qo'yidagicha bo'lgan: Sirdaryo viloyatida har biri o'rtacha 7-yildan xizmat qilib, 7 kishi almashgan, bular – I.N.Golovachyov, V.N.Troskiy, N.I.Grodekov, N.I.Korol'kov, I.I.Fedotov, M.Ya.Romanov, A.S.Galkin; Farg'ona viloyatida 1876-yildan boshlab o'rtacha 4-yildan xizmat qilgan 10 kishi almashgan, bular – M.D.Skobelev, A.K.Abramov, N.A.Ivanov, N.I.Korol'kov, Povalov-Shviykovskiy, Chaykovskiy, G.A.Arendarenko, Susanin, V.I.Pokotilo, A.I.Gippius; Samarqand viloyatida ham 1887-yildan boshlab o'rtacha 3-yildan ko'p xizmat qilgan 8 ta harbiy qilgan Kaufman «isyon» bilan kurashib, o'lka demokratik ziyolilarining xalq orasida vatanparvarlik va erksevarlik g'oyalarini yoyishga barcha urinishlarini chippakka chiqardi. Biroq tez orada Rossiya jandarmeriyasi boshlig'i graf P.A. Shuvalov bilan o'rtalarida mojaro ro'y berdi. O'sha davr esdaliknavisligining guvohlik berishicha, Kaufman 1863-yilgi Polsha qo'zg'oloni ishtirokchisi I.Ogrizkoni sudga tortadi. I.Ogrizkoga Shuvalovning millati polyak bo'lmish rafiqasi homiylik qilardi. Oqibatda 1866-yil 9 oktyabrda farmoni oliy chiqarilib, unga ko'ra Kaufman «egallab turgan lavozimidan general-adyutant unvonini qoldirgan holda bo'shatish» asnosida 11 oylik ta'tilga chiqarildi. 1867-yilda esa Turkistonga yuborildi.

Turkistondagi xizmati davomida Kaufman o'zini shafqatsiz istilochi, ayni mahalda iste'dodli va serg'ayrat ma'mur sifatida namoyon etdi. U o'ziga noma'lum o'lkaning murakkab sharoitiga moslasha bildi va Turkiston general-gubernatori lavozimida ishlash bobida o'ziga xos rekordni zabt etdi.

Kaufman ancha oqil va savodli ma'mur edi, ammo Rossiya generalitetining tipik vakili sifatida liberalizmga moyil emasdi va bosib olingan o'lkada samoderjaviya siyosatini qattiq qo'llik bilan yurgizdi. 15-yil mobaynida Kaufman o'lka va chor armiyasi boshida turdi, chorizmning yangi mustamlakadagi manfaatlarini o'ziniki o'rnida ko'rib «podshoh va vatanga» sadoqat va e'tiqod bilan xizmat qildi.

Kaufman chorizmning bu davrdagi barcha bosqinchilik yurishlariga rahbarlik qildi. Rus qo'shinlarining Samarqandni bosib olishini tasvirlagan, L.Kostenko shunday yozadi: «Qattiq qarshilik ko'rastishdan g'azab otiga mingan fon Kaufman asir olmaslik to'g'risida buyruq berdi. Buyruq aniq-raso bajarildi.

Yaradorlar yaxshiylarcha kaltaklandi». Uning buyrug'iga ko'ra Samarqand shahri talon-toroj etildi va yondirildi. Ana shu yurishda chor qo'shinlariga hamrohlik qilgan rus rassomi V.Vereshagin Kaufmanni shunday tavsiflaydi: «...endi esa hovlimizda turli odamlarni sud qilayotgan va jazolayotgan general Kaufmanni ko'rib turibman. Ofiserlar qurshab olgan yumshoq ko'ngil Konstantin Petrovich yurish stulida o'tirar va papiros chekkanicha, mutlaqo qizishmasdan: otilsin, otilsin, otilsin,» - deb, buyruq berardi. Turkiston xalqlarining fojiasi chor generallari tantanasiga aylandi, jumladan, Kaufman Samarqand, Qo'qonni olgani, Liviya va boshqa yurishlarda ishtiroki uchun shon-sharaf va unvoniga sazovor bo'ldi va uning ismi sharifi Peterburgdagi Muhandislik bilim yurti taxtasiga «Samarqand-1868» yozuvi bilan oltin harflar bilan bitilishiga farmoyish berdi. Kaufman har xil davrlarga moslashuvchan amaldor sifatida ham ko'zga tashlandi. 60-yillarning boshlarida Harbiy vazirlik devonida uning direktori bo'lib ishlash tajribasi, D.A.Milyutin rahbarligida harbiy islohotlarni tayyorlash maxsus qo'mitasida ishtiroki, shubhasiz, Turkistonda Kaufmanga qo'l keldi.¹⁵

Kaufman ma'muriyatning o'lkani boshqarish borasidagi chora-tadbirlarini yetarlicha ehtiyotkorona va mahalliy odatlar va an'analarga nisbatan majburan yon beruvchi deya tavsiflash mumkin. O'lkani iqtisodiy o'zlashtirish borasida oldinda turgan vazifalarni yaxshi tushungan Kaufman, o'zining vorislaridan farqli o'laroq, mintaqadagi ichki siyosatda ko'pgina tashabbuslar ijodkori bo'lgan edi. Ma'lumki, uning davrida Turkistondagi rus mulklarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida qullik qonun yo'li bilan taqiqlangan edi. Uning ma'muriyati mahalliy aholining diniy hayotiga, an'analari va urf-odatlariga aralashmaslik prinsipiga rioya etdi. Eski musulmon institutlari deyarli o'zgarishsiz qoldi. Mahalliy aholi uchun, masalan, Volgabo'yida bo'lgani kabi, musulmonlikdan voz kechgan va xristianlikka o'tganlarga pul nafaqasi belgilangan bo'lsa-da, aholi xristianlikni qabul qilishga majbur etilmadi. Kaufman faoliyatining ana shu jihatini Turkistonni boshqarish bo'yicha tadbirlarni ilk marotaba yoritgan Yevropa publisistlari hatto «dohiyona» deb ta'riflagan edilar. Ularning taxmin qilishicha, ana shu tadbirlar tufayli Rossiya mintaqada yirik siyosiy larzalarga duchor bo'lmadi va vaziyatni barqarorlashtirishga erishdi. Gap, albatta, Kaufmanning «dohiyligida» emas, balki uning ehtiyotkorligi va vaziyatni hushyor baholay olish layoqatidadir. Harbiy vazir Milyutinga o'zi yozishicha: «musulmonlar bu qadar sovuq vazminlik, bu qadar loqaydlik, hatto oliy hokimiyat vakillariga hurmasizlik namoyish etishmoqdaki, qandaydir shior mavjudligini taxmin qilish mumkin. Men shu narsaga amin bo'ldimki, odamlarning kayfiyati risoladagidek emas, rus hokimiyatiga itoat etmaslik va qulay vaziyatda undan ozod bo'lish uchun foydalanishga shaylik darhaqiqat mavjud bo'lgan mamlakatda uzoqni ko'ra olmaslikka yo'l qo'ya olmasdik.¹⁶

«Rus hokimiyatiga itoat etmaslik», «undan ozod bo'lishga shaylik» - Kaufmanning bosib olingan yerlardagi majburiy moslashuvchan xatti-harakatlarining asosiy vajidir. Kaufman o'z a'yonlariga «ularning o'z tabaqalariga nisbatan yangi mavqyei»da ekanligini, ular «qurol bilan ham, qonun hujjatlari bilan ham» ular «o'lkani

¹⁵Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. СПб., 1871. Стр. 161.

¹⁶Верещагин В.В. Самарканд в 1868 году. «Русская старина». 1889, №9, Стр. 617-649.

ma'naviy zabt eta olmaslik»larini, Turkiston xalqlarining «eskirgan siyosiy va ijtimoiy hayoti shakllarini» «fuqarolikning yangi normalari bilan» almashtirish zarurligini singdirishga urindi. Bu «fuqarolik normalari» esa, ma'lumki, ochiqdan-ochiq mustamlakachilik va ulug'davlatchilik-shovinistik xarakterida edi.

Kaufman tomonidan tayyorlangan Turkistonni boshqarish bo'yicha loyihalar ularni «siyosiy nuqtai nazardan zararli», Kaufmanning yer-soliq masalalariga aralashuvini «bemahal va o'rinsiz» deb hisoblagan Rossiya vazirliklari tomonidan ikki marotaba rad etildi. Kaufmanni «byurokratik radikalizm»da, ya'ni muhim davlat masalalarini hal etishga volyuntaristik yondashuvda ayblash uchun loyihalar yetarlicha to'liq ishlab chiqilmagani vazirligi «tuzemslarning ruslar singari barcha huquqlari sanab o'tilishi»ni ortiqcha deb hisobladi va «qishloq va shahar ahlining qonun bilan belgilangan huquqlari» tub aholiga berilishi bilan cheklanishni tavsiya etdi. «O'z turmush sharoiti bilan ko'proq imperiyaning eng quyi tabaqalariga to'g'ri keluvchi» qishloq aholisi huquqlari borasida ularni kengaytirishdan tiyilish tavsiya etilgan va u «alohida huquqlarga ega rus bo'lgan fuqarolar ommasiga qiyosan olganda hech qanday» huquqlardan foydalanmasligi uqtirib o'tilgan edi.¹⁷

O'z navbatida, Ichki ishlar vazirligi Kaufmanning «shahar ahli huquqiy holati»ni Turkistondagi barcha shaharlar aholisiga berish niyatini tanqid qiladi va bunday huquqlarga faqat Turkistonning tarixan shakllangan yirik savdo markazlari – Toshkent, Qo'qon, Namangan va Samarqand shaharlari aholisi ega bo'lishi mumkinligiga ishora qilgan edi. Qolganlar borasida esa ruslar ko'chib kelgan, rus savdosi shakllangan aholi manzillari aholisiga berilishi mo'ljallangan edi. Chimkent, Avliyoota, Kattaqo'rg'on va Turkiston ana shunday aholi manzillari jumlasiga kiritilgan edi.¹⁸

Turkiston o'lkasida yer tuzilishi masalalari Moliya vazirligida ko'pgina e'tirozlar tug'dirdi. 1873-yilgi Loyihaga muvofiq «amlok» yerlarini aslida ularga ishlov bergan dehqonlarga foydalanish uchun berish hamda bu tartibni keyinchalik vaqf va mulk yerlariga joriy etish rejalashtirilgandi, Moliya vazirligi esa bu kabi yer tuzilishining asosiy tashabbuslari Rossiyada amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan butun yer islohotlarining umumiy tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri zid kelishini, loyihaning 204-moddasi esa «yer egasi unda etishtirilgan butun mahsulotga, uning sarhadida bo'lgan suvga mulkdorlik huquqi to'g'risidagi (Qonunlar majmui, X jild, 1,4 bob, 404-modda) asosiy qonunlardan biriga» ziddir; sug'orish kanallari, daryolar va soylarga davlat mulkdorligi, Kaufman taxmin qilayotganidek, suvdan foydalanish belgilangan odat bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda ham «tamomila qalbaki» bo'lib chiqishi ta'kidlangan edi. Keyin esa 1873-yilgi loyihada rejalashtirilganidek «davlat foydalanishi huquqida» mulkka egalikda bo'lgan yerlarga mulkdorlik huquqi loyihani mazkur bo'limining Rossiyadagi yer tuzilishi asoslariga muvofiq keltirilishiga yoki «imperiyaning tub qonunlarini o'zgartirish»ga olib kelishi ta'kidlanadi.

¹⁷Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. М., 1980, Стр. 34.

¹⁸Чижов В. Культурные преобразования К.П. Кауфмана в Туркестане. Одесса., 1915. Стр. 16.

II BOB.

RUS CHORIZMINING TURKISTONGA KIRIB KELISHI VA UNING OQIBATLARI.

II.1. Rossiyaning Turkistonni bosib olishga bo'lgan dastlabki urinishlari.

Turkiy xalqlar yashovchi bepoyon hududlarni bosib olish Rossiya podshohlarining azaliy orzusi edi. Bu boradagi amaliy harakat Ivan Grozniy zamonidan boshlangan edi. U Qozon (1552), Ashtarxon (1556), Sibir (1581-1590) xonliklarini bosib oladi va endi Turkiston to'g'risida ma'lumotlar to'plashga kirishadi. Shu maqsadda 1558-1559-yillarda Antoni Jenkinson boshliq elchilarni Buxoroga yuborib josuslik ma'lumotlari to'plagan ma'lum. Rossiya hukumati XVII asr davomida 9 marta elchi yuborib, Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodiy va harbiy ahvolini o'rganadi. Rossiya podshohi Pyotr I zamonida «Sharqni egalla» siyosati yuritildi. Bu siyosatning tarkibiy qismlaridan biri Turkistonni egallash edi. Turkistonni bosib olish rejasi tuzildi. Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarining g'arbiy, shimoliy, sharqiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, xonliklarni Rossiya tobeligiga olish maqsadida katta harbiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. 1715-yilda sharqiy chegaralarda Buxgols rahbarligida, 1716-1717-yillarda Xiva xonligida Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida harbiy ekspeditsiyalar tajovuzkorona harakat qildilar. 1721-1724-yillarda Florio Beneveni boshliq elchilar Buxoroda josuslik faoliyatini yuritdi. XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg'izlarning Kichik Juz, O'rta Juz, Katta Juz hududlarini o'ziga bo'ysundirib, ularning hududida o'zbek xonliklariga bostirib borishda foydalanish maqsadida 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar qurdiradi, ularga qo'shinlarini joylashtiradi.¹⁹ Angliya-Rossiya raqobati XIX asrda yirik mustamlakachi davlatlar tomonidan Afrika, Osiyo, Amerika va Okeaniya mamlakatlarini bo'lib olish uchun kurash yanada kuchayadi. XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya - Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ikkala davlat bir-biridan yashirin ravishda O'rta Osiyoga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar bilan til topish yo'llarini qidirardi, shu maqsadda harbiy missiyalar yuborar edi. Angliya Hindiston tomondan, Rossiya qozoq cho'llari va Sibir tomondan harakat qilardi, o'zbek xonliklarini o'z ta'sir doirasiga olish, o'z manfaatlari yo'lida xonliklarning boyliklari, tabiiy resurslaridan foydalanish, o'z mustamlakasiga aylantirishga intilardi. Shu boisdan ingliz-rus raqobati kundankunga kuchayib bordi. Hindiston va Afg'oniston orqali o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi. Rossiyaning Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo'lgan Angliya hukumati Rossiya rejalarini barbod qilish choralarini ko'rdi. Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlari to'plash maqsadida yuborilgan Ye.K.Metendorf 1824-yildayoq Buxoroda bo'lgan, ammo maqsadiga erishaolmay shu yerda halok bo'lgan edi. 1831-1833-yillarda mazkur kompaniya leytenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida keladi. U yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatuvlar asosida uch jildlik «Buxoroga sayohat» nomli kitob yozib,

¹⁹ Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 32-35-бетлар

unda, jumladan: «O'zbeklar... mening kim ekanimni bilmaganlaridan barcha narsalar xususida, hukmdorlari siyosatidan tortib bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar», -deb yozadi.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. 1841-1842-yillarda Angliya hukumati mayyor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yubordi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchchala Xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar. Biroq ularning rasmiy hujjatlari bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatadi. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida mayyor Volf Buxoroga yuboriladi, ammo uning 1843-1845-yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagilar qatl etiladi, Volfning o'zi zo'rg'a qochib qutiladi. Shuningdek, 1843-yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlarini yo'lida ishlagani ma'lum. Inglizlarning O'rta Osiyoda jiddiyroq siyosat yuritishiga Afg'oniston xalaqit berardi. Shu boisdan inglizlar maxsus «afg'on siyosati»ni ishlab chiqib, Afg'oniston amirini bo'ysundirish, Hirot va Qandahorni inglizlar mulkiga aylantirish, ularda harbiy kuchlarni joylashtirishni rejalashtiradi. Shu maqsadda Angliya 1838-1842 va 1878-1880-yillarda Afg'onistonga ikki marta bosqinchilik urushlari uyushtirdi. Biroq Afg'onistonni bo'ysundira olmadi. Ost-Hindiston kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng foydalandi. Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi podsho Rossiyasini tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy katta qo'shin bilan hujumga shaylanib turardi. U 1834-yilda Kaspiy dengizi qirg'og'idagi Mang'ishloqda harbiy istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovskaya deb nom berdi. 1845-yilda Orenburg va Yoyiq, 1847-yilda Sirdaryoning Orol dengiziga qo'yilish joyida Raim (Orol) harbiy istehkomlari qurildi. Perovskiy qo'shinlari 1853-yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oqmasjid qal'asini bosib oladi va u yerda mustahkam o'rtnashadi. Xonliklarning shimoliy-sharqiy tomonida esa G'arbiy Sibir general-gubernatori G.Gosford hujumga tayyorlanish uchun 1847-yilda Yettisuvdagi Ulug'tov yaqinida ikkita harbiy istehkom, 1848-yilda Qorabuloq qal'asini, 1854-yilda Olmati ovuli yonida Verniy istehkomini qurib, harbiy kuchlarni joylashtiradi.²⁰

II.2. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi.

1860-yilda Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni birin-ketin bosib olish boshladi. Perovskiy va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda Rossiyaning O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi. Turkistonni bosib olish

²⁰Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 89-6er.

masalasi podshoh Aleksand II tomonidan 1859 va 1861-yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokama qilinadi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqlik qilish, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi. O'rta Osiyo xususidagi raqobatda Rossiya ustunlik qildi. Angliya Rossiyaning harbiy kuch bilan O'rta Osiyoni egallashga qaratilgan harakatlarini to'xtatib qololmadi. Rossiya bosqini. 1864-yil may oyida Qo'qon xonligi hududiga Sharq tomondan polkovnik Chernyayev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, G'arbdan polkovnik Verevkin qo'shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari - Avliyoota, So'zak, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinchilar 1864-yil 14-iyulda Chimkentga yurish boshladilar. Bu orada Qo'qon xoni Sayyidxon va lashkarboshi Mulla Alimqul bor kuchlarini to'plab, Chimkent atrofida jangga tayyorlandilar. Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida uch kun davomida qattiq jang bo'ldi.²¹ Manbalarda yozilishicha, jangda shunday qirg'in bo'ldiki, o'liklardan tepalar hosil bo'ldi. Jangda Mulla Alimqul qo'shinlari g'olib chiqdi, Chernyayev qo'shinlari jangda engilib orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Mulla Alimqul o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi to'g'risida xabar olindi. Mulla Alimqul o'z qo'shinlari bilan Qo'qon himoyasiga o'tlanishiga majbur bo'ldi. Vaziyat Chernyayevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib, 1864-yil 14 sentyabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib oldi. Chernyayev 1864-yil 2 oktyabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shahari bo'lib, uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi. Devor tepasining kengligi 2 metr bo'lib, mudofaa minoralari, o'q otadigan shinaklari bo'lgan, devor atrofi suv to'ldirilgan zovur bilan o'rab olingan edi. Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq mag'lubiyatga uchradi, 72 zobit va askarni yo'qotdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi. Chernyayev 1864-1865-yil qishini tayyorgarlik bilan o'tkazdi, uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan etib kelgan qurol-yarog', yangi batalonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirildi. Mahalliy aholi orasida o'z Vataniga xiyonat qiluvchi, dushmandan panoh izlovchilar ham topildi. Abdurahmonbek, Saidazimboy, Soatboy kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernyayevga ko'maklashdilar. 1865-yil bahoridan Chernyayevning yangi hujumi boshlandi. 28-aprel kuni Chirchiq daryosi qirg'og'idagi Niyozbek qal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'orni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldiradi. Amirlashkar Alimqul katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga etib keladi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'ldi. 9-may kuni Salar arig'i bo'yida katta jang bo'ldi. Alimqul og'ir yarador bo'ladi va halok bo'ladi. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirildi, 15-iyun kuni Chernyayev Toshkentni zabt

²¹Sodiqov H, Jo'rayev N. Ўша асар. 91-бет.

etdi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib M.Chernyayev tayinlanadi.²²

Chernyayev 1866-yil yanvarida Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi, o'niga general D.Romanovskiy tayinlanadi. Romanovskiy Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi. Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligi hududlari bosib olinayotgan paytda Buxoro amiri tomoshabin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turdi. Madomiki u amir Muzaffar homiyligida Qo'qon taxtini uchinchi marta egallagan edi. 1866-yil may oyida Yerjarda bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga qochdi. Romanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi, 1866-yil 19-22-may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida Xo'jandni egalladi. 1866-yil avgustda Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiy Toshkentga keldi va Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo'shin tortib 1866-yil oktyabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asini bosib oldi. Jizzax uchun qattiq jang bo'ldi. Jizzax shahri balandligi 4 metr va eni 3 metrlik ikki qavat devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'aga o'xshardi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 to'p bor edi. Himoyachilar shaharga kirib-chiqadigan darvozalarni tuproq bilan ko'mib tashlab, yo hayot, yo o'lim deb jang qildilar. 11-18-oktyabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egalladi. Himoyachilardan 6000 kishi halok bo'ldi, 2000 kishi asirga olindi. Istilochilar atigi 100 ga yaqin kishi yo'qotdi. Bosqinchilar huvullab qolgan shaharni talon-taroj qildilar. Xo'jand, O'ratepa, Jizzaxda qonli janglar bo'layotgan bir paytda Qo'qon xoni, Buxoro amiri qayerda edi, ular nima karomat ko'rsatdi? degan tabiiy savol tug'iladi. Ular o'z joyida, hali ham o'zlarini davlat boshlig'i, hukmdor deb hisoblar edilar, ammo biron-bir tadbir ko'rishga ojiz, vaziyatni to'g'ri tahlil etishga aql-farosatlari ham etmas edi, shekilli. Ular bosqinchilarni emas, biri-ikkinchisini mag'lub qilish, ko'zini o'yishga harakat qilardi. Bo'linganni bo'ri yer, deb shuni aytsalar kerak-da. Rossiya imperatori Aleksandr II ning 1867-yil 1-iyuldagi farmoniga binoan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Turkiston harbiy okrugi tuzildi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant K.P. fon Kaufman tayinlandi. Unga biror davlatga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan, shu boisdan u «yarim podsho» deb atalardi. Bu tadbir podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olish yo'lidagi harakatida yangi bosqich bo'ldi. Fon Kaufman Samarqandga tomon yurish boshladi. 1868-yil 1-may kuni shahar yaqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag'lubiyatga uchratdi, bir paytlar dovrug'i olamni tutgan Samarqand 2-may kuniyoq deyarlik jangsiz dushmanga taslim bo'ldi. Bu voqyeadan dunyo hukmdorlari, jumladan, Rossiya podshohi ham hayratlangan. Buxoro amiri Muzaffar Samarqandning bosib olingani to'g'risidagi xabarni yetkazgan odamni

²² История Узбекской ССР. Том второй, Ташкент., «Фан», 1968. Стр. 21.

osib o'ldirishga farmon berib, o'zi alamidan yig'lagan. Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868-yil 2-iyunda to'qnashdi, qattiq jang bo'ldi, amir qo'shinlari tormor etildi. Bu orada istilochilarga qarshi Samarqandda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaxrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27-may kuni Samarqandga qo'shin bilan etib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayyor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldirildi va yarador qilindi. Samarqanddagi voqyealardan xabar topgan fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keladi va 8-iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyruq beradi. Aholi qirg'in qilindi, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburgga olib ketildi. 1968-yil 2-iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi.²³ Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon to'lash, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oldi. Bunday bosqinchilik, talonchilik sulhi aholi yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo'rabek va Bobobek kuchlari nafaqat bosqinchilarga, shuningdek, amir Muzaffarga qarshi ham qaratiladi. Ular Abdumalikni amir deb e'lon qiladilar. Amir Muzaffar endi bosqinchilarga emas, fon Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kiradi va 1870-yil avgustda ularni kuch bilan bostirib, o'z taxtini saqlab qoladi. Shahrissabz va Kitob beklilari amirlik tarkibida qoladi.

Rossiya hukumati o'zining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakati bilan G'arb mamlakatlari, jumladan, Angliya bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik tadbirlarini ham ko'rdi. Rossiyaning Londondagi elchisi F.I.Brunov va Angliya tashqi ishlar vaziri lord Klarendon o'rtasida bo'lgan muzokaralar bunga misol bo'la oladi. Ular Turkiston «bufer» poyasi, ya'ni O'rta Sharqda Rossiya bilan Angliya yerlari o'rtasida birini-biriga tutashtirmaydigan betaraf hudud masalasini muhokama qildilar. 1873-yilda Angliya va Rossiya o'rtasida Afg'onistonning Angliya ta'sirida bo'lishi, uning shimoliy qismi va Amudaryo bo'ylari «betaraf hudud» bo'lib qolishi to'g'risida bitim imzolandi. Bu bitim Rossiya imperiyasiga endi Xiva xonligi taqdirini hal qilishga kirishishga qulay imkoniyat yaratdi. Xiva xonligiga yurish. Fon Kaufman 1873-yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 ta to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshladi. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Umumiy qo'mondonlik Kaufman zimmasiga yuklatilgan edi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon bosqinchilarga qarshi

²³ История Узбекской ССР. Том второй Ташкент., «Фан», 1968. Стр. 27.

o'z qo'shinlarining bir qismini Muhammadmurod devonbegi boshchiligida Chorjo'y tomonga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazaraspga, Inoqbek boshchiligidagi qismni Xo'jayliga safarbar etdi. Xon podsho Rossiyasi qo'shinlariga bas kelolmasligini anglab etgan edi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873-yil 18-may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazaraspni egalladi, Qo'ng'iro't va Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etildi, talandi. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahimxon poytaxtni tashlab chiqadi va Izmiqsho'r tarafdagi turkman ovuliga yashirinadi. Xivalik Otajon to'ra Kaufman huzuriga borib shaharni vayron etmaslikni so'raydi. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to'raga xonni topishni buyuradi va xon xazinasini, moddiy-ma'naviy boyliklarni qo'lga kiritadi.²⁴

1873-yil 12-avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog'ida Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo'ladi va tarixda Gandimiyon shartnomasi deb nom olgan shartnoma imzolanadi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantirildi. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka oltin hisobida 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatildi. Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida bojsiz savdo qilish, xonlik hududida yer olish, sanoat korxonalarini qurish xuquqini oldi. Xon o'zini Rossiya podshohining itoatkor xizmatkori, deb tan olishga majbur bo'ldi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqtda Qo'qon xonligida hokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868-yil 13-fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdogarlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hyechqanday moneliksiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Bu shartnomadan qoniqmagan Qo'qon xonligidagi kuchlarning Xudoyorxondan noroziligi ortib boradi. Buning ustiga xonlik hududi qisqarganligini ro'kach qilib xazinani to'ldirish uchun yangi-yangi soliqlar joriy etiladi. Xudoyorxon bosqinchilarga o'zini yaqin tutar, Qo'qon bilan Rossiyani bir davlat deb hisoblardi. 1973-yilda Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilarning bir qismiga qirg'izlarning boston urug'idan chiqqan mulla Ishoq Hasan o'g'li boshchilik qiladi. U Qo'qon xoni Olimxonning nevarasi Po'latxon deb e'lon qilinadi va u Namanga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlaydi. Ayni paytda xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek, Sherali dodxoh, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'taradilar. Ular bir tomondan, Podsho Rossiyasi bosqinchilariga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxonga qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qo'zg'olonchi kuchlarga ergashadi. Qo'zg'olonchilar 1875-yil 9 oktyabrda Qo'qonni egallaydilar. Xudoyorxon ularni bostirishga ojizlik qilib, 1875-yil 22-iyulda Qo'qondan Toshkentga qochib ketadi.

²⁴Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 176-178-бетлар

Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi qimmatbaho boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Xudoyorxon, podsho ma'murlari hiylasini anglab etkach, bir amallab bandilikdan qochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun topadi. Xudoyorxon qochgach, qo'zg'olonchi kuchlar kimni xon qilib ko'tarish masalasida ikkiga bo'linib ketadi. Ayrim kuchlar Nasriddinbekni, boshqalari Po'latxonni taxtga chiqarmoqchi bo'ladi, ziddiyat yanada kuchayib boradi.

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875-yil avgustda katta qo'shinlarni urushga safarbar etdi. Xonlikni bosib olishda generallar M.D.Skobelev, Golovachev va boshqa zobitlar «jonbozlik» ko'rsatdilar. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobachi bosqinchilarga taslim bo'lib ular tomoniga o'tdilar. 1876-yil fevralda xalq qo'zg'olonlari qon bilan bostiriladi. Po'latxon 1876-yil 1-martda dorga osildi, uning safdoshlari ayovsiz jazolandi. 1873-1876-yillardagi Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar xalqning ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qo'zg'oloni deb e'tirof etgan. 1876-yil fevralda Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoni bilan Qo'qon xonligi tugatildi, uning o'rniga Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga M.D.Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. U tez orada Oloy vodiysini ham o'z tasarrufiga kiritdi. Yendi bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishdilar. 1877-yilda Qizil Arvot, 1881-yilda Asxabod, 1884-yilda Marv bosib olindi. Bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20-yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Bosib olingan o'lkada mustahkam va batamom o'rnatib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralarini ko'rdi. 1881-yilda Rossiya-Eron chegara konvensiyasi imzolaniib, yangi Rossiya mulklari va Rossiya-Eron o'rtasidagi chegara belgilandi. 1885-1887-yillarda Rossiya va Angliya hukumatlari tomonidan Rossiya-Afg'oniston chegarasi, 1895-yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilanadi. Bu podsho Rossiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi bo'ldi.²⁵ Mustamlakachilik idora usuli Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V.Girs 1867-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi» haqida qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amalda kuchga kirdi. O'lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo'lida to'plandi. General-gubernatorlik Kengashi va to'rt bo'limdan iborat mahkama tuzildi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat, ikkinchisi moliyaviy xo'jalik, uchinchisi soliq va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan. To'rtinchisi maxsus bo'lim deb atalgan. General-gubernator bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. U Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan.

²⁵Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 229-6er.

II.3. Podsho Rossiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati

Podsho Rossiyasining Turkistonda joriy etgan ma'muriy- boshqaruvi tizimi xalqning boshiga solingan siyosiy sirtmoq bo'ldi. Bosqinchilar avvalo, Turkiston boyliklarini talon-taroj qildi, so'ngra o'lkani xom-ashyo bazasiga aylantirib iqtisodiyotni o'z manfaatlari yo'lida jilovlab oldi. Og'ir soliqlar, g'ayriqonuniy majburiyatlar aholini tobora qashshoqlashtirib bordi. Mustamlakachilar mahalliy aholining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini oyoq osti qilardi, ma'naviy zug'um kuchayib borardi. Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgach, uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy zulmi kuchayib bordi. Chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi xalqning noroziligi, nafrati oshib bordi, qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allar bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar. 1879-yilda 600 ga yaqin g'alayonchi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosini qurshab olib, harbiy gubernatordan Marg'ilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qiladi. G'alayonchilar avzoidan cho'chigan, vaziyatning jiddiyligini anglagan viloyat harbiy gubernatori bo'lajak katta janjalning oldini olish maqsadida xalqqa yon bosib, ularning talablarini o'rganib chiqishga va'da beradi va g'ayriqonuniy soliq yig'uvchilarni aniqlab, ularni ishdan chetlashtirishga majbur bo'ladi. 1880-1883-yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885-1892-yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy chiqishlari, harakatlari ko'tarilgani qayd etilgan. Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy-gubernatori Vrevskiy aholidan ko'z-quloq bo'lib turish uchun Markaziy hukumatga maxfiy siyosiy polisiya xizmatini tashkil etish taklifini ilgari suradi. U Farg'ona viloyatining har bir tumanida maxfiy ayg'oqchilar tarmog'ini vujudga keltirish uchun o'z ixtiyoridagi mablag'dan foydalandi. O'lkaning oliy harbiy-siyosiy doiralari tobora kuchayib borayotgan norozilik to'lqinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladi. Qurolli kuchlar va polisiya xizmatini kuchaytirish tadbirlari uchun bir-yilda 5,5 mln. so'm sarflanardi. Holbuki, undan ham muhim hisoblangan temir yo'l uchun bor yo'g'i 190 000 so'm ajratilganini hisobga olsak, podsho hukumatining xalq harakatidan naqadar xavotirga tushgani aniq bo'ladi.²⁶

Toshkent qo'zg'oloni. 1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga «vabo isyoni» yoki «toshotar voqyeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon bo'ldi. Iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar ma'muriyati shoshilinch choralar ko'rdi. Vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi 12 ta qabristonga ko'mish man etildi, shahar tashqarisida 4 ta yangi qabriston ochiladi, deb e'lon qilindi. Shahardan chiqish va kirish nazorat ostiga olindi. Shaharda vabo kasaliga chalinganlar yo'q qilinar ekan, degan mish-mishlar tarqaldi. Toshkent shahar ma'muriyati tibbiyot nuqtai nazaridan to'g'ri

²⁶Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 433-438-бетлар

bo'lgan bu tadbirlar haqida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Boshqa kasallik bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko'mish ishlarini rasmiylashtirish ham cho'zilib ketdi, suiste'molliklar kuchaydi. Odamlar noiloj o'likni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldi. Polisiya bundaylarni topib hibsga ola boshladi. Qabristonni ochib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi. Shaharning eng taniqli kishilaridan hisoblangan Azizyor Yeshon, Abulqosim xo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomhammad va boshqa kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi 24-iyunda shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldilar. Ularga hokim to'ra-shahar boshlig'i polkovnik S.R.Putinsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub to'qnash kelishdi. Qamchisini o'ynatib kelgan oqsoqol xalqning so'zlarini, arz-dodini tinglash o'rniga unga dag'dag'a qila boshladi. Xalq uning boshiga toshlar yog'dirdi. Mashxur «Toshotar» voqyeasi boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putinsev esa o'zining sodiq qulini panohiga olib, xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni berishini talab qildi. Putinsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rib, to'pponchasini g'ilofidan chiqarib, dag'dag'aga o'tdi. Sabr kosasi to'lgan xalq, uzoq o'ylab o'tirmay, hokimga hujum boshladi, Putinsev va uning mirshablarini do'pposladilar, haloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildilar. Qurollangan soldatlar etib kelgach, xalq ayamay o'qqa tutildi. Noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashlaydi, ko'p kishi halok bo'ladi va yaralanadi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xalqning o'zi jasadlarni va yaradorlarni o'zlari bilan olib ketishgan. Keyingi kunlari Anhordan topilgan mayitlar soni 80 taga etgan. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindilar. Mustamlakachilarning zo'ravonligi xalqning ozodlik harakatini to'xtatib qololmadi.

Andijon qo'zg'oloni. Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammadali eshon boshchilik qildi. U otasining kasbini olib duk yasardi, shuning uchun uni Dukchi eshon deb atashardi. Muhammadali Buxoroda o'qidi, Makkaga hajga boradi, Farg'ona viloyatidagi Sultonxon To'ra eshon xizmatida bo'ladi. Uning vafotidan keyin o'zi eshon bo'ladi. Uning maqsadi rus hukmronligidan qutilish, Farg'onada o'z kishisini xon qilib ko'tarish edi. Uning atrofida kambag'allar to'plana bordi, bog'lar yaratdi, suvsiz yerlarga suv chiqardi. Muhammadali eshon o'z muridlari bilan kengashib, mustamlakachilarga qarshi Andijon, Marg'ilon va O'shda joylashgan harbiy lagerlarga hujum qilish rejasini tuzadi. 1898-yil 17-may kuni Muhammadali eshon xaloyiqni qo'zg'olonga da'vat qiladi. Shu kuni xufton paytida har kim qo'lga tushgan narsani olib Andijon shahariga jo'nadilar. Eshon boshliq qo'zg'olonchilar Qo'tchi qishlog'iga kirishganda yana 200 kishi qo'shilgan. Qoraqo'rg'on va Oqchidan o'tib Qo'yilga yaqinlashganida ularga mingboshi G'oyibnazar o'z yigitlari bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar Andijonga yaqinlashganlarida ularga boy savdogar Aliboy qurollangan 190 yigiti bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar soni

2000 kishiga etadi. Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradi va kazarmaning piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o'lja qilib olib, birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularga ichkaridagi soldatlar qarshilik ko'rsatadilar. Chorak soat davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar to'rt o'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar. Harbiy garnizondagilardan 22 kishi o'ldiriladi, 24 tasi yarador bo'ladi. Andijonda, ayniqsa rossiyaliklar yashaydigan yangi shaharda mustamlakachi amaldorlardan tortib to'rtinchi fuqarogacha vahimaga tushib, uylariga bekingan va musulmonlar yalpi hujumini kutgan. Hatto tumanboshi polkovnik Koishevskiy ham ko'chaga chiqishdan qo'rqib uyida bekinib yotadi. Eski shahar oqsoqoli Xolbahodir mingboshi uning oldiga kelganidagina u voqyeaning tinch tugaganini bilgan va darhol askar chaqiradi. Ular yangi shahardan boshlab ko'ziga ko'ringan musulmonlarni otadi. Bu voqyealardan mutlaqo bexabar, ertalab ishlashga chiqqan minglab dehqonlar va hunarmandlar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'lishadi. Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi. Mustamlakachilar Muhammadali yeshonni tutish uchun Mingtepaga yurdilar, yo'lda duch kelgan kishini otib o'ldirib Mingtepaga bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. 1898-yil 12-iyunda Muhammadali eshon va uning yaqin maslakdoshlaridan 5 nafari osib o'ldirildi, yuzlab kishilar qamoq jazosiga hukm etildi, 18 kishi Sibirga surgun qilindi. Dukchi eshon qo'zg'oloni izsiz ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Yakkatut, Namangan, Beshariq, Marg'ilon va boshqa tuman va qishloqlarda bosqinchilarga qarshi harakatlar bo'ldi. 1898-yilgi qo'zg'olon chorizmga qattiq zarba berdi, uning negizlarini titratdi. Qo'zg'olonchilar Vatan ozodligi uchun kurash tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.²⁷

1916-yil xalq qo'zg'oloni. Birinchi jahon urushi unda ishtirok yetayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. O'n minglab askarlar jangda qurbon bo'ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya Oliy Bosh qo'mondonlik shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni» zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga umid bog'ladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916-yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chiqardi. Turkiston general-gubernatoriga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi. O'lkada safarbar qilinuvchilarning ro'yxatlari tuzila boshlandi. Xalq bu tadbirga «mardikorlikka» olish deb nom berdi. Mahalliy ma'muriyat mardikorlikka chaqirishni boylik orttirish vositasiga aylantirdi. Boylarning o'g'li pul bilan qutulib qolar, kambag'al oilalar esa yolg'iz o'g'ildan, boquvchisidan ayrilar edi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi.

²⁷Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011. 439-443-бетлар

Petrograddan ba'zi tabaqadagilar tovon yevaziga mardikorlikdan ozod qilinishi mumkinligi to'g'risida qo'shimcha ko'rsatmalar etib kelganidan keyin xalq noroziligi qo'zg'olonga aylanib bordi. 4-iyulda Xo'jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unda dehqonlar, mardikorlar, ayollar - jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o'tdi. Polisiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar etib kelib polisiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o'ldi, bir kishi yarador bo'ldi. Xo'jand voqyeasi haqidagi xabar butun Turkistonga yoyildi. 5-iyulda Samarqand uyezdining Urgut qishlog'ida g'azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar volost boshqaruvining mahkamasi oldiga to'plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uyezdining Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror va Angar volostlarida ham namoyishlar bo'lib o'tdi. 11-iyulda Toshkentda katta g'alayon boshlanib ketdi. Hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi polisiya boshqarmasi tomon yo'l oldilar.²⁸ Bu yerda qo'g'olonchilarning katta guruhi to'plandi. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko'ra o'zimiz o'lganimiz yaxshiroq, podsho o'lib kesin» deya maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Yo'lchi Ibrohimov (ko'nchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhribibi Musayeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar. «Ur, polisiyachilarni!» degan qichqiriqlar bilan boshqarmaga hujum qildilar. Qamal va otishma boshlanganidan bir soat keyin yordamga jazo qo'shini etib keldi. Kazak qismlari 5 kishini otib o'ldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi. Qo'zg'olonning faol ishtirokchisi Zuhribibi ham kurashning oldingi safidagi to'qnashuvda tosh otayotib halok bo'ldi. Qo'zg'olonchilar chekinishdi. Sal keyinroq yana chinakam jang boshlanib ketdi. Yendi podshoh askarlari chekinishga majbur bo'ldilar, ular boshqarma ichiga kirib olib, barrikada qurib himoyalandilar. Podpolkovnik Saviskiy boshliq jazo otryadi, uning ketidan kelgan general Galkin kuchlari jangga kirib qo'zg'olonni bostirishga yerishdilar. Toshkent atrofidagi qishloqlarda dehqonlarning g'alayonlari polisiya va qo'shinlar bilan to'qnashuvga aylandi. Bunday to'qnashuvlar 12-iyulda Yangibozor, To'ytepa qishloqlarida, 14 iyulda Troisk, Xonobod va Pskent qishloqlarida ham bo'lib o'tdi. Noroziliklar Rossiyaning asosiy paxtakor rayoniga aylantirilgan Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattaqo'rg'on, Rishton, Ganjiravon qishloqlarida ham bo'lib o'tdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi. 9-iyul kuni Andijon jome masjidida podshoh farmoni o'qib eshittirildi. Aholi yashin tezligida maydonni to'ldirdi. Xalq «hozir hamma mingboshilar va amaldorlarning boshini kesib tashlaymiz va mol-mulkini yer bilan yakson qilamiz», deb tahdid solib, safarbarlikni bekor qilishni talab etishdi. Polisiya va kazaklarga hujum boshlandi. Jazolovchilar qo'zg'olonchilarga o't ochib 3 kishini o'ldirib, 12 kishini yarador qildilar. Skobelev uyezdida xalq g'alayonlari 10-iyul yakshanba kuni eski Marg'ilondagi chiqishlar bilan boshlandi. To'plangan kishilar soni 25 mingtagacha etgan. Qattiq to'qnashuvda ikki mirshab o'ldirilgan, bir necha oqsoqol kaltaklangan. Xalq bilan yomon munosabatda bo'lgan boylar ham

²⁸ История Узбекской ССР. Том второй, Ташкент., «Фан», 1968. Стр. 533-544.

o'ldirilgan. Boylarning uylari va ma'muriy binolar vayron qilinib, podsho rasmi yirtilib, oyoq ostiga tashlangan. Bu yerga jazo polki etib kelib qo'zg'olonchilarga qarshi o't ochib, 63 kishini o'ldirib, ko'pchilikni yarador qilganlar. 1916-yildagi qo'zg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzax shahri aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib yondirib tashladilar. Nazir Hoji eshon Jizzax beki deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonni bostirishga etib kelgan jazo otryadi katta zarbaga uchradi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Nazir Hoji eshon boshchiligida qo'zg'olonchilar yangi shaharga tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi. Qo'zg'olonchilar telefon simlarini uzib, neftli baklarni yondirib, binolarni vayron qildilar. Lomakino bekatida temir yo'l ko'prigi, relslar buzib tashlandi. Obruchevo, Kurapotkino, Rostovsovo temir yo'l bekatlari ham vayron qilindi, 6 ta temir yo'l ko'prigi buzib tashlandi. Abdurahmon jevachi boshchiligidagi kuchlarning Bog'don volostida ham g'alayonlari boshlanib, Jizzax tomon yuradilar. 21-iyul kuni Jizzax yaqinidagi Qili deb atalgan manzilda qo'zg'olonchilar bilan jazo otryadi o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ladi. Pulemyotdan o'qqa tutilgach qo'zg'olonchilar yengiladi. Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji yeshonlar qo'lga olinadi, o'lim jazosiga hukm qilinadi. Turkiston general-gubernatori Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun polkovnik Ivanov boshchiligida olita to'pi bor 13 ta rota askar, 300 kishilik kazak otryadi, 2 ta ortileriya qismi va 3 rota sapyorlarni safarbar etadi. Jazo otryadi qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaladi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib turli muddatlarga qamaldi. 1916-yilgi qo'zg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar qo'zg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsada, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham 1916-yil 13-dekabrda IV Davlat Dumasida so'zga chiqqan A.F. Kerenskiy «Urush frontlariga yangi bir front - Turkiston fronti qo'shildi», - deb vaziyatga jiddiy va xolis baho bergan edi. General-gubernator imperatorga yo'llagan mutlaqo maxfiy axborotida 97 rus askari o'ldirilib, 86 tasi yarador bo'lganini va 76 askar bedarak yo'qolganini, 7 rus amaldori, rus aholisidan 2325 kishi o'ldirilib, 1384 kishi bedarak yo'qolganini yozgan. Ammo u Turkiston frontida o'z talofatini aniq yozgani holda vahshiyona o'ldirilgan o'n minglab mahalliy aholi hisobini bermaydi. Qo'zg'olon o'lkadagi Podsho Rossiya mustamlakachilik tizimining tagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari qimiray boshlaganini hamda Turkiston xalqlarining vatanparvarligi, g'ururi so'nmaganligini namoyon etdi.

III BOB.

RUS SHARQSHUNOSLARINING TURKISTON O'LKASINING QADIMIY TARIXINI O'RGANISHDAGI HARAKATLARI.

III.1. Turkistonning ilmiy jihatdan o'rganilishining boshlanishi.

O'rta Osiyoning chor qo'shinlari bosib olishdan ancha ilgari, hatto Imperator Pyotr I zamonida ham bu o'lkaga nisbatan bo'lgan qiziqish kuchli bo'lgan. Rus chor hukumati hayolidan O'rta Osiyo hych qachon ko'tarilmagan. Shu maqsadlarni amalga oshirish ishtiyorida bu yerga bir necha razvedka ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlarning ayrimlari arxeologik tekshiruv o'tkazish niqobida ham bo'lgan. Shundan arxeologik razvedkali ekspeditsiyalardan biri 1819-yildagi kapitan N. N. Muravyevning tekshirish ishlari edi. Ekspeditsiya Turkmaniston va Xiva tumanlariga jo'natilgan edi. U aslida harbiy maqsaddagi ekspeditsiya bo'lsada, bir muncha qiymatli kuzatuvlar olib bordi, ko'pgina qadimgi yodgorliklarni ro'yxatga oldi, turli turmush buyumlarini to'pladi. Keyinchalik N. N. Muravyevning kundalik daftari fransuz va nemis tillariga tarjima qilindi. Unda Xiva xonligi haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plangan edi.²⁹

Ilmiy ishlar hukumat bilan bog'langan holda olib borilishi talab qilingan 1846-yilgi Bichurinning ishini eslab o'tish joiz. Bichurin Akademiyadan to'plam-mavzu uchun topshiriq olgan. 1847-yil rus qo'shinlari O'rta Osiyoga yurishni boshlagach, Fanlar Akademiyasi uchun bu yerda ish olib borish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Rus ziyolilari ham O'rta Osiyoni o'rganishga qiziqqa boshladi. Boy tabiiy xususiyatlari, o'tmishdagi madaniyati ular uchun obekt bo'lib hisoblangan.

O'rta Osiyo tarixini o'rtanishda rus sharqshunoslarining roli aytarli darajada ma'lum. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chor qo'shinlari tomonidan bosib olingach, bu yerga rus olimlari kelib, ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Avvalambor bu ish chor hukumati foydasiga bo'lsada, ammo, bajarilgan ilmiy ishlarning ahamiyati ham aytarli edi. Shunday murakkab va og'ir sharoitda ham tarixchilar, sharqshunoslar, arxeologlar o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qilganlar, asarlar yaratganlar. Ammo, mustamlaka siyosatmandlari xalq ommasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishni aslo ma'qul ko'rmasada, fan uchun xizmat qiluvchilar ham bor edi. Ularning faoliyatlari ham mavjud sharoitga nisbatan qiyin kechgan, albatta. Sababi, chor hukumati amaldorlari omma o'rtasida tarixiy bilimlarni targ'ibot qilish, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishga tortish kabi ishlardan cho'chir edilar. Binobarin, O'rta Osiyoning yangi-yangi hududlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi, ularning umumrossiya iqtisodiy taraqqiyot yo'liga qo'shib yuborilishi tufayli turmushning o'zi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurligini taqoza qilardi. O'rta Osiyoning yaxshiroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining maqsadlarini ro'yobga chiqarishda halaqit berar edi. Ilmiy tadqiqot ishlarining ma'lum bir qismi, o'zlarining ko'p asrlik tarixiga, o'z urf-odatlarini, xususiyatlarini, turmush tarziga ega bo'lgan ko'p sonli O'rta Osiyo xalqlari ommasini ekspluatatsiya qilish tizimini

²⁹Жўракулов М. Археология фанига муқаддима. Самарканд., 2001. 40-бет.

kuchaytirishga yordam berishi ko'zda tutilar edi. Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu hudud rus ziyolilarining taraqqiyparvar qismini juda qiziqtirardi. Shuning uchun ham, darvinizmning e'tiqodli tarafdorlaridan biri bo'lgan mashxur rus olimi-zoolog, zoogeograf va otashin sayyoh N. A. Seversov (1827-1886), mashxur rus geografi P.P.Semenov-Tyanshanskiy (1827-1914), tabiatshunos va sayyoh A.P.Fedchenko (1844-1873), geolog va geograf I.V.Mushketov (1850-1902), mashxur olim, hozirgi zamon ilmiy tuproqshunosligiga asos solgan V.V.Dokuchayev (1846-1903) singari jonkuyar olimlar O'rta Osiyoni o'rganish borasida katta ilmiy tadqiqotlar ishlari olib bordilar, boy manbalar to'plashga erishdilar. Bir guruh harbiy topograflar esa tabiiy kontrastlari bir-biridan keskin farq qiladigan juda katta hududni keng ko'lamda suratga tushirish, xaritalashtirishdek mashaqatli vazifalarni bajardi.

Mamlakatning iqlim sharoiti o'rganildi, metreologik markazlar tashkil qilindi. Masalan, 1867-yilda Toshkent metreologik markazi tuzildi. So'ngra bunday joylar mamlakatning boshqa joylarida ham tuzildi. 1874-yili Rossiyadagi eng qadimgi Pulkovo rasadxonasi ilmiy xodimlarining yordamida Toshkent falakiyotshunoslik rasadxonasi ochildi, ilmiy tadqiqot ishlari boshlanib ketdi. To'g'ri, kadrlar etishmasligi, mablag' tanqisligi sababli bu ishlar zaruriyatga nisbatan rivojlanmadi, albatta. O'lkani o'rganishda statistika qo'mitalari ham muhim rol o'ynadi. 1868-yil Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi, statistik ma'lumotlar nashr qilina boshlandi.³⁰

Taniqli rus sharqshunosi I.P.Minayev Amudaryo bo'yidagi hududlar xususida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: «ilmiy qiziqish ushbu mamlakatlarni o'rganish bilan bog'liqdir. Bu siyosiy xolat, vaziyat aloqador emas». «Etnograf, Lingvist, Arxeolog, Tarixchi birgalikda kam o'rganilgan hududidagi har qanday yerda hamkorlikda ish olib borishi biz uchun juda muhimdir».³¹

Akademik V.V.Bartold O'rta Osiyoning o'rganilishi haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: «Turkiston general-gubernatorligi tashkil topgandan so'ng, ko'p vaqt o'tmay ilmiy faoliyat ham boshlab yuborilgan. O'lkani o'rganishdan asosiy maqsad geografik, tabiiy, statistik munosabatlarni bilishdir. Aholi va uning o'tmishdagi ahvoli ham muhimdir.»

O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingach ham, geografik munosabatlar juda sust o'rganilgan edi. O'rta Osiyodagi yirik tadqiqotchilar A.P. Fedchenko, V.Mushketovlar xizmat qilganligini aytib o'tish mumkin. O'rta Osiyodagi zoologiya, botanika, geografiya haqida ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shuningdek, turli xil, tarixiy, etnografik ma'lumotlar ham muhim o'rin egallagan. Ensiklopedist tadqiqotchilar u yoki bu darajada ish olib borishgan V.F.Oshanin va boshqa ko'plab mahalliy vakillar ham o'z faoliyatlarini olib borishgan Turkistondagi ilmiy jamiyatlarning tadqiqotlari mustamlaka tizim tufayli tezda

³⁰Жўракулов М. Археология фанига муқаддима. Самарқанд, 2001. 38-бет.

³¹ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т., 1958. Стр.12.

rivojlanib ketgan emas.³² Jamiyat nizomining loyihalari madaniyat arboblarning guruhlari tomonidan A.P.Fedchenko boshchiligida ishlab chiqilgan.

Bu loyiha 1869-yil Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P.Kaufmanga taqdim qilingan. Oxirgi marta ko'rib chiqish uchun harbiy vazirga ham topshirilgan. Jamiyat amalda o'z faoliyatini boshlagan edi. Ammo harbiy vazir bunga tezda javob bermagan. Jamiyat o'z faoliyatini 1872-yil tugallagan.³³

Toshkent ilmiy-ommabop kutubxonasida ko'plab estaliklar saqlanib qolgan. Yozuvchi amaldor B.B.Krestovskiy tashabbus bilan chiqib, katta yozuvchilarning asarlarini o'qish tizimini takomillashtirishni talab qilgan. Bu uchun ularning to'plamlari soni, qiziquvchilar sonini oshirish lozim deb hisoblagan. Turkiston general-gubernatori, general-leytenant Chernyayevga bildirgi-talabnoma bilan ham chiqqan. Chernyayev esa 1882-yil 3-dekabr kuni, № 312 sonli buyruqni imzoladi. Unda ushbu jamiyatning kelgusida mustaqil faoliyat yuritishi taqiqlangan edi. Ko'plab kutubxonalar o'z faoliyatini to'xtatdi. Keyingi general-gubernator Rezenbax esa, belgilangan tartib bilan kutubxonalarning ishlashiga ruxsat bergan.

1870-yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kutubxona o'lkani o'rganish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ayniqsa, mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kutubxona tashabbuskor ziyolilar harakati tufayli boyib bordi. Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmualaridan O'rta Osiyoga, ayniqsa Turkiston o'lkasiga taalluqli «Turkiston asarlar va maqolalar to'plami» juda qimmatli asar bo'lib, hozir ham u o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu to'plamni tuzish ishlarini taniqli rus olimi, bibliografi V. I. Mejovning xizmatlari kattadir. U Peterburgda 1868-yildan boshlab 20yil davomida to'plamlarni yaratish ustida ish olib borgan. Masalan, 1888-yilda «Turkiston to'plami» ga kirgan katta-kichik jildlarning soni 416 taga etgan edi. Bu to'plamlar 1867-1887-yillarda yig'ilgan materiallarni o'z ichiga olar edi. Ammo, o'lkadagi chor ma'muriyatining buyrug'i bilan «mablag' yo'qligi sababli» bu faoliyat to'xtatib qo'yilgan edi. V.I.Mejov «Turkiston to'plami»ga 3 kitobdan iborat sistematik va alfavit ko'rsatkichini ham tuzgan edi.

Eng muhimi shundaki, 1872-yilda A. L. Kun va boshqa Sharqshunoslar mashhur «Turkiston al'bomi»ni tuzib tamomladilar. Bu al'bomda Turkiston o'lkasining etnografiyasi, arxeologiyasi, kasb-hunar va tarixga doir manbalar suratli tarzda ifodalangan edi. Bu nodir asar hozirgi qadar ham o'z ilmiy qiymatini saqlab keladi. Al'bom 1262 dona rangli va rangsiz fotosuratlar yopishtirilgan 447 kartondan iborat bo'lib, Rossiyada faqat uch kutubxonada - imperator kutubxonasi, Fanlar Akademiyasi kutubxonasi va Turkiston kutubxonasida saqlanilgan. Bu al'bom ilmiy jihatdan ham qimmatli asardir.

1917-yilga qadar Turkistondagi ilmiy jamiyatlar tomonidan «Axborot»lar chiqarila boshlangan edi. Jumladan, Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi

³² Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр.13.

«Axborot»ning 13 jildi (1898-1917), Turkiston havaskor arxeologlari to'garagining majlislar qarorlari va «Axborot»laridan 21 to'plam (1896-1917) va boshqa sohalardagi «Axborot»lar singari ma'lumotlari bosib chiqarilgan bo'lib, bu ahvol ilmiy izlanishlarning bir qator jonlanganligidan dalolat berar edi. O'sha vaqtlarda havaskor rus kolleksiyachilaridan Barichevskiy, Vyatkin Kastal'skiy, Komarov, Petrov-Borzna, Poslavskiy, Stolyarov, Terentyev, Trafimov, Likoshin va boshqalarning to'plagan ko'pdan-ko'p ma'lumotlari hammaga mashxur edi. Bu arxeologik yig'malarning aksariyati 1871, 1874, 1889-yillarda Toshkent, Samarqand va Farg'onada ochilgan muzeylarda, shuningdek Sankt-Peterburg, Moskva muzeylari ko'rgazma va zaxiralarda saqlanadi. Shu bilan bir qatorda o'lkaning etnografiyasini o'rganishda aytarli tadqiqotlar olib borildi, serob manbalar to'planildi. Bu borada V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, V.V.Radlov, A.N.Samoylovich mashxur sharqshunoslarning yaratgan asarlari ham ahamiyatlidir.

1907-yilda bibliograf I. V. Dmitrovskiy rahbarligi ostida «Turkiston to'plami»ni tuzish ishlari yangidan boshlandi. 1917-yilga qadar to'plam jildlarining soni 394 ga etkazilgan edi. Hozir bu to'plam Alisher Navoiy nomli O'zbekiston milliy kutubxonasida saqlanadi. 1952-yilda Moskvadagi Davlat xalq kutubxonasida «Turkiston to'plami»ning yana 29 jildi topildi. Bu to'plamlarda O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan Sharq mamlakatlarining tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi, adabiyoti, iqtisodiyoti, madaniyat tarixi va boshqa masalalariga doir keng ma'lumotlar taqdim qilingan.

1874-yil Samarqand okrugining boshlig'i general Abramov mayyor Borzenkovga Afrosiyobda sinov tariqasida qazishma ishlari o'tkazishni topshirdi. Borzenkov tajribasizligi natijasida ana shu havaskorlik qazishma ishlarini shaharchaning shimoliy qismida va uning chekka joylarida uzunasiga va ko'ndalangiga o'tkaza boshladi. Ayni vaqtda qadimiy davrga oid bo'lgan ayrim narsalar, «qandaydir» qurilmalarning qoldiqlari topildi; shu bilan ish ham tamom bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay Borzenkovning o'zi vafot etdi. M.H.Rostislavov gazetaga yozma maqolasiga Borzenkov tomonidan olib borilgan qazishma ishlari haqida ba'zi bir ma'lumotlarni keltirdi.

Mahalliy arxeologlardan V. L. Vyatkinning (1869-1932) ishlari ham diqqatga sazovordir. Bu olim 1908-yilda Samarqanddagi mashxur Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlarini topdi va ko'p-yillar qazib, uni to'la ochishga erishdi. Vyatkin, katta arxeologik kolleksiyalar to'pladi, Samarqand yodgorliklarini o'rganish va saqlash bilan dong taratdi, qadimgi Afrosiyob (Samarqand) shahrini va uning atroflarini tadqiq qilib, katta tarixiy va arxeologik manbalar to'pladi.³⁴

O'rta Osiyoni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari, bu hududlarning Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin qisman jonlangan desak xato emas. Yuqori satrlarda zikr etilganidek, o'z zamonida ilg'or dunyoqarashga ega rus ziyolilarining mahalliy tarixchilar hamda arxeologiya havaskorlari bilan o'rnatgan ilmiy hamkorligi o'lka tarixini, arxeologiyasini o'rganishda bir qator ijobiy rol o'ynadi.

³⁴Жўракулов М. Археология фанига муқаддима. Самарқанд., 2001. 41-бет.

Bunday olimlar orasida P.I.Lerx, V.V.Grigoryev, N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.V.Bartold singari arxeologlar bor edi. Rus olimlari O'rta Osiyoga kelgach yodgorliklarga e'tibor bera boshladilar. Shuningdek ular mahalliy o'lkashunos va havaskorlarni o'z atroflariga birlashtirdilar. Ularga uslubiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatdilar. Shulardan biri o'zbek sharqshunosi, havaskor arxeologi Akram Polvon Asqarov bo'lib, u yodgorliklarni tarixshunoslik nuqtai nazardan o'rganishda tashabbus ko'rsatdi. Rus olimlari havaskor mahalliy kishilar bilan hamkorlikda turli davrlarga doir arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga oldilar va tekshirdilar.

Birinci marta O'rta Osiyoda tosh davri qurollari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar XIX asrning 50-yillarida to'plangan.

O'rta Osiyoda ibtidoiy kishilar yashaganligi haqida rus olimlari birinchilardan bo'lib fikr bildirishgan edilar. Jumladan, A.S.Uvarovning uqtirishicha, agar Yevropa qit'asida mamont davrida ibtidoiy odamlar yashaganligi aniqlangan ekan, demak, bu jarayon O'rta Osiyoda ham bo'lgan. Xullas, XIX asrning o'rtalariga, ya'ni Rossiyaning bu o'lkalarni bosib olinishiga qadar ham O'rta Osiyo ibtidoiy davri tarixidan darak beruvchi qiziqarli manbalar to'plana borgan. Bu manbalar turli kasbdagi kishilar tomonidan to'nlangan va hozir ham Sankt-Peterburg, Moskva, Toshkent, Samarqand singari shaharlarning muzey zaxiralarida saqlanib kelinadi. Ularning aksariyati o'rganilib chiqilgan ham. Xullas, muzeylar manbalarining guvohlik berishicha, XIX asrning o'rtalarga kelib, O'rta Osiyoning tosh asri haqida dastlabki ma'lumotlar to'plana borgan. Masalan, A.A.Spisingning ma'lumotiga ko'ra, Qirg'izistonda 1850-yilning yozida qadimgi mozorlar tekshirilib ko'rilganda, toshdan yasalgan 4 ta kamon o'qi topilgan. Shu-yili S.I.Gulyayev qadimgi tog' konlarida kuzatishlar olib borib, ibtidoiy kishilarning mehnat qurollarini topadi. U shunday tosh bolg'alarining Qoraqalin o'lkasida ham topilganligi haqida xabar beradi. Doktor A.Shrenko 1855-yili toshdan yasalgan bolg'alar topib, antropologiya va etnografiya muzeyiga topshirganligi haqida ma'lumot beradi. A.Gebel topilmalari ham qiziqarlidir. U, 1864-yili (Hozirgi Fedchenko bug'ozi) Mang'ishloq yarim oroli hududidan bir necha tosh paraqalari hamda o'zaklarini topgan va ularni Peterburgdagi antropologiya, etnografiya muzeyiga sovg'a qilgan. Bu dalillar O'rta Osiyo hududida ibtidoiy davrning boshdan kechirganligi haqidagi dastlabki ma'lumotlar edi. Ammo mutaxassis arxeologlarning yo'qligi hamda tekshirish ishlarining xali yo'lga qo'yilmaganligi tufayli bu topilmalarga nisbatan ilmiy tafsilotlar yaratilmagan, shuningdek, ayrim topilmalar esa kishilarning shaxsiy kolleksiyalarida qolib ketgan, fan olamiga olib chiqilmagan.

1853-yilda S.I.Gulyayevning ko'rsatib o'tishicha tosh qurollar Kara-Komin okrugida Blagodat-Stefanov zavodidan 7 verst uzoqlikda tosh bolg'alar kuzatilgan. S.I.Gulyayevning ko'rsatib o'tishicha bu aniqki bunday tosh qurollar tosh davrining oxirgi davrlariga tegishli G.F.Parfenovning hisobotlarida ko'rsatilishicha mana shunday qurollar ham Mang'ishloqda, Toshkentda, Samarqandda topilgan. Veselovskiyning ko'rsatib o'tishicha Sibir trakti yaqinidagi Qorasuv (1881-yil) A.V.Kaulbarsning eski Marv yaqinidagi ovolsimon tosh qurollarning topilishi (1890-yil), Jukovskiy Gavrqal'a arkidan tosh bolg'asini topishi, Toshkent atrofida

(1896-yil), Preobrejenskim qishlog'ida Yettisuv viloyatidan tosh bolg'a, Orenburg viloyatidan, Issiqko'l atrofidan tosh qurollarni topilishi dastlabki ibtidoiy davr to'g'risidagi tasavvurlarni vujudga keltirdi.

A.S.Uvarovning ikki tomli «Rossiya arxeologiyasi tosh davri» asarida XIX asrning 80-yillariga oid O'rta Osiyo tosh davriga oid topilgan ma'lumotlar to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar beradi.

Oktabr to'ntarilishigacha bo'lgan-yillarda arxeologlar o'rtasida O'rta Osiyo tosh davri to'g'risida yakdil bir fikr yo'q edi. A.A.Semenov 1925-yilda «Turkiston o'z tosh davri va uning o'ziga xos yevolyusiyasiga ega 1926-yilda esa «O'rta Osiyoda insoniyatning bo'lishi shubxali» nomli ilmiy asarlarini nashr qildi. Endilikda Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari O'rta Osiyo tosh davri yodgorliklarini o'rganish bo'yicha ekspedisiya uyushtiradi.

1902-yil I.T.Poslavskiy, N.G.Xludov bilan birgalikda Saymalitoshdan tosh davri tasviriy san'at namunalarini topish bilan ibtidoiy odamlarning hayotini yoritishdagi o'z maqsadlarini yoritishga harakat qilishdi.

1906-yil 11-dekabrda to'garak a'zolarining majlisida tosh davri predmetlari haqida I.T.Poslavskiy daklat qildi. Bu daklatda Manuil Andreyevich Kirxgofning ikkita o'q-yoy uchlari va qoya tosh va g'orlardagi rasmlari haqida axborat beradi.

P. S. Nazarov, I. T. Poslavskiyning Turkiston o'lkasi tosh davri qurollari haqida dakladini to'ldirib Orenburgning guberniyasi va To'rg'ay viloyatidan topilgan materiallar haqida gapiradi. A.A.Semenov ko'rsatishicha tosh davrining bunday topilmalari Kavkaz orti viloyatida ham uchraydi.³⁵

Turli mutaxassislikdagi olim va havaskor o'lkashunoslar tomonidan ibtidoiy davr haqida ancha muncha manbalar to'plashga yerishildi. Shulardan, A.I.Pavlovning kuzatishlari qiziqarlidir. U 1901-yili hozirgi Bo'zsuv arig'i va Toshkent yaqinidagi Qoraqamish atroflaridan Peleolit davri odamlarining qurol-aslohalarini yig'ib olgan va keyinchalik ularni Moskvadagi geologik qidiruv institutiga taqdim qilgan. So'nggi-yillarda bajarilgan arxeologik tekshiruv ishlari bu joylarda ibtidoiy jamoalar yashaganligini ko'rsatdi. 1892-yilda geolog Shmidt Qirg'izistonning Issiqko'l atrofidan, Qaysara stansiyasi yaqinidan bir necha chaqmoqtosh buyumlari topib Peturburdagi Davlat Ermitajiga topshirgan.

Shunday qilib, ibtidoiy davr tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish sekin-asta orta bordi. Bu borada THAT a'zolarining bajargan ishlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, 1893-yili I.P.Ostroumov Keles daryosining o'ng qirg'og'idagi Qoratepa poseleniyesini qazish vaqtida chaqmoqtoshdan yasalgan kamon o'qlarini, 1902-yilda I.P.Poslavskiy, N.G.Xludov tomonidan ro'yxatga olingan Soymalitosh qoya suratlarni tekshirib, bu ibtidoiy san'at namunalarini sinchiklab o'rganish dasturini tuzgan edi.³⁶

Ibtidoiy davr tarixi haqidagi masalalar THAT yig'ilishlarida deyarli doimiy tinglanib borilgan. Masalan, 1906-yil 11-dekabrda bo'lib o'tkan to'garak yig'ilishida I.P.Poslavskiyning hisoboti eshitilgan. U turli kasb egalari tomonidan

³⁵ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане, Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т., 1958. Стр. 101-102.

³⁶ Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи», 1996. 32-бет.

topilgan ibtidoiy qurollar haqida, jumladan, To'rg'oy viloyati, Beshariq tumani, Qoratorov va boshqa joylardan topilgan ibtidoiy buyumlar haqida ma'lumotlar bergan. Ko'pgina olimlar turli topilmalar haqida qiziqarli ma'lumotlar berib turgan. Masalan, I.P.Tolmachev ham 1907-yilda Akmalinsk viloyatidan yig'ib olgan tosh buyumlarni Peturburgdagi etnografiya muzeyiga tufha qilgan. M.M.Berezovskiy va V.N.Andrusovlarning turli joylardan to'plagan ashyoviy buyumlarni zikr etilgan muzeyga topshirganligi (1916) xabarini beradi. Bulardan tashqari, 1902-yilda Amudaryo harbiy chegara xizmatchisi A.P.Yarchiyaskiy qadimgi Ayritom xarobalari yaqinidan tosh pichoq va boshqa tosh buyumlar topgan. 1904-yilda R.Pompelli va G.Shmidtlar Ashxabadga yaqin joydagi Anav tepaliklarini qazib, ibtidoiy davrga oid ko'ngina materiallarni Qo'lga kiritgan edi. 1905-yilda qadimgi Go'yarqal'a atrofidan ham tosh buyumlar topilgan edi. Yuqorida eslatilgan yodgorliklarning aksariyati asrimizning 60-70-yillarida bir qator o'rganilib, ilk tariximiz haqida qimmatli ma'lumotlarni olishga erishildi. Biz yuqorida ibtidoiy arxeologiya haqida ayrim ma'lumotlar keltirdik, xolos. Demakki, 1917-yilga qadar ilk tariximiz haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plangan edi.

III.2. Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi faoliyati.

Turkistonda birinchi ilmiy jamiyatlar tuzilishida Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi alohida o'rin egallaydi. Bir tomondan mustamlaka rejim ilmiy-ijtimoiy tashkilotlar ishlarini moddiy qo'llab-quvvatlamasada, ikkinchi tomondan mahalliy ziyolilarga e'tibor qaratilmagan O'rta Osiyoni ilmiy o'rganishga qiziqish bilqirilmagan. Chor Rossiyasining yurishlari davridayoq, mamlakatdagi geografik tizimni bilishga imkon bo'lsada, iqtisodiyot haqida gapirish mumkin bo'lmagan. Podsho hukumati mahalliy geografiyaga o'z manfaatlari yuzasidan yondosha boshladi. Arxivda Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni yordamchisi general-letenant Masiyevskiyning nomiga maktub yo'llangan bo'lib, unda general-letenantdan sharqshunoslik qidiruv ishlarini boshlashga ruxsat so'ralgan. Ammo jamiyat sharqni sharq yoki fan uchun emas, balki Rossiya uchun o'rganilishi lozim edi.

Turkiston o'lkasining qadimiyat yodgorliklari ko'pdan buyon olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelar edi, XIX asr davomida osori atiqalar ustida arxeologik kuzatishlar, qidiruv va qisman qazish ishlari olib borildi. Bu sohadagi ishlar P.I.Lerx N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.V.Bartold va mahalliy turkistonshunoslardan M.S.Andreyev, V.L.Vyatkin, A.L.Kun, A.A.Semenov, I.T.Poslavskiy, N.P.Ostroumov va boshqalarning nomlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, sobiq Turkistonning qadimiy yodgorliklarni hisobga olish va tekshirishga markaz ilmiy muassasalaridan Imperator arxeologiya komissiyasi, ayniqsa Rus arxeologiya jamiyatining Sharq bo'limi, bundan tashqari, 1903-yilda tashkil qilingan O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganish qo'mitasi ham e'tibor bilan qaradi.

Turkiston o'lkasida arxeologik qiduruv, qazish ishlari ancha vaqt mustaqil olib borilmagan. Bu jarayon 1886-yilga qadar davom etgan sistematik arxeologik tadqiqotlar ham shular qatoriga kiradi. 1893-yil 11-dekabr kuni antropologiya,

etnografiya, tabiatshunoslik masalalariga oid o'tkazilgan yig'ilishda N.P.Ostroumov chiqish qilib, kelgusidagi arxeologik tadqiqotlarni ko'paytirishni talab qilgan. «Bizning o'lkada,- degan edi Ostroumov-arxeologik yodgorliklar ko'p. Ularni o'rganib chiqish zarurdir.» deb ta'kidlab o'tgan. V.V.Bartold yig'ilish ishtirokchilarini arxeologik qiduruvdagi dastlabki natijalar bilan tanishtirdi. Bu 1893-yilgi tadqiqot xususida edi. Ostroumov va Bartoldning chiqishlari yig'ilish ishtirokchilari tomonidan yaxshi kutib olindi. Toshkentda arxeologik to'garak ochilganligi rasman tasdiqlandi. To'garakning nizomi 1895-yil 31 oktyabr kuni tasdiqlandi. To'garak faoliyati quyidagilardan iborat bo'lishi lozim edi: a)Turkiston o'lkasidagi yodgorliklar bilan tanishib chiqish; b)O'lkaning arxeologik xaritasini tuzib chiqish; v)Arxeologik yodgorliklarni saqlab qolish; g)Arxeologik qazuv ishlarini yo'lga qo'yish; d)Mahalliy arxeologik materiallarni qayta ishlash.

Turkiston havoskor arxeologlar to'garagining ochilishi 1895-yil 14-dekabr kuni amalga oshirildi. «Turkestankiye vedomosti» gazetasida to'garak ochilishi bilan bog'liq holatlar yoritib borilgan. 1896-yil 22-dekabr kuni Turkiston havoskor arxeologlar to'garagining yig'ilishi bo'lib, 47 ta a'zo kishilarning ro'yxati tuzib chiqildi. M.S.Andreyev, A.A.Devala, N.G.Maliskiylar to'garakda tashabbuskor bo'lib hisoblangan.³⁷

Keyinchalik to'garakning 108 a'zosi bo'lib, bular orasida V.V.Bartold, D.M.Levshin, N.S.Likoshin, K.V.Ariston, V.F.Oshanin va boshqa mashhur kishilar ham bor edi. To'garakda ilg'or kayfiyatdagi rus ziyolilarining ta'siri kuchli edi. Ular O'rta Osiyo tarixi va qadimgi yodgorliklariga hurmat bilan qarab, ilmiy-tekshirish ishlarini jonlantirib yuborgan edilar.

To'garakning yig'ilishlarida arxeologik masalalar muhokama qilinib borgan. Yirik vakillardan I.T.Smirnov to'garakning 1895-yil 11-dekabr kungi yig'ilishida asosiy masalalarni o'rtaga tashlagan. Toshkent shahri atrofi va Chirchiq vohasidagi yodgorliklarni o'rganish masalalari ilgari surildi. Oddiy aholi tomonidan topilgan kolleksiyalar olinib, ro'yhatga kiritildi. Ushbu topilmalar ham katta ko'rsatkichni tashkil etgan. O'rta Osiyo arxeologiyasini o'rganishdagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatishga harakat qilgan. Xo'jand tarixi topografiyasini o'rganishda M.S.Andreyev etakchilik qilgan. Xo'jakentga qarama-qarshi joylashgan Mo'g'ul tog'dan ko'plab arxeologik ashyolar topilgan. 1896-yil 15-dekabr kuni Toshkentdan Turkiston havoskor arxeologlar to'garagining telegrammasi Rus Arxeologlar jamiyatiga yuborildi. Kelgusidagi rejalar taklif qilingan. 1896-yil Toshkentda Rus Geografik Jamiyatining Turkiston bo'limi tashkil etilishiga ruxsat berildi. Bo'lim o'z faoliyatini 1897-yil 29-noyabr kuni boshlagan. Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi bu vaqtda o'z funksional vazifalarini belgilab olgan edi. 1901-yilga kelib Sharqshunoslar Jamiyatining bo'limi ochildi. Ularning barchasi ilmiy-tadqiqot yo'nalishida faoliyat olib borishdi. Turkiston Arxeologlar Jamiyatining filiallari ham ochildi. Bulardan biri Samarqandda edi.

To'g'ri, to'garak a'zolarining o'rtaga qo'ygan masalalari va mulohazalari, dastlab topgan materiallari, undan keyingi tadqiqotchilar uchun yordamchi

³⁷ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 43-45.

ma'lumot bo'lib xizmat qildi. O'tmish yodgorliklari haqida tafsilotlar yuritish, arxeologik va yozma manbalarni solishtirib o'rganishga imkon berdi. Ayni vaqtda, hali to'garak a'zolarining xulosalari munozarali va zamon sinoviga bardosh bera-olmagan bo'lsada, har holda butun davr uchun, shubhasiz katta ahamiyatga ega edi. Ularning bu boshlagan ishlari fikrlarining rivojlanishiga turtki bo'ldi, unga ilmiy jamoat diqqatini tortdi. Mashxur rus sharqshunosi V.V.Bartold to'garak ishlariga katta yordam ko'rsatdi. Hammasi bo'lib o'lkada 15 ga yaqin ilmiy jamiyat ish olib borgan bo'lib, shulardan tarix va arxeologiya jamiyati ham bor edi. Ammo, shuni aytish zarurki mustamlaka Turkiston sharoitida ilmiy jamiyatlarning faoliyati mahalliy aholi o'rtasida yoyilmadi. Ilmiy tibbiyot jamiyatlari bundan bir qadar mustasnodir. To'g'ri, ilmiy jamiyatlar huzurida faol o'lkashunoslar, mahalliy muxbirlar paydo bo'ldi. Bu borada rus tadqiqotchilari, kolleksionerlari va ilmiy jamiyatlarning ta'siri ostida osori-atika havaskorlari qadimgi yodgorliklarni to'playdigan havaskorlar etishib chiqdi. Bular orasida samarqandlik Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdulloning nomlari alohida ajralib turadi. Mirzo Buxoriy boy arxeologik-numizmatik kolleksiyalar to'plashga erishgan va bularning bir qismi Ermitaj kolleksiyalariga kirgan. Ajoyib san'atkor - xattot Mirzo Barot Mullo Qosimov Samarqand va uning atroflaridagi ko'pdan-ko'p qadimgi zamon yodgorliklari suratini chizgan va to'plagan. U, Ulug'bek madrasasining ham g'oyat aniq eskizini tayyorlagan edi. Mirzo Abdullo Abduraxmon, A.L.Kunning Iskandarko'l ilmiy safarida qatnashib, qadimgi toshlarga yozilgan xatlar qayd qilingan ma'lumotlarni to'plagan va uning yuritgan kundaligi muhim arxeologik manba sanaladi. Turkiston o'lkasida tug'ilib o'sgan kishilardan bir qanchasi foydali qazilmalar topish va ularni tavsiflash, qadimgi zamon yodgorliklarini qidirib topish kabi ishlarda ishtirok etganlar.

XX asr boshlarida ham Turkistondagi ilmiy jamiyatlar, shu jumladan tarix arxeologiya havaskorlari ham aytarli ishlarni bajarishdilar.

XIX asr 80-yillarida Rossiyadagi siyosiy reaksiya O'rta Osiyoda ilmiy-qidiruv ishlari rivojiga yo'l qo'ymas edi. Hukumat yangi ilmiy jamiyatlar tashkil topishiga shubha bilan qarar edilar. Ilmiy-o'lkashunoslik to'garaklari, kutubxonalar ham shular jumlasidandir. Bu faqatgina ziyolilar tarkibining kengayishi bilan amalga oshishi mumkin edi. Farg'onadagi taniqli tadqiqotchi Akademik A.Middendorfga qarshi, Farg'ona harbiy uyezd polisiya boshlig'i shubha bilan qarab, doimo qandaydir izlanishda ekanligini ko'rsatib o'tgan. V.V.Bartold 1893-1894-yillar O'rta Osiyoga kelgan vaqtidagi xolatni quydagicha yozib qoldirgan; «Tadqiqot olib borish juda qiyin kechadi. Haqiqiy holatni anglash uchun qandaydir ilmiy maqsadni ko'zlash lozim bo'ladi. Ma'muriyatning loyihasi ham noqulaylik keltirib chiqaradi».³⁸

Turkiston o'lkasining Chor Rossiyasi bilan bog'liqlik tomoni kuchayib, umum rus iqtisodiyoti uchun ahamiyati oshib borardi. Bunday sharoitda Turkiston iqtisodiyoti va madaniyatiga qiziqish ortib bordi. Markaziy ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining mutaxassis olimlari Turkistonga kelib, o'z

³⁸ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр.14.

faoliyat, izlanishlarini olib bordi. Rus arxeologlari, sharqshunoslari oldida bir qancha masalalar mavjud edi. Akademik S.A.Jebeyev (1867-1941) ning guvohlik berishicha, imperator arxeologik komissiyasi tarkibida bo'lgan rus arxeologiyasi katta yutuqlardan foydalanmagan. Peterburg arxeologlari numizmatik izlanishlar olib borib, qadimiy joylarni o'rganish va tadqiqot bilan shug'ullandilar. Rus arxeologiyasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri N.I.Veselovskiy va A.A.Spisin 1899-yil arxeologiyaning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan. Shunday yozadi: «Rus arxeologiyasining yutuqlari sezilarli darajada emas. Rus arxeologiyasining biror-bir sohasi tizimli ko'rinishda olib borilmagan. «XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, ilmiy arxeologik muassasalar soni oshib bordi.

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi o'z faoliyatini katta kenglik, «bo'sh joy»dan boshlagan emas. Turkiston o'lkasi Rossiyaga qo'shib olingach, ilmiy qidiruv ishlari olib borilishi yo'lga qo'yildi. N. S. Likoshin va P. I. Lerx(1867) ning ishlarini, 1872-yil A. Xoroshxin tomonidan Samarqand qadimiy manzilgohining o'rganilganligini yozib qoldirgan. Kushakevich Xo'jakent uyezdida izlanish olib borib, o'z ma'lumotlarini yozib qoldirgan Turkistonga keladigan kuzatuvchilarning soni oshib boribdi. 1893-yil Akademik V. V. Bartold O'rta Osiyoga birinchi bor ilmiy tashrif buyurdi. U bilan birga rassom-etnograf S.M.Dudin ham borgan Bartoldning oldidagi vazifa:Turkistonning o'tmishdagi tarixini yozma manbalar asosida tekshirish, ma'lumotlar yig'ish, imkon qadar shaharlar, markaz, qal'alarining ro'yxatini tuzish kabilarni o'z ichiga olgan. Demak, Bartoldning tashrifi birinchi navbatda arxeologik xususiyatga ega bo'lgan. Bartold bu kabi vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, turli xil qo'lyozmalarni yig'ish ishlarini ham olib borgan. N.I.Veselovskiyning so'zlariga qaraganda, Bartold sharqdagi ko'chmanchi xalqlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi, ularning mahalliy aholi bilan aralashib ketishiga ham alohida e'tibor qaratgan. Toshkentga kelgan V.V.Bartold Chimkent-Avliyoota marshruti bo'ylab, Talas daryosiga qadar borgan. Bu yerdagi bir qator qishloq va qadimgi yodgorliklarni ro'yxatga olgan. Katta qiyinchiliklarga qaramasdan, V.V.Bartold o'z ilmiy izlanishlarni davom ettiradi. Tasodifiy holat tufayli V.V.Bartold otdan yiqilib oyog'i singach, Avliyootada qolgan. Toshkentga qaytgach, harbiy gospitalda davolangan. 1893-1894-yillar qishida V.V.Bartold Toshkentda bo'lib, ko'p sonli mahalliy o'lkashunoslar bilan tanishgan. V.V.Bartold bilan Ostraumovlar oilasi o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatildi. Ostraumov vositachiligida V.V.Bartold boshqa o'lkashunoslarga murojat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Toshkentda ilmiy o'lkashunoslar yig'ilishlarini boshlab berdi.³⁹

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zosi A.F.Gubarevich tosh qurollari haqida Yu.Talko-Grinsevich bilan birgalikda Selengi, Chikoy, Xilog, Jidi (Boykal bo'yi)da ham uchrashini aytib o'tadi. Shunday qilib ko'rinib turganidek Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari O'rta Osiyo qadimiy tarixi bilan jiddiy qiziqishganini ko'rsatib turibdi.

³⁹ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 21-22.

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari uning dastlabki tashkil topgan kunlaridan boshlab qadimgi yodgorliklarga qiziqish bildira boshlagan. 1896-yil 22-yanvardagi majlisidayoq qadimgi qo'rg'on va shaharlarning qayerda qanday vujudga kelganligi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga harakat qilishgan. Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zosi A.D.Kalmikov 1910-yilda tepalarning vujudga kelishi to'g'risida gapirib o'tgan. U Buxoro va Samarqand qo'rg'onlaridan butunlay farq qilishini aytib o'tadi. V.P.Nalivkin Oqtepaning vujudga kelishi to'g'risida gapirib, Toshkentdan Chimkentga qarab ketadigan 4 km da joylashganligini va uning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. 1907-yilda qo'pol cho'yan idish, chiroq va boshqa topilmalarni Xonaboddan topilgan topilmalarni sotuvda ko'radi. Bu Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zosi I.T.Poslavskiyning Xonabodtepani tekshirib ko'rishga chorladi. 1893-yil iyunida N.T.Astroumov Chimkent uyezdi Mamayevka qishlog'iga borishga va u yerdagi Qoravultepadan sopol idishdagi 1850 ta kumush va 4000 dan ziyod mis tanga va bir qancha qimmat baho toshlar ikkita kumush bilak uzuk va boshqalarni topishadi.

1896-yil to'g'arak a'zosi N. F. Sitnyakovskiy birinchi marta Dobusiya qal'asi xarobalari to'g'risida xabar beradi. Keyinchalik bu haqda I.A.Kastane qisqacha ma'lumotlar beradi va bir muncha batafsil ma'lumotlarni L.A.Zimin ko'rsatib o'tadi. Dobusiya qal'asi to'g'risida arab yozuvchilarini IX-X asrlardagi ma'lumotlari saqlanib qolgan edi. Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi katta e'tiborni qadimiy Poykand xarobalariga Qadimiy Buxoro shaharlaridan biri, ko'p martalab yozma manbalarda tilga olingan. Buxorodan 35 km Janubiy-G'arbda joylashgan Poykand xarobasi haqida N.Xannikov qayt etib o'tadi. 1887-yil I.T.Poslavskiy o'zining navbatdagi tashriflaridan birida Yakkatut va Qoravul stansiyalari orolig'idagi Temir yo'l stansiyasidagi Ko'hna Poykand nomidagi yodgorlikka o'z e'tiborini qaratadi.⁴⁰

1896-yil 11-dekabrda N.F.Sitnyakovskiy o'zining qisqa xabarida Poykand xarobalari haqida chiqish qiladi. 1903-yilda R.Pompelli boshchiligidagi Amerika ekspeditsiyasi qadimiy shahar to'g'risidagi fikrlarini e'lon qiladi. Faqat 1912-yilda bu yodgorlik xarobalarini o'rganishga amaliy jihatdan yondashila boshladi. 1912-yil noyabrda Poykand xarobalarini o'rganish uchun to'g'arak a'zosi L.A.Ziminni jo'natadi. L.A.Zimin o'zining hisobotida Poykandning qisqacha tarixiy ocherkini ko'rsatib manbalar va turli amalga oshirgan ishlar (Markvart, Tomashek, Bartold va boshqalarning) ishlari haqida gapirib o'tadi. M. Ye. Masson Nasaf shahrining yonidagi yodgorlik Shulliktepani nomini kelib chiqishini XVIII asr bilan bog'ladi. Unda Eron shohi Nodirshohning Rizoqulimirzo boshchilik qilgan qo'shinlarini 1737-yilda Qarshi shahrining atrofida qilgan harakatlarini yozgan tarixchilarning ishida bu yerdagi qadimgi qal'ani «Shulduk» deb atalgani to'g'risidagi xabarni beradi. Shuningdek M. Ye. Masson Shulliktepa to'g'risidagi ilk xabarlar O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin bir qator tarixchi olimlar, sharqshunoslar, harbiylar Qarshi atrofidagi tarixiy obidalar qatori Shulliktepa yodgorligi to'g'risida ma'lumotlar berishgani to'g'risidagi xabarlar bor.

⁴⁰ Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учраждения Туркестанского Кружка любителей археологии. Ташкент, 1896, Стр. 48.

Ular orasida yozuvchi V.V.Krestovskiy (1883 y), ofiser-rassom B.N.Litvinov (1895-1910 yy), harbiy D.N.Lagofet Qarshi vohasida bo'lishdi va qisman Shulliktepa yodgorligi to'g'risida ham xabar berishdi. 1916-yilda sharqshunos olim L.A.Zimin ham Qarshi va uning atroflarida bo'lib, birinchi marta o'zining Nasaf to'g'risidagi ilmiy xulosasini berdi. Ammo yuqoridagi sayohatchilar ichida birortasi ham Shulliktepa yodgorligi va uning o'rnida qaysi shahar bo'lganligi to'g'risida yoki yodgorlik hududida arxeologik ishlarni olib borib, uni o'rganish bilan shug'ullanishmadi.

Navtak-Yerqo'rg'on Qashqa vohasidagi eng qadimiy kishilik manzillaridan biri sifatida qadimshunos olimlar diqqatini faqatgina urushdan keyin 40-yillar so'ngida jalb eta boshladi. Chor Rossiyani qadimshunoslik ilmi bu vohada o'tmish obidalari nihoyatda ko'p bo'lishiga qaramay uzoq-yillarda vohada uni e'tibordan soqit qilib keldi.

O'lka bosib olinganidan qarib yarim asr keyin, 1916-yilda Qarshi vohasiga Turkiston havaskor arxeologlar to'garagining a'zolari L.A.Zimin va I.Kastane qadam qo'ydi. Qadimshunoslik havasmandlaridan I.Kastanening Zahoki Maron qal'asi va yirik qadimiy shahar xarobasi xususidagi axboroti hali juda yuzaki kuzatuvlar natijasi edi. Biroq L.A.Zimin mulohazalarida yozma manbalarga murojat qilish Yerqo'rg'onga tutash bo'lgan Naxshab tarixini yoritishda ularga tayanish ko'zga tashlanib turadi. 1916-yilgi tashrif fan olamiga Navtak-Yerqo'rg'on haqida birinchi axborot berishi bilan ahamiyat kasb etadi.⁴¹

Samarqandda 1896-yil 21-iyunda ochilgan shahar muzeyi muhim voqeya bo'ldi. Ana shu muzeyini ochish to'g'risidagi masala mahalliy o'lkashunoslar tomonidan bir necha marta ko'tarilgan edi. 1893-yili Turkiston general-gubiratori mahkamasining amaldori D.I.Yevarniskiy «Ukraina» degan gazeta sahifasida ana shu mavzuda bag'ishlangan maqola bilan chiqdi. 1894-yil 24-mayda esa u Moskva Arxeologiya jamiyatining majlisida axborot berdi. Bu axborotda «17-Turkiston batalonining kapitani L.S.Barshchevskiyning qadimiy mahalliy yodgorliklarning eng yaxshi namunalarini to'plaganligi, bunda ko'pgina qadimiy narsalar va tangalar borligini aytib, so'ngra esa, Samarqandda tarixiy obidalar markazi sifatida muzey tashkil etish uchun zarurligi to'g'risidagi fikrni rivojlantirdi». Yevarniskiy jamiyatga Turkiston ma'murlari oldiga muzey tashkil etish uchun mablag' topish va ana shu muzeyga asos qilib Barshchevskiy to'plagan kolleksiyalarni asos qilib olish to'g'risida taklif kiritdi.

Shu narsani qayt qilib o'tish kerakki, Samarqand tarixini o'rganishga rus olimlari katta hissa qo'shdi. Rossiyaning territoriya jihatidan O'rta Osiyoga yaqinligi, ayniqsa, o'tgan asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning, shu jumladan, Samarqandning Rossiyaga qo'shib olinishi bu ishga ko'p jihatdan yordam berdi. XIX asrning oxirgi choragida hozirgi Samarqandning shimoliy qismida joylashgan, qadimiy va o'rta asr Samarqandning territoriyasidan iborat bo'lgan Afrosiyob xarobasida ilmiy maqsadda arxeologik qazishma ishlari boshlab yuborildi.

⁴¹ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр.109.

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi (1895-1917) Samarqandni tarixiy-arxeologik jihatdan o'rganishga katta e'tibor berdi. 1905-yildan keyin havaskor arxeologlar, tarixchilar, Etnograflar Samarqand to'garagini tashkil etishga harakat qilib ko'rishdi, biroq to'garakning amaliy faoliyati keng quloch yozmadi.⁴²

1893-yil 15-sentyabr kuni V. V. Bartold N.I.Veselovskiya: «har qanday holatda men bu yerda izlanish ishlarini olib borishga harakat qilaman. Bundan unimli foydalanish zarurdir. Ushbu maqsadda: 1) o'zbekcha, qirg'izcha gapirishni o'rganish; 2) o'lka tarixini biladigan arbob, vakillar bilan yaqindan tanishish, imkon qadar bu yerda ilmiy jamiyatlarni tuzish. Oxirgi vaqtda yana quyidagilarni aniqladim: 1) bu yerda xorijiy tillarini bilish keng yoyilmagan; boshqa tildagi katta to'plamlarni keltirish asosiy zaruriyat hisoblanadi; 2) tarixiy bilimlar ham juda kam darajada; O'rta Osiyo tarixiga oid qisqa o'quv qo'llanmalarni chiqarish: qo'llanma albatta Universitet xususiyatida bo'lishi lozim. Bibleografik ko'rsatgichlar zarur. Ishonamanki, bu qachondir amalga oshadi» so'zlarini yozib yuborgan. Turkistondagi gazetalarda Bartoldning bir qancha chiqishlari berib borilgan. V.V.Bartold Toshkentga kelgach, o'lkadagi aholining turmush-tarzi, ijtimoiy ahvol bilan qiziqqa boshlagan. Turkiston o'lkasiga ilmiy qiziqishi kuchli bo'lganligi bir qancha faktlar bilan isbotlanadi. 1893-1896-yillar mahalliy nashriyotlarda uning maqolalari chop etilgan: «Turkistonda arxeologik izlanishlarga oid masalalar», «XIII asr Turkiston o'lkasi», «O'rta Osiyodagi xristianlar to'g'risida» kabilar hisoblanadi. Keyingi maqolalari: «Toshkentda yangi ilmiy jamiyat», «Zamonaviy islom va uning vazifalari», «Turkiston o'lkasida fanning ahvoli» nomi ostida chiqarib borilgan. 1893-yil 11-dekabr kuni Tabiatshunos, antropologiya va etnografiya Havaskorlar Jamiyati Turkiston bo'limining yig'ilishi bo'lib, N.P.Ostroumov va V.V.Bartoldlar unda chiqish qildilar. Yig'ilish ishtirokchilariga arxeologik qidiruv haqida ma'lumot beri bo'tildi. Toshkentdagi ilmiy to'garaklarning nizomlari tasdiqlandi. Buloyiha, nizom, 1895-yil 31-oktabr kuni xalq ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlangan.⁴³

O'rta Osiyoning tarixiy o'tmishini o'rganishda mahalliy o'lkashunoslar ham faol ishtirok eta boshladi. I.Yu.Krachkovskiy va V.R.Rozen fikriga ko'ra, mahalliy o'lkashunoslarning yutuqlari ham asta-sekin ko'zga tashlanib bordi. 1894-yil V.V.Bartold O'rta Osiyodagi ilmiy izlanishlarini yana davom ettirdi. U Xo'jakent, Oqtapa, Nov, O'ratepa manzilgohlariga borgan. Hozirgi Tojikiston hududidagi Shahrison va boshqa qadimiy yodgorliklarni tekshirgan. V.V.Bartold dastlabki ekspeditsiyalar ishidan ko'ngli to'lmaganligini yozib qoldirgan. V.V.Bartold arxeolog-mutaxassis bo'lmasada, butun hayoti davomida arxeologik qidiruv ishlari, arxeologik adabiyotlarga yuqori baho bergan. Arxeologik ma'lumotlardan doimiy foydalanib kelgan.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, V.V.Bartold hych qachon tarixchi va arxeologlarni bir-biriga qarshi qo'ymagan. 1894-yil aprel oyida u Peterburgga qaytib, Peterburg Unversitetida o'z faoliyatini 1901-yilga qadar davom ettirdi.

⁴² Самарканд тарихи. I том. Тошкент, «Фан», 1971 й. 382-бет.

⁴³ Луний Б.В. Жизнь и деятельность академика В.В.Бартольдда Средняя Азия в отечественном востоковедении. «Фан», Т., 1981. Стр. 42.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarini o'rganishni Buxoroning O'ninchi asrdagi tarixini bilishda ahamiyat kasb etadi. «Buxoro tarixi» asari fors tilida yozilgan V.V.Bartold Narshaxiyning qo'lyozma to'plamlarini olib Toshkentda tahlil qilgan. Ushbu to'plamni rus tiliga tarjima qilib, o'rta asr Buxoro tapografiyasi va tarixi uchun qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Likoshin Bartoldning yordamida tarjimani o'z muallifligi ostida nashr qildirgan. Sharqshunos Avtodidakt N.S.Likoshin (1860-1927) boshqa bir qator manbaalarini ham tahrir qila boshladi. «Buxoro tarixi»ni tarjima qilishda o'z bilimi, kuchi favqulotda qobiliyati intiluvchanligini namoish qila olgan. Murrakab bo'lgan tarjima ishlari mana shu tariqa amalga oshirilgan 1885-yil taniqli sharqshunos N.N.Pantusov (1849-1909) Mulla Niyoz Muhammad bin Ashur-Muhammad Quqandiyning (tahallusi Niyoziy) «Shoxruhiylar qo'lyozmalari» nomli to'plamni o'rganib, nashrdan chiqardi. N.N.Pantusov Turkistonshunos bo'lib, Peterburg universitetida ta'lim olgan. Nashriyot «Tarixi Shoxruhiy» nomi ostida chiqdi («Shoxruh tarixi») Unda Qo'qon xonligidagi Shoxruhxondan- Hudoyorxongacha tarixiy davr yoritilgan.⁴⁴

V. V. Bartold ham ular bilan hamkorlikda qo'lyozmalarni o'rganish ishlarini davom ettirdi «Tarixi Shohruhiy»da 1845-1865-yillardagi voqyealar chorizmning O'rta Osiyo xonliklarni bosib olish voqyealari aks ettirilgan. Bartold dissertasiya himoyasini amalga oshirgunga qadar ham O'rta Osiyoda ko'plab ilmiy izlanishlarni olib bordi. O'rta Osiyoning turli viloyatlarini ilmiy tomondan o'rganib chiqishga harakat qildi. Ingliz sharqshunosi Stenli Len Pulning «Musulmon sulolalari» to'plamini rus tiliga tarjima qildi. 1899-yil uni nashrga berdi. G'arb tadqiqotchilarining ishlarini oddiy tarjima qilish emas balki original izlanish ishlarini amalga oshira olgan. To'plamga qo'shimchalar kiritib musulmon sulolarining shajaralari ularning xronologiyasini aniqlab ko'plab tuzatishlar kiritgan. P.A.Greznovich va I.I.Unyakovlar ushbu to'plam borasida Bartoldning olib borgan ishlarini yuksak baholagan. V.V.Bartold boshqa to'plamlarida Turkiston tarixiga oid ko'pgina manbaalarini tahlil qildi. Arab tarixchi geograflarining bergan ko'rsatma guvohliklarini tahlil qilib ko'rgan. Tarixshunoslikdagi ko'plab materiallarga tanqidiy sharxlar berib o'tgan. Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Sirdaryo atrofidagi yerlarni o'rganib, tarixiy ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Tohiriylar, Somoniylar, Safforiylar, Qorahoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxitoylar, Xorazmshohlar tarixiga tegishli ko'plab materiallarni tahlil qilib chiqqan. Bundan tashqari V.V.Bartold Chingizxon imperiyasi tarixi va Turkiston yerlarining bosib olinishi davrini ham o'rgangan. V.V.Bartold o'zining «Ulug'bek va uning davri» nomli kitobida mug'ullar imperiyasi uning yemirilishi Ulus amirlari, Temur hukmronligi siyosiy voqyealarni yoritib o'tgan. «Mir Alisher» nomli ishida siyosiy munosabatlarni batafsil yoritishga harakat qilgan. V.V.Bartoldning «Turkiston Mug'ullar bosqinchiligi davrida» nomli mavzudagi dissertasiyasi yaxshi natija va ijobiy tugallangan. Magistrlik darajasidan Doktorlik darajasi berilgan opponentlari

⁴⁴ Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика В.В.Бартольдда Средняя Азия в отечественном востоковедении. «Фан», Т., 1981. Стр. 43-45.

N.I.Veselovskiy V.A.Jukovskiy, V.R. Rozenlar uning ilmiy ishini yuksak baholashgan.

Birinci rasmiy opponent N.I.Veselovskiy bo'lib «Turkiston tarixi bo'yicha hyech bir tadqiqotchi V.V.Bartold kabi ishlarni amalga oshira olmagan» so'zlarni himoya davrida takidlab o'tgan.

V.R.Rozenning guvohlik berishicha fakultet kengashi V.V.Bartoldning to'plamiga yuksak baho berib «Sharq tarixi doktori» unvoni berishga qaror qilgan.

I.P.Petrushevskiy «Turkiston mug'ul bosqinchiligi davrida» nomli to'plamni V.V.Bartoldning klassik ishi deb atagan V.V.Bartold unda O'rta Osiyoning VII-XII asrlardagi tarixini atroflicha yoritib o'tgan. Arab bosqinchiligidan so'ng, O'rta Osiyodagi ijtimoiy munosabatlar tizimining o'zgarishi Arab bosqinchilariga qarshi kurash, dehqonlarning noroziligi, Toxiriylar, Safforiylar, Somoniylar davridagi tizimlarga tarixiy sharh berib o'tgan.⁴⁵

V.V.Bartoldning O'rta Osiyo tarixiga oid manbalariga bergan sharxlari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. A.Yu.Yakubovskiy esa, V.V.Bartoldning asarlariga baho berib o'tgan. 1902-yil V.V.Bartold ikkinchi marta O'rta Osiyoga tashrif buyurdi. Bu safar foydalanilmagan ko'plab qo'lyozma, materiallarni tahlil qilib o'tgan. Aynan qo'lyozma to'plamlar bilan tanishish asosiy mashg'uloti bo'lib hisoblangan. Shayboniyxon tamonidan Samarqandning ikkinchi bor egallanishi Boburning tog'ga (1501) qochishi bilan bog'liq materiallarni yiqqan. Ularning 34 ta nom bilan atalishini V.L.Vyatkin aytib o'tgan. Toshkentdagi Turkiston ammobop kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalar orasidan V.V.Bartold G'iyosidin Ali tomonidan yozilgan, Temur tarixi va «Chingiznomaga» alohida e'tibor qaratgan. Bu XVI asr o'rtalaridagi voqyealarni ham o'z ichiga olgan. Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon tarixiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlarni ham taxlil qilib o'tgan. N.A Mayev, N.V Dmitrovskiy, N.G Maliskiylar ham ko'plab ilmiy maqolalarni chop etgan. V.V.Bartold «O'rta asr Turkiston shariyatidan» nomli maqolasini ham chiqargan. O'rta asr shoiri A.L. Shatrunjiy she'rlari tarjima qilingan. 1902-yil «Qadimgi davrdan XVII asrga qadar Orol dengizi va Amudaryo etaklari haqidagi ma'lumotlar» nomli yirik to'plam chop etildi. Rus geografik jamiyatining Turkiston bo'limi tomonidan bildirilgan iltimosga ko'ra bajarilgan. Bu Orol dengizini kompleks tadqiq qilish bilan bog'liq edi. Tarixiy geografik tadqiqotlarda rus sharqshunoslarining hizmatlari katta edi. Musulmon mualliflarining Orol dengizi Amudaryoning quyi oqimi haqida bergan ma'lumotlari tanqidiy tahlil qilib chiqilgan. Geografik irrigasiya ishlari ko'plab ma'lumotlar berib o'tadi. (Xorazm viloyati va uning atroflari gidrogeografiya irrigasiya va boshqa sohalarga oid ma'lumotlar qo'lga kiritilgan). V.V.Bartold o'z vazifasini katta yutuqlar bilan bajardi. «Amudaryo qayerga quyiladi» degan masala yuzasidan ko'plab bahslarni o'rta tashlagan V.V.Bartoldning izlanish ishlari katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy guvohliklar, ma'lumotlarni o'rganib chiqqan. V.V.Bartold Amudaryoning XIII va XIV asrlar Kaspiy dengiziga quyilganligi haqidagi qarashlarga shubha bilan qaramagan. Geograf, Geolog, Paleontolog

⁴⁵ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 15.

(naturalist) larorasidagi bunday fikrlarni qo'llab quvvatladi. Xorazm vohasida keyingi tadqiqotlar amalga oshirilgach, ko'plab hulosalar o'z tasdig'ini topmoqda N.V. Xannikov olib borgan sharqshunoslik ishlari diqqat e'tibordan chetda qolmagan. P.I.Lerx ham tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Ko'plab tarixiy geografik savollarga ushbu sharqshunoslarning asarlari maqola to'plamlari orqali javob olishimiz mumkin. V.V.Bartold ushbu tahliliy ish bilan chegaralanib qolmasdan arxeologik qazuv ishlarini ham kuzatib borgan. Samarqanddagi Afrosiyob shahri o'rnida qazuv ishlari o'tkazilganligi unga misol bo'la oladi. 1904-yil V.V.Bartold uchinchi bor O'rta Osiyoga keldi. Afrosiyob shahri o'rni batafsil o'rganib chiqilgan. Samarqandga kelishidan avval V.V.Bartold Toshkentda 1904-yil 16-mart kuni kelgusi tadqiqotlar xususida ko'plab fikrlarni bildirib o'tgan. Samarqanddagi suv tizimi haqida V.V.Bartold maxsus maqola chop etgan qazuv ishlarida arxeolog o'lkashunos V.L. Vyatkin ham ishtirok etgan. X asr arab geograflarining Afrasiyob Samarqand haqida bergan ma'lumotlarini tadqiqot bilan bog'lashga harakat qilgan. V.V.Bartoldning tasdiqlashicha Afrosiyob shahar o'rni Samarqand shahristoni o'rnida joylashgan. Mo'g'ullar davriga qadar Afrosiyobning maydoni qancha joyni egallaganligi, binolarning joylashuvi masalalarning aniqlash muhim edi. V.V.Bartold muzey ishlarida ham faol ishtirok etib keldi. Arxeologik qidiruv ishlari natijasida O'rta Osiyoda muzey sohasi tashkil topib bordi. Rus sharqshunos olimlari O'rta Osiyoda takomillashib borishiga qiziqish bildirganlar. A.Yu.Yakubovskiy ham arxeologiya sohasida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan. V.V.Bartold Amir Temurning dafn qilinishi bilan bog'liq «Samarqand masjidi» nomli albomini chiqardi. Amir Temurning dafn qilinishi bilan bog'liq yozma manbalarini to'plagan musulmon ruhoniylar va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlarga alohida qiziqish bildirgan. Mozor, supa, dahma, madrasa, honaqa kabi atamalarni tahlil qilgan, tarixiy etnografik ma'lumotlar yig'ilgan. Mug'ullar qipchoqlardagi dafn marosimi, dafn qilish usullarini solishtirib ko'rgan. Toshkentda sharqshunoslik institutini ochish masalasini hal bo'lishida V.V.Bartold faol ishtirok etgan.⁴⁶

V.A. Krachkovskiy ham o'z ko'rsatmalarini berib o'tgan. O'sh shahridagi «Sulaymon masjidi» ham N.I.Veselovskiy tomonidan o'rganib chiqilgan. Arab yozuvlari yaxshi saqlanib qolgan edi. 1895-1896-yillar va 1898-1899-yillardagi tarixiy arxeologik ekspeditsiyasida N.I.Veselovskiy Go'ri Amirdagi yozuvlarni tadbiq qilib chiqdi. Go'ri Amir maqbarasining qurilishi, maqbaradagi ichki va tashqi yozuvlar, ustalarning ishlari, uning o'ziga hos san'atini tahlil qilgan. N.I.Veselovskiyning ushbu ishni butunlay tugatmaganligini V.A.Krachkovskiy yozib qoldirgan. 1895-yil N.I.Veselovskiy Ho'ja Ahror maqbarasini o'rganib, o'z maqolasini chiqargan. Bu maqbara Samarqanddagi Qarshi yo'liga chiqish yaqinida joylashgan uning ta'kidlashicha Xoja Nasr ad-Din Ubaydulla (Xoja Ahror) ko'zga ko'ringan yirik islom vakillaridan biri bo'lganligi shubxasiz ekanligini tasdiqlab o'tgan. N.I.Veselovskiy ushbu allomaning qisqacha biografiasini katta marmartoshlardan qurilganligini, keyingi qurilgan madrasalarga yaqin ekanligini

⁴⁶ Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика В.В.Бартольдда Средняя Азия в отечественном востоковедении. «Фан», Т., 1981. Стр. 80-83.

yozib qoldirgan. Maqbara aynan Xoja Ahror nomi bilan atalgan. Qabr toshdagi yozuvlarning matnini rus tiliga tarjima qilgan. Ushbu yozuvlarni fors tilidan V.A.Jukovskiy, arab tilidan N.A. Mednikov tarjima qilgan Xoha Ahrorning vafot etgan-yilini 1490-yil fevral (hijriy 895-yil) deb ko'rsatishadi. Shayboniyxon qabr toshidagi yozuvlarni ham N.I.Veselovskiy o'rgangan. Tarjima ishini V.A.Jukovskiy qayta ko'rib chiqish ishlarini V.R.Rozen amalga oshirgan.

1903-yil 1-may kuni N.I.Veselovskiy Temur qabri haqidagi ma'lumotlarni to'plab chiqish qildi. N.V Xannikovning ayni ma'lumotlari keltirib o'tilgan. Ularning ta'kidlashicha, Nodirshoh Samarqandni egallagandan so'ng, Temur qabrida ayrim o'zgarishlarni amalga oshirgan. N.I.Veselovskiyning aytishicha qabr doimo yarim shaklidagi ikkita toshdan iborat bo'lib bir-biri bilan mustahkam joylashgan.⁴⁷

N.I.Veselovskiy shu bilan birgalikda Turkistondagi Ahmad Yassaviy qabrini, qabr toshidagi yozuvlarga e'tibor qaratgan. N.I.Veselovskiyning epigrafik ishlari kengayib bordi 1877-yil qadimgi manzilgohlardan birini aniqladi. Bu Amudaryo bo'yida joylashgan bo'lib qadimgi qabilalar yashagan bo'lishi mumkin. N.I.Veselovskiy o'zining ilmiy faoliyati davomida O'rta Osiyodagi tarixiy arxitektura inshootlarini ham tadqiq qilgan. N.I.Veselovskiy Samarqandga kelgan vaqtida Afrosiyob va uning tevarak-atrofiga oid bo'lgan qadimiy topilmalarni ham tasodifan qo'lga kiritdi. Samarqanddagi Shohi Zinda me'moriy ansambili haqida ham ko'plab ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Sharqiy bo'lim yig'ilishlarida o'z tadqiqotini ma'ruza qilgan. Ushbu binoning me'moriy hususiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Inshoot murakkab tuzulishga ega. Tarixiy me'moriy yodgorliklarni o'rganishda ko'plab ishlarni amalga oshirgan. Samarqanddagi tarixiy arxitektura ekspeditsiyasiga N.I.Veselovskiy boshchilik qilgan. Arxeologik kommissiya rejalari, loyihalari ishlab chiqilgan. V.P.Vasiliyev, V.V.Radlov, K.G.Zeleman, B.R.Rozen, V.A.Jukovskiy, M.P.Botkinlar o'z fikrlarini bildirib o'tgan. 1895-yil iyun oyida Samarqandga me'mor akademik Pyotr Petrovich Pokrishkin va rassom Samuil Martinovich Dudinlar kelishgan. 18-avgust kuni Samarqandga N.I.Veselovskiy ham kelgan edi. 1899-yil fevral oyida hukumat Samarqand masjidlarini ro'yhatga olish uchun 13 ming rubl mablag' ajratgan. 1899-yil 3-mart kuni A.A.Babrinskiy, N.I.Veselovskiy, A.A.Spisin, D.A.Braun, M.P.Botkin, K.G.Zeleman, V.V.Radlov, V.A.Jukovskiy, akademik-arxitektor N.P.Pokrishkin, N.I.Veselovskiyilar ishtirokida kengash o'tkazilib, keyingi tadqiqot rejalari belgilab olindi. «Samarqand masjid» larining al'bomlari chiqarildi. Arxeolog V.L.Vyatkin bergan ma'lumotlar asosida izlanishlar olib borilgan. 1896-yil 14-mart kuni Sharqiy bo'lim yig'ilishida N.I.Veselovskiy Qutbi-Chaardegum mozori haqidagi ma'lumotlarni ishtirokchilarga yetkazdi. Nurad-Din Bosir mozori fotografiyalar, mozorlarning buzilishi bilan bog'liq informatsiyalar alohida o'rin egallaydi. N.I.Veselovskiy «Samarqand» kitobi asosida izlanishlari doirasini yanada kengaytirgan. 1897-yil 5 oktyabrda N.I.Veselovskiy yer qimmirlashidan so'ng Bibixonim masjidini qayta ko'rinishga keltirish loyihasini tasdiqlash uchun

⁴⁷ Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения историографический очерк. «Фан», Ташкент, 1979. Стр. 73.

mahalliy hukumatlarga talabnoma bilan chiqqan. 1905-yil 29-yanvar kuni N.I.Veselovskiy O'rta Osiyoni o'rganish rus qo'mitasi bilan hamkorlik qilish masalalarini ilgari surgan. Ahmad Yassaviy, Amir Temur qabrlarining chizmalari tasviriga tushurilib olingan. Temuriylar davrida qurilgan ko'plab inshootlar o'z o'rnida bo'lsada, emirilish holatida ekanligini aniqlagan. 1897-yilgi yer qimirlashi natijasida Bibixonim masjidining darvozasi yemirilgan edi. 1903-yil Go'ri Amir maqbarasining minoralari suratga olingan. Chizmalari ishlab chiqilgan. Turkistonda rassom-arxitektorlar A.I.Goroxov va boshqalar faol tadqiqot olib bordilar. 1905-yil Turkistonga N.I.Veselovskiy yana kelib, masjidlarni o'rganib chiqishni boshladi. 1905-yil 30-noyabr kuni rus qo'mitasida yig'ilish o'tkazilib N.I.Veselovskiy Ahmad Yassaviy masjidini tadqiq qilganligi to'g'risida hisobot berdi. Samarqanddagi me'moriy yodgorliklarning saqlanishi masalalarini o'rganishni ham ilgari surdi. Rasm, chizma, fotografiyalarni suratga olish ishlari boshlab yuborildi.⁴⁸

⁴⁸ Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения историографический очерк. «Фан», Ташкент, 1979. Стр. 82- 84.

IV BOB.

TURKISTONDA DASTLABKI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA MAHALLIY O'LKASHUNOSLARNING ARXEOLOGIYA SOHASIDAGI HARAKATLARI.

IV.1. Turkistonda dastlabki arxeologik tadqiqotlarning olib borilishi.

Turkistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda N.S.Likoshin, V.V.Vereshagin, P.I.Lerx, A.Xoroshxin, M.Rostislov, V.V.Krestovckiy, N.I.Veselovskiyning faoliyatlari ta'kidlab o'tiladi. I.N.Verezin, V.V.Velyaminov-Zernova, V.V.Grigerev, B.A.Dorn, P.I.Lerx, V.G.Lixachova, O.I.Senkovskiy, G.S.Kablukova, V.G.Tizengauzen, N.V.Xannikov, X.D.Fren va boshqalar maxsus tadqiqot ishlarini olib borishgan. «Somoniyar tangalari to'g'risida» nomli tadqiqot V.G.Tizengauzenga tegishlidir. Ular tomonidan O'rta Osiyoda ko'proq numizmatik izlanishlar olib borilgan. P.I.Lerxning «Buxorudotlar tangalari» nomli ishi esa tugallanmay qolgan. XIX asr 60-7-yillarida O'rta Osiyoda yirik numizmatik manbalar to'planib bordi.

Har uch-besh-yilda O'rta Osiyoni arxeologik o'rganish xolatlari muhokama qilib borilgan. V.V.Grigorevning tavsiyasiga asosan, A.L.Kun O'rta Osiyoga kelib, materiallarni yig'a boshladi. 1868-yil Turkistonga qolgan bo'lsa, 1880-yilga qadar o'z missiyasi bilan qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Qadimgi mahalliy yodgorliklar haqida ko'plab informatsiyalarni to'plagan. 1871-yil A.L.Kun Peterburgga o'n beshta yashikda arxeologik topilmalarni olib borgan. Bulardan biri Toshkentdan topilgan edi. A.L.Kun Shahrisabzda izlanish olib borib, Kesh shahrining tarixi xususida xulosalarga kelgan. A.L.Kunning 1868-yil Turkistonda olib borgan ishlari «Turkestanskiye vedomosti»ning birinchi nomerida yoritib borilgan. O'rta Osiyoda musulmon ta'limoti, «Usmon Qur'oni» mahalliy aholining turmush tarzi haqidagi ko'plab ma'lumotlarni yig'a olgan. A.L.Kun «Turkiston al'bomi»ni tuzib o'lkadagi qadimiy yodgorliklarning ko'p sonli fotografiyalari, Samarqanddagi me'moriy yodgorliklarining tasvir rejalarini ishlab chiqardi. Al'bom juda qimmatli manba hisoblanadi. 1870-1872-yillardagi Turkiston fotografik al'bomining tuzilishi o'lka tadqiqot ishida muhim ahamiyatga ega. Turkistonda arxeologik, etnografik munosabatlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi. «Turkiston to'plami» ham O'rta Osiyoning qadimiy yodgorliklarini o'rganishda favqulodda yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.⁴⁹ Ushbu to'plamning tuzilishi yirik rus bibliografi V.V.Mejov (1831-1894) xizmati bilan bog'liqdir. To'plamni tuzish ishlarini aynan u boshlab bergan. 1867-1887-yillar 1-416-jildlarni tayyorlagan. Turkiston o'lkasida rus sharqshunoslari olib borgan izlanishlarda P.I.Lerxning xizmati katta. A.Yu.Yakubovskiyning so'zlariga ko'ra, Sirdaryoning quyi oqimidagi vodiylarni o'rganishda P.I.Lerxning xizmati katta XIX asr sharqshunoslari ichida eng qobiliyatlisi deb P.I.Lerxni ko'rsatib o'tgan. 1860-yil P.I.Lerx Rus Arxeologik Jamiyatining a'zosi bo'ldi. 1873-yil esa uning kotibligiga saylangan. 1867-yil boshchilik qildi. Sirdaryo vodiylarida izlanishlar olib borishi mo'ljallangan edi. Ushbu tadqiqotlarning natijalari 1870-yil nashrdan

⁴⁹ Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 23-24.

chiqarilgan. 1867-yil P.I.Lerx Turkistonga kelganda asosiy diqqat e'tiborini epigrafik kuzatuvlarga bag'ishladi. V.A.Krachkovskiy uning ishlaridan guvohlik beradi. P.I.Lerx ham geografik jamiyatning yo'riqnomasi asosida faoliyat olib borgan. 1873-yil asosiy ro'yxatlarni yozish ishlarini boshlagan. Xiva vohasini turli tomondan o'rganish uchun maxsus ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Asosiy diqqat e'tibor bilan saqlanayotgan, arxeologik, numizmatik, epigrafik va etnografik materiallarga qaratilgan.

Qadimgi yodgorliklar to'g'risidagi alohida ma'lumotlarni boshqa olim, sayohatchi tadqiqotchilar ishida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, Ch.Ch.Valixonov (1835-1865), Toshobod, Kurtka qal'asi (Qo'qon) va boshqa shu kabi yodgorliklar xususida ko'plab material, ma'lumotlarni to'plagan. Xiva, Buxoro haqida (M.I.Venyukov- Issiqko'l haqida ma'lumot yig'gan. 1832-1901-yillarda yashagan) N.P.Ignativ izlanishlar olib borgan. A.K.Geyns esa, (1834-1892) umumiy tadqiqot ishlarini o'tkazgan.⁵⁰

1879-yil «Turkestanskiye vedomosti» gazetasida D.M.Grameniskiy o'lkadagi qadimgi yodgorliklar xususida o'z maqolasini chiqargan. Qiyinchiliklarni haqli ravishda ta'kidlab o'tgan, shaharlar va u yerda yashovchi xalqlar, turli xil manzilgohlarni muallif qayd etib o'tgan.

XIX asr 80-yillarida qadimgi Marv shahri o'rnida qidiruv ishlari olib borilgan. A.V.Kamarov qazuv ishlarini amalga oshirgan. Shaharning eng qadimgi qismi hisoblangan. Erk qal'ada (Erktepa)gi qazishga katta e'tibor berilgan. Ushbu-yillarda O'rta Osiyoga V.V.Radlov (1839-1918) kelib, (1868-yil Zarafshon vohasiga sayohat qilgan) Samarqanddagi me'moriy yodgorliklarga katta e'tibor qaratgan. 1869-yil V.V.Radlov Jungar cho'liga borgan. Farg'ona vodiysining tarixiy xolatiga qisqacha umumiy sharx akademik A.Middendorf tomonidan berilgan. Farg'onadagi tabiiy sharoit va qishloq-xo'jaligi munosabati» nomli to'plamini yozib qoldirgan. I.V.Mushketev ham arxeologiya uchun qimmatli manba ma'lumotlarni keltirib o'tgan. I.V.Mushketevning birinchi izlanishi tasodifiy yuzaga kelgan emas. O'rta Osiyoga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lganligi haqida boshqa tadqiqotchilar guvohlik beradi. Samarqand va mahalliy qadimgi yodgorliklar xususidagi bob bo'yicha Rozen o'z sharxlarini berib o'tgan. I.V.Mushketev Samarqand va Termizdagi yozuvlar (arab tilidagi) ni o'rganib chiqqan.

Samarqandning o'tmishiga qiziqish katta edi. 1881-yil I.I.Srezhevskiy Ryu Gonsales de Klavixoning to'plamini tarjima qildi. Klavixo 1403-1406-yillar Samarqandda Amir Temur huzurida elchi sifatida bo'lgan. Samarqanddagi yana bir ishtirokchisi rassom N.Ye.Simakov Samarqand va uning atrofidagi qadimiy madaniy yodgorliklarni ro'yxatga olish bilan mashg'ul bo'lgan. Uning izlanishlari 1883-yil «O'rta Osiyo san'ati» nomli al'bomda o'z aksini topgan. Al'bom ko'plab tadqiqotchilar, xususan V.V.Stasov tomonidan yuksak baholangan. O'rta Osiyo san'ati bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni bera oladi.

⁵⁰ Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения историографический очерк. «Фан», Ташкент, 1979. Стр. 98.

1874-yil Afrosiyob (Samarqand)da Borzenkov, 1889-yil V.V.Krestovskiylar izlanish ishlarini amalga oshirdilar. Diletantizm yo'nalishida arxeologik qazuv o'tkazilgan, imperator arxeologik komissiyasi bilan aloqada bo'lgan. Yana bir yirik sharqshunos indolog I.P.Minayev(1840-1890) bo'lib, O'rta Osiyo qadimiyligi haqida tajribaga ega bo'lib, Afrosiyobdagi qazish ishlariga boshchilik qildi. 1883-yil Peterburg Universitetining professori N.I.Veselovskiy arxeologik komissiya bilan birga Turkistonda faoliyat olib borgan. Qadimgi O'rta Osiyoni o'rganish tarixida N.I.Veselovskiyning ishi alohida o'rin egallaydi. 1882-yildayoq u Turkiston o'lkasidagi qadimgi shaharlar to'g'risida ma'lumotlar yig'gan. Bu alohida loyiha bo'lib hisoblanadi. N.I.Veselovskiy birinchi bo'lib, Turkistonga ilmiy komandirovkani uyushtirgan. 1884-yil uning oldiga ko'plab topshiriqlar qo'yilgan. Bu Arxeologik komissiya tomonidan ilgari surilgan edi. Afrosiyob shahri o'rnida tizimli qazuv ishlarini o'tkazish masalasi bilan bog'liq bo'lgan Turkiston o'lkasida arxeologik munosabatlarni tadqiq qilish boshqa punktlarni belgilab olish lozim bo'lgan. N.I.Veselovskiy shu bilan birga Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari, Zarafshon vohasi, Buxoroda ham izlanishlar olib borgan. N.I.Veselovskiyning tashabbusi bilan O'rta Osiyo qadimgi shaharlarining topografik ro'yhati ishlab chiqilgan O'rta asr Samarqanddagi shahriston, uning rejalari muhokama qilingan N.I.Veselovskiyning harakatlari natijasida ko'plab me'moriy inshootlarning tarixi aniqlanib bordi. 1895-1896, 1898-1899-yillar N.I.Veselovskiyning rahbarligi ostida Samarqanddagi masjidlar, yozuvlar bilan bog'liq holatlar o'rganilgan. 1885-yil mart oyining oxirida Veselovskiy Afrosiyobni ko'zdan kechirishga kirishadi. N.I.Veselovskiy tashabbusi bilan o'rta asr Samarqand shahristoni xarobalarining birinchi batafsil topografik plani tuzildi. Shu narsani hisobga olish kerakki, N.I.Veselovskiyga qadar Afrosiyobda birorta ham mutahassis olim ish olib bormadi.⁵¹ Arxitektorlar P.P.Pokrishkin, rassomlar S.M.Bistreninlar ham ekspedisiya ishida faol ishtirok etib bordi.

1886-yil 27-may kuni o'tkazilgan yig'ilishda N.I.Veselovskiy O'rta Osiyo qo'rg'onlari haqidagi referatini o'qib eshittirdi. Ularni ikkita asosiy toifaga bo'lgan: 1) qabr, 2) turar joy qo'rg'onlari. Birinchi katta guruhni tashkil etib, ya'ni yuzga yaqin qo'rg'onlardir. Ular «Mingta tepalik» deb ham nomlangandir. Turar joy qo'rg'onlari qal'a vazifasini ham bajargan. 1886-yil 29-aprel kuni o'tkazilgan ilmiy anjumanda N.I.Veselovskiy o'z qarashlarini ma'lum qildi. O'rta Osiyodagi qadimiy yodgorliklar to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni asoslab berishga harakat qilgan. Yana shuni qayd etib o'tish lozimki, professor N.I.Veselovskiy mahalliy o'lkashunoslar bilan ham hamkorlik qildi. Ularga ko'plab vazifalar yuklatilgan. Mahalliy vakillarning ishlariga baho berib borilgan. V.P.Nalivkinning «Qo'qon xonligining qisqacha tarixi» nomli kitobiga tadqiqotchi bo'lib hisoblangan. Umuman aytganda, Veselovskiy qidiruv ishlarida faollik ko'rsata oldi. Toshkentdagi va boshqa yerlardagi muzeylarning taqdiri bilan qiziqqa boshladi.

Yirik sharqshunos olim N.I.Veselovskiy bo'lib epigrafik yodgorliklarni ham o'rganib chiqqan. N.I.Veselovskiy epigrafik materiallarni yig'ib masjidlarning ichki va tashqi tuzilishi mozorlar maqbaralar haqida fikrlarni bildirib o'tgan.

⁵¹ Самарканд тарихи. I том. Тошкент., «Фан», 1971. 380-бет.

N.I.Veselovskiy O'rta Osiyoga birinchi kelgan vaqtidayoq qo'lyozma yozma hujjatlarni ko'paytirish ularni tarixiy ahamiyatini bilish bilan shug'ullangan. Bunday yozuvlar Amir Temur va uning o'g'illari qabrlaridagi toshlarda Childuxtaron Shayboniyar va Ho'ja Ahror maqbaralaridagi yozuvlarini o'rganib chiqqan. 1885-yil N.I. Veselovskiy Samarqanddan 12 chaqirim masofada joylashgan Dahbet qishlog'idagi manzilgohlarni ko'zdan kechirdi. Said Ahmad Kosoni (Mahdumi A'zam), (tugal hokimiyat egasi) maqbarasida izlanish tadqiqotini davom ettirgan. Yalangtushbiy masjidining qurilishi, qurilgan-yilini (1028/ 1619) yozib qoldirgan. Masjid atrofidagi yerlar Mahdumi A'zam qabrini ko'zdan kechirgan. N.I.Veselovskiy bu yerdagi qabr bitiklarini o'rganib Yalangtushbiy 1066/1655-56-yillar vafot etgan deb aytib o'tgan. Dahma(dafn joyi)ga kirish burchagida supa borligini aytib o'tgan.

N.I.Veselovskiy Dahbed qo'rg'onidagi matnlarni o'qib chiqqan, Mahdumi A'zam qabridagi qabr toshi bitiklari birinchi, ikkinchi, uchunchi va to'rtinchi bitiklar dahma atrofidagi yozuvlarni ko'rsatib o'tgan. Asosiy e'tiborni o'ziga hos yozuvlarga qaratgan. Oltinchi sakkizinchi qabr toshi yozuvlari matnlarning joylashishi rus tarjimasida ularning ifoda etilishi satrlar shular jumlasidandir.

Mashxur rus sharqshunosi professor N.I.Veselovskiy (1848-1918) tomonidan Afrosiyobda o'tkazilgan arxeologik qazishma ishlari oldinga tashlangan qadam bo'ldi. Uning ana shu qazishmalardan chiqargan xulosalari ayniqsa qimmatlidir.

Afrosiyobdagi qazishma ishlari keng handaqlar qazish metodi bilan olib borildi. Bu qazishma ishlari «Qal'adan g'arb tomonda Doniyor qabri tomonidan» bundan tashqari, arkda va bo'ya bozor tomonida olib borildi. Qazishma vaqtida qadimiy buyumlar, imoratlarning qoldiqlari, shahar obodonchiligi izlari topildi.

Veselovskiy o'zi bajargan ishlarga yetarli baho bermadi, aksicha, u shoshma-shosharlik bilan ishlaganligini aytib, bu ish, «dastlabki ko'zatuvi ahamiyatiga ega bo'lib, kelgusi tadqiqotchilarga kerak bo'lib qolishi mumkin» deb hisobladi.

Shu narsani hisobga olish kerakki, N.I.Veselovskiyga qadar Afrosiyobda bironta ham mutaxassis olim ish olib bormadi va O'rta Osiyo territoriyasidagi odamlar yashagan qadimiy joylarni qazish yuzasidan umumiy hyech kim shug'illanmadi.⁵²

«Turkestanskiye vedomosti» gazetasida quyidagilar berilgan: «Veselovskiy yozadi- Toshkent muzeyida saqlangan atomlar tarkibini kengaytirish lozim». «O'rta Osiyo arxeologiyasida Afrosiyobning o'rni katta» -so'zlari ham N.I.Veslovskiyga tegishlidir. Arxeologik komissiyaning topshirig'iga asosan, N.I.Veselovskiy mahalliy arxeologlar bilan muzokara olib bordi. Toshkent yaqinida va boshqa rayonlarda mahalliy arxeologlar ham qazuv ishlarini o'tkazishgan. N.I.Veselovskiy mahalliy yaqinlar bilan yaqin aloqada bo'lgan. 1904-yil 31- yanvar kuni N.I.Veselovskiy O'rta Osiyo tarixini o'rganish bo'yicha qiziqarli ishlarini amalga oshirdi. O'rta Osiyoda bajarilishi lozim bo'lgan kelgusida vazifalar haqida ham o'rtoqlashib o'tdi. Professor A.V.Arsixovskiy ham

⁵²Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи». 1996. 43-бет.

N.I.Veselovskiyning ishlariga yuqori baho berib o'tgan. Arsixovskiy quydagilarni yozib qoldirgan: XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, O'rta Osiyo Rossiya tarkibiga kiritildi. O'rta Osiyo shaharlari qadimiylkda qolishmaydi. Ularning ko'pchiligi o'rta asrlarda madaniyat markazi bo'lib hisoblangan. Qimmatbaho arxeologik topilmalar mavjud bo'lsada, izlash, qazuv ishlarini o'tkazish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Dastlabki arxeologik razvedkalar samara beradi. «O'rta Osiyoda ham tepaliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo Veselovskiy qazish ishlarini oxiriga qadar amalga oshira olmagan.1890-yil Turkistonga Rus arxeologik qo'mitasining raisasi P.S.Uvarova tashrif qildi. To'garak ochilishi arafasida tadqiqotlar doimiy yoritilib borilgan. V.A.Jukovskiy qadimiy Marv haqida ko'plab ma'lumotlarni to'plagan. V.A.Jukovskiyning amalga oshirgan ishlari to'g'risida zamondosh tadqiqotchilar ko'plab fikrlarni yozib qoldirgan Bartold masalan quydagilarni yozadi: «ishonch bilan aytish mumkinki, boshqa tadqiqotlar qatorida, V.A.Jukovskiyning Marv to'g'risidagi kitobi alohida o'rin egallaydi. O'lkadagi juda ko'p shaharlarni tahlil qilgan. Shaharlarni o'tmishi haqida juda ko'plab fikrlarni bildirib o'tgan». Yana boshqa joyda V.V.Bartold, V.A.Jukovskiy ishlari to'g'risida quydagilarni yozadi: «Jukovskiyning ishi birinchi manba bo'la oladi. Biror bir Yevropa adabiyotida O'rta Osiyo shaharlari U kabi ma'lumotlarni keltirib o'taolmagan». V.A.Jukovskiyning Marv to'g'risidagi monografiyasi hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. O'rta Osiyodagi fors tilidagi epigrafikalar ham sharqshunos olimlar tomonidan tahlil qilingan. V.A.Krachkovskiy manbalarni o'rganish holatini yoritib bergan. A.Yu.Yakubovskiy ham V.A.Jukovskiyning keyingi ishlarini umumiy tavsiflab o'tgan. Turkiston o'lkasini o'rganishda V.A.Jukovskiy yaxshi yondosha olgan.⁵³

Yesper Uxtomskiyning «Qalmiq cho'lidan-Buxorogacha» nomli diletant asosida yozilgan kitobini qaytadan tahlil qilib chiqdi. Bu kitobda Yesper Uxtomskiy qadimgi Marv va boshqa hududlar haqida bir qator ma'lumotlarni keltirib o'tgan.⁵⁴ Ammo V.A.Jukovskiy Turkiston o'lkasini jiddiy o'rganish kerakligini ta'kidlab o'tgan. O'rta Osiyo qadimiy moddiy madaniyati, tarixiy bosqichlarini o'rganish ishlari qizg'in davom ettirilgan. O'rta Osiyo xalqlarining mashg'ulotlari, tarixiy-madaniy o'tmishini o'rganishda Vladimir Vasilevich Stasovning xizmatlari o'rinlidir. XV-XVII asrlardagi O'rta Osiyo qo'lyozmalarini o'rgangan. 1887-yil ushbu qo'lyozmalar Peterburg ommabop kutubxonasida tahlil qilingan. V.V.Stasov qadimgi sa'nat tizimiga e'tibor qaratib, O'rta Osiyo uslubiga sharx berib o'tgan. 1867-1868-yillar V.V.Verashagin O'rta Osiyoga kelgan. 1869-1870-yillar uning katta kartinasi yuzaga keldi. Bu «Samarqand Registon maydonidagi Sherdor madrasasi» deb nomlanadi. «Temur eshigi», «Masjidlar eshigi», «Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi» ham shular jumlasidan hisoblanadi. V.V.Verashagin me'morchilikda qurilgan eshiklarni o'ziga xos yasaliş uslublarini o'rgangan. Rassom moddiy madaniyat haqida batafsil asoslarni ilgari surgan. V.V.Verashagin O'rta Osiyo arxeologiyasida ham alohida qiziqish

⁵³Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учраждения Туркестанского Клуба любителей археологии. Ташкент, 1896, Стр. 50.

⁵⁴Лунин Б.В.Из истории русского востоковедения и археология в Туркистане, Туркистанский кружок любителей Археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 31-33.

bildirgan. Uncha katta bo'lmagan qazish ishlarini amalga oshirgan. Ko'plab qadimiy buyumlarni ro'yhatga olgan. Turkiston o'lkasining me'moriy yodgorliklari ro'yhatga olinishi jarayoni tezda amalga oshgan emas. 1882-1888-yillar O'rta Osiyoga kelgan rassom L.Ye.Dimitriyev-Kavkaziski ham moddiy madaniyat tarixiga ham qiziqishini ko'rsatgan. Badiiy Akademiya topshirig'iga asosan O'rta Osiyoga tadqiqot uchun rassom N.N.Sherbin-Kramarenko qiziqarli ma'lumotlarni qayd qilib o'tgan. 1897-yil 10-noyabr kuni ushbu rassom o'z ma'ruzasini e'lon qilgan. 1895-yil Sherbin-Kramarenko Samarqanddagi Bibixonim masjidini o'rganishni boshlab, hovlisida qazish ishlarini amalga oshirdi. Boy kolleksiya yig'ishga muvaffaq bo'ldi. Rassom 1897-yil Samarqanddagi Shohi Zinda masjidini o'rganish ishlarida ham faol ishtirok etdi. Bir qator muhim kuzatuvlar amalga oshirildi. N.N.Sherbin-Kramarenko birinchilardan bo'lib, (Fedchenko va Seversevalarning qarab chiqishidan so'ng) O'zgand yodgorligi haqida batafsil ma'lumotlarni yig'a oldi. (1896-yil). Yuz-yillikning oxirida Shahrisabz tarixiy-me'moriy yodgorligi o'rganib chiqildi. Bu 1883-yilgi Simakov al'bomida ham o'z aksini topgan.

XIX-asrning ikkinchiyarmiga kelib, qadimgi manzilgohlardagi ashyolarni to'plash ishlari takomillashib bordi. Ushbu tadqiqotchilarning ko'pchiligi Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari edi. Kolleksioner-tangashunoslar tangalarini ham yig'a boshladi. Oltin va kumush tangalarni A.S.Galkin yig'ib chiqqan. O'zining ko'lami jihatidan kolleksiya-tangalar muhim ahamiyatga ega XIX-asrning 90-yillariga kelib, numizmatik kolleksiyalar ichida 687 ta tanga mavjud edi. Ular bilan rus sharqshunosi V.G.Tizengauzen qiziqish bildirgan. Harbiy muhandis I.T.Poslovskiy numizmatik kolleksiyalar tarkibini yanada kengaytirdi. M.Ye.Massonning fikricha bunday topilmalar soni asta-sekin oshib borgan.⁵⁵

V.V.Bartoldning yordamchisi M.F.Gavrilov Qo'qonda qo'lyozmalar va arxeologik predmetlarni yig'di. Yu.K.Kazbekov davrida Farg'onada bir qator qo'lyozmalar yig'ilgan. Ularni V.V.Bartold qaytadan o'rganib chiqqan. L.S.Barshevskiy o'zidan katta meros qoldirdi. Yu.O.Yakubovskiy Barshevskiy to'g'risida quyidagilarni yozib qoldirgan: «bizning o'lkadagi hohlagan tadqiqotchidan so'rang, Barshevskiy o'ziga xos izlanish ishlarini olib borgan». N.I.Veselovskiy, A.A.Vobriniskiy, V.S.Lipskiy, N.N.Sherbin-Kramarenko, Benvalo, professor V.V.Bartold ham ushbu tadqiqotchining ishiga ijobiy baho berishgan. Samarqandda tadqiqot olib borgan sharqshunoslar katta kolleksiyalarni tashkil qildilar. I.A.Kastaniye Toshkentda qadimiy predmetlarni yig'ish ishlarini amalga oshirdi. Masalan Samarqanddagi fabrika egasi Mirzo Buxarin Mirza Abdullin arxeologik-numizmatik kolleksiya ishlariga o'z xissasini qo'shdi. Uning kolleksiyalari tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilib chiqilgan. Mirza Barat Mulla Qosimov (Samarqand) rassom-kolligraf bo'lib, Samarqanddagi qadimgi yodgorliklarni al'bom tariqasida tuzib chiqishni amalga oshirdi. Samarqanddagi

⁵⁵Лунин Б.В.Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Т.,1958. Стр. 36-39.

Ulug'bek maqrasasida tadqiqot ishlari olib borildi. Abu Tohir Xojaning «Samariya» asaridagi ma'lumotlardan foydalangan.

Mirzo Buxarin to'plagan kolleksiya bilan Ermitajda ko'plab tadqiqotchilar tanishib chiqqan. Yana bir mahalliy kolleksioner Xofiz bo'lib arxeologik topilmalar aniqlay olgan. Uning o'limidan so'ng kolleksiya bilan qiziqish to'xtab qolgan emas. Topilmalarning ko'pchiligi Buxoroning sharqiy qismidan olingan. Topilmalarning ichida yuzlab sopol parchalar mavjud edi. Bronzadan yasalgan oynalar, ossuariylar, 500 ta terrakota, 10000 ga yaqin tanga o'rin egallagan. Hofiz bilan Barshevskiy to'plagan topilmalarining ko'pchiligi yaxshi saqlab qolinmagan.

O'rta Osiyo moddiy madaniyatining tarixi asta-sekinlik bilan bo'lsada o'rganilib borildi. Bu o'lkani arxeologik o'rganishning birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, mahalliy aholi, o'lkashunoslar, havoskorlar, kolleksionerlar tarkibi oshib borganligini aytish mumkin. XIX asr 80-yillaridayoq Toshkentga amaldorlar, o'qituvchilar, vrachlar, guruhlar tuzildi. Ular Turkiston havoskor arxeologlar to'garagining kelgusidagi bo'lg'usi a'zolari edi. Turkiston o'lkasining tarixiy-madaniy o'tmishini o'rganish masalalarini muhokama qildilar. Ulardan ba'zilar u yoki bu ko'rinishda Toshkent ilmiy-o'lkashunoslik tashkilotiga a'zo bo'ldilar. Ulardan biri Toshkent Erkaklar Gimnaziyasining direktori N.P.Ostroumov edi. Rasmiy maxsus arxeologlar muassasasi hisoblangan-Peterburg arxeologiya komissiyasi bilan yaqin aloqada bo'lgan.

IV.2. Mahalliy o'lkashunoslarning arxeologiya sohasiga qo'shgan hissalar.

Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy ham buxorolik, mashhur o'lkashunos tarixchi olim (1833-1914). U amir Muzaffarning shaxsiy munshiysi (kotibi) bo'lib xizmat qilgan. U amir Abdulahad hukmronligining (1885-1910) so'nggi davrlarida podsholikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochorlikda kechirgan. Somiy bir necha adabiy va tarixiy asarlar yozib qoldirgan. «Mirot ul-xayol» («Xayol kuzgusi»), «Insho», «Tuhfayi shohiy» («Podsho tuhfasi»), «Tarixi salotini Mang'itiya» («Mang'it hukmdorlari tarixi») shular jumlasidan. «Tarixi salotini Mang'itiya» asarining muhim tomoni shundaki, unda Buxoro xonligining O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, Buxoro-Rossiya munosabatlari ancha keng yoritilgan.

Jahon madaniyatining beshiklaridan hisoblangan Xorazmda uzoq vaqtlardan davom etib kelayotgan bir an'ana bor. Bu shajaraviy tarixnavislikdir. Bu an'ana ilmni yuksak qadrlagan yurtning madaniyatli-ma'rifatlilik darajasini ham ko'rsatadi. Xorazm va Movarounnahrning ana shu ruhda voyaga etgan ahli, ayniqsa ma'rifatparvar oilalar o'zining yetti avlod shajaraviy solnomasini yuritganlar, avlodlar uzviyligi uzilmasligi o'zligini anglagan komil insonlar o'z ildizlaridan ma'naviy-ilmiy chanqoqliklarini qondirib turishlari zaruratidan keyingi avlodlaridan biri yoki munosib shogirdlaridan biriga uni davom ettirishini vasiyat qilishgan. El-ulus o'tmishini keyingi avlodlarga yozib qoldirish an'anasi o'lkada «Avesto»dan boshlanadi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Muxammad Solih, Munis

Xorazmiy, Ogahiy kabi allomalar tomonidan yuksak darajaga ko'tarilgan tarix yozib qoldirishdek savob va ezgu ishni Muhammad Yusuf Bayoniy davom ettirdi (1840-1923). Butun Turkiston, jumladan Xorazm hududida milliy davlatchilik o'rnida mustamlakachilik tartiblariga so'zsiz itoat qiluvchi, vassallik shartlariga bo'ysundirilgan, siyosiy kishanlangan davlat fuqarosi sifatida tarix yozishdek og'ir vazifani Muhammad Yusuf o'z zimmasiga oldi. Bayoniy qanchalik azobli va mashaqqatli bo'lmasin kelgusi avlodlar yurt bo'yniga mustamlakachilik sirtmog'ining dahshatli tarzda kiydirilishini tarix haqiqati asosida yozmoq uchun Xorazm vohasidan Eron sarhadlarigacha, turkman hududlarini yayov kezib chiqdi.⁵⁶

Muxammad Yusuf Bayoniy tarix fani-moziy ilmiga ma'rifat va haqiqat chirog'i deb qaradi. Shu e'tiqodiga og'ishmay qat'iy amal qildi. Bayoniy tarixiy xodisalar g'oyat to'g'ri va ishonchli yozilishini tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati haqida shunday yozadi: «Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqyealarni yozuvchi muarrix tarafdorlik etmasdan, bo'lgan hodisalarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hych bir odamga ma'qul bo'lmaydi».

Bayoniy ana shu e'tiqodida sobit turib yirik ikki tarixiy asar yaratdi. «Xorazm tarixi» va «Shajarayi Xorazmshohiy» deb nomlangan asarlardir.

Haqiqatan ham, Bayoniy o'z davrining haqiqatgo'y muarrixi bo'lib, Xiva xonligining chor Rossiyasi tomonidan shafqatsizona mayllarda bosib olinishi va talon-toroj etilishini atroflicha sodda xalq tilida yozib bera olgan yirik tarixchi darajasiga ko'tarila oldi.

Bayoniyning asarlari kelgusi avlodlarga qo'lga kiritilgan mustaqillikni ko'z qorachigidek asrab-avaylashga chaqiriq, bosqinchilarga va bosqinchilik urushlariga qarshi nafrat bo'lib yangraydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi choragida o'tgan tarixchilardan Mirza Salimbekning ilmiy-tarixiy, o'lkashunoslik faoliyati ham diqqatga sazovordir. U 1850-yilda Buxoroda tug'ildi. Madrasada yaxshi ma'lumot oldi. Mirza Salimbek 1880-1883-yillarda amir huzurida xizmat qildi. 1884-1885-yillarda Buxoro amirligining Turkiston general-gubernatori huzuridagi vakili bo'lib turdi. U xizmatda bo'lishiga qaramay, tarix sohasida muhim va qiziqarli risolalar yaratdi. Uning «Kashkuli Salimiy» («Salimiyning kashkuli»), «Jome ul-gulzor» («Gulzorlar majmui»), «Ka'b al-axbor hikoyalari», «Hikoyat Abdulla ibn al Muborak», «Tarixi Salimiy» («Salimiyning tarixi») kabi risolalari muhim ahamiyatga egadir.

XIX asrda yirik o'lkashunos tarixchi Abu Tohirxoja (1874-yili vafot etgan) tarixnavislik rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardandir. Uning mashxur asarlaridan biri «Samariya» bo'lib, unda Samarqand shahrining bunyodga kelishi va nomlanishi, geografik holati, shuningdek, ob-havosi, madaniyati, iktisodiy xayotiga doir qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.⁵⁷

⁵⁶Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи», 1996. 44-бет.

⁵⁷ Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учраждения Туркестанского Кружка любителей археологии. Ташкент, 1896. Стр. 56

XIX asrning ikkinchi yarmida tarixchi sifatida tanilgan olimlardan Mulla Olim Mahmud Xoji qalamiga mansub «Tarixi Turkiston» asari o'tmishimizni o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Asar manbalarining boyligi bilan ajralib turadi.

Tarixchi va geograf olim Muhammad Solih Rahim Qoraxo'ja o'g'li 1830-yilda Toshkentning «Qor yog'di» mahallasida tug'ilgan. XIX asr oxirlarigacha hayot bo'lgan, ammo vafotining aniq-yili noma'lum. O'z shajarasining Shayx Xovandi Tohur (XIV asr)ga borib ulanishi haqida asarida yozib qoldirgan. Otasini Toshkent ahli ulug'lab «ulamolar nodiri», davr muallimi deb atashgan. Muhammad Solih xat-savodini o'z bobosi Abdurahmonxo'ja qo'lida chiqargan.

1840-yildan 1863-yilgacha Toshkent, Qo'qon, Buxoroning nufuzli madrasalarida bilim olib, arab, fors tillarini mukammal bilib oladi. 1863-yili ona shahri Toshkentga qaytib, bobosi imomlik qilgan masjidda imomlik qiladi.

U tabobat ilmidan ham xabardor bo'lib, tez-tez Toshkent viloyatlari qishloqlari, qir-adirlar va tog'lariga chiqar, hududlar jug'rofiy joylashuvi, toponimikasi, shuningdek topografiyasi bilan shug'ullanib tom ma'nodagi o'lkashunos-jug'rof, o'lkashunos-tarixchi va o'z viloyati flora va faunasi bilimdoni bo'lib etishdi. O'zi yiqqan dorivor o'simliklardan dori-darmonlar tayyorladi, lekin uni mashxur qilgan soha tarix ilmi bo'ldi.

Tarixchi olim Muhammad Solih o'lkasi tarixini o'rganishga 25-yildan ortiq vaqt sarfladi. Nihoyat, 1863-yildan 1888-yilgacha izlanishlar samarasi sifatida uning ikki jilddan iborat «Tarix jadidayi Toshkand» («Toshkandning yangi tarixi») asari yozildi. Asarning ilmiy qimmatini shundaki, Toshkent shahri va viloyatiga doir tarixiy, jug'rofiy ma'lumotlar atroficha, izchillikda berilib, Toshkentning XIX asr qiyofasi shu asar orqali mukammal ochiladi. Shaharning devor va qo'rg'onlari, kentlar, ular orasidagi masofa, toponimik ma'lumotlar, shaharning 12 darvozasi, dahalari, masjid-madrasalari, hammomlari, bozorlari, hunarmandchilik sohalari, qishloq ho'jaligi, qabriston va maqbaralari, suv ta'minoti shoxobchalari, bog'lar, meva-yu sabzavot, ekin-tekinlari ajoyib tarzda bayonini topgan.

Chorizm hukumati, ularning harbiy va tashqi ishlar vazirligi Rossiya Fanlar Akademiyasiga to'ppa-to'g'ri buyurtma va ko'rsatma berib Turkistonni har jihatdan ilmiy o'rganish, nihoyat hukumat uchun talab etilgan ilmiy xulosalar berish vazifasini yukladi. Shuni xolis baholash lozimki, Rossiyadan safarbar etilgan taniqli olimlar ikki guruhga bo'linadi. Ularning birinchi guruhiga mansub olimlar o'z hukumati topshirig'ini sidqidildan bajarib, o'lkaning behisob boyliklarini o'zlashtirish, tezkor tashib ketishda jonbozlik ko'rsatganlar kirar edi. Ikkinchi guruh Turkiston o'lkasi xalq hayoti, yer osti, yer usti boyliklarini haqiqiy ilm-fan nuqtai nazaridan o'rganib, fan ravnaqiga katta hissa qo'shish, jahon xalqlarini o'lka hayoti, madaniyati, tabiatiga doir noyob sir-sinoatlari bilan tanishtirishdek olimlik burchini bajaruvchilardan iborat edi. Ammo bunday toifali olimlar barmoq bilan sanarli darajada kam bo'lib, hatto eng taniqli rus olimlari ham asosan mustamlakachilik g'oyalari va bosqinchilik urushlariga moyillik bildirar edilar.⁵⁸

⁵⁸Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи», 1996. 45-бет.

Vijdoni va ilmiy haqiqatga xilof ish qilishni istamagan rus ilg'or olimlari o'lkada ilmiy faoliyatlarini davom qildirdilar. Aksincha, chor hukumati ijtimoiy-tarixiy fanlar oldiga reaksiya ruhida tub joy xalqlari turmush tarzini etnik jihatdan o'rganish, urug'lar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib, mazkur xalqlarni idora qilishda foydalanish vazifasi qo'yildi. Rus arxeologlari oldida oltin, kumush va boshqa turdagi noyob manbalarni aniqlab, ularni Rossiyaga zudlik bilan jo'natish choralari ko'rish vazifalari turar edi. Har bir mutaxassis O'rta Osiyoda nimani qo'lga kiritish va uni Rossiyadagi qaysi ilmiy yoki davlat yuqori tashkilotlariga jo'natish kerakligi to'g'risidagi yo'riqnomalarga ega edi. Shuning uchun o'lkaga turli soha mutaxassislari desanti tashlandi. Ular mazkur yo'riqlar asosida ish ko'rib, nodir zargarlik, miskarlik, duradgorlik, naqqoshlik, xattotlik, muxrkanlik, numizmatikaga va boshqalarga oid buyum namunalari yig'ishga kirishib ketdilar.

Ular bunday keng ko'lamlı ishda mahalliy ziyolilar yordamiga tayandilar. Shunga ko'ra ko'plab mahalliy bilimdon kishilar kam bu ishlarga jalb etildilar.

Shayboniyxon madrasasida mudarrislik qilgan Abu Said Mahsum ham qadimgi buyumlar havasmandi va to'plovchisi bo'lgan. N.I.Veselovskiy so'ziga qaraganda, Mirza Abu Said Mahsum mahalliy kishilar orasida «musulmon adabiyotida eng o'qimishli kishilardan biri» bo'lgan. Bu o'qimishlilik uning o'z qadrdon shahrining o'tmish tarixi, tarixiy-madaniy yodgorliklarini bilishga bo'lgan sinchkov va samimiy munosabati bilan qo'shib ketgan arab, fors yozuvi va tilini mukammal bilgan Abu Said Samarqandning tarixiy-me'morlik yodgorliklarida, jumladan, Go'ri Amir, Shohi Zinda maqbarasi va boshqa tarixiy yodgorliklarda saqlanib qolgan va o'qish ancha qiyin bo'lgan yozuvlardan nusxa olishni muvaffaqiyatli ravishda sinab ko'rdi. Abu Said og'ir kasal bo'lishiga qaramay, Afrosiyobda Vyatkin o'tkazayotgan qazish ishlarini borib ko'radi. Haqiqatan ham rasadxona o'rnini aniqlashda uning xizmati mislsiz bo'ldi. Uning muvaffaqiyatli yakunlanishida o'zbek tili o'zbek tilidan tashqari arab, forsiy tillarni mukammal bilgan Shayboniyxon madrasasi mudarrisi, sharqshunos olim Abu Saidning xizmatlari benihoya katta bo'ldi. Aslida Vyatkinga rasadxonaning aniq jug'rofiy o'rnini Abu Said ko'rsatgan bo'lib, qazish ishlarini ham boshlagan edi. Ammo Sho'ro mafkurasi fanning barcha sohalarida faqat rus olimlarining birinchi bo'lishiga urg'u berganligi bois rasadxona ochilishida Abu Said Maxsum nomi yozilmay, uni faqat Vyatkin nomi bilan tarixga kiritgan edilar.

Yettisuv viloyatida arxeologiya bilan Turdi Mirg'iyosov shug'ullanib, u arxeologiyaga oid narsalarni o'n olti-yil to'plagan. Mirg'iyosov A.A.Divayevga yozgan maktubida To'qmoq rayoni chekkalarida, jumladan irrigasiya ishlari olib borilayotgan joyda qadimgi shahar vayronalari borligini xabar qilgan. Mirg'iyosovning o'zi bu joylarda qazish ishlarini olib borib, e'tiborga molik narsalarni topgan. U bu qadimgi shahar g'ishtlarini mahalliy kishilar behayolarcha tashib ketayotganligini kuyunib ta'kidlagan. «Biz Verniyga uchta telegramma yubordik-deb yozadi u. - Ammo hyech qanday javob olmadik. Oradan yana uch-yil o'tsa, bu nodir minoradan hyech narsa qolmaydi. Qisqacha qilib aytganda, Turkistonlik arxeologlar bu yerdagi qadimgi yodgorliklarni o'z panohiga olishmasa fan va tarix uchun qimmatli manbalarning hammasi yo'q bo'ladi va

avlodlar qarg'ishiga uchraymiz». Bu maktub Turkiston xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati yodgorliklariga chor hokimiyati bepisandlarcha munosabatda bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mirza Abdulla Buxoriy kasbi bo'yicha savdogar bo'lib, mahalliy ipak jun hamda ip-gazlama buyumlari fabrikasining xo'jayini edi. 1878-yili u Toshkentda ko'rgazma tashkil etishda ishtirok etadi va ko'rgazmaga xonatlas, turli rangdagi ayollar bosh kiyimi va har xil ro'mollardan iborat noyob to'plam taqdim qiladi. Mirza Abdulla savdogar Muhammad Shokir bilan birga «Ipak buyumlari ishlab chiqarishni ancha takomillashtirgani va kengaytirgani» uchun oltin nishonga sazovor bo'ladi. U 1886-yilgi Turkiston ko'rgazmasida ham qatnashadi. Mirza Abdulla keltirgan ipak mahsulotlar tomoshabinlar diqqatini hamisha jalb etgan. Ular tezda sotilib ketgan va ana shu gazlamalari uchun u mukofot olgan edi. Mirza Abdulla N.I.Veselovskiy bilan ham hamkorlikda bo'lgan. N.I.Veselovskiy Mirza Abdulla noyob to'plamlarini ko'rib, undan 1202 ta buyum, shu jumladan, 11 ta tilla va 77 ta kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 ta muhr hamda odamlar, hayvonlar va boshqa narsalar tasviri tushirilgan 6 ta nodir tosh sotib olgan.

N.I.Veselovskiy bilan tanishib, hamsuhbat bo'lishi, shuningdek Afrosiyob qazilmalarini borib ko'rishi Mirza Abdullada yodgorliklar to'plash faoliyatini yanada kuchaytirgan. Natijada u qadimgi narsalarning ilmiy ahamiyatini tushunishga harakat qilibgina qolmay, balki rus fani va madaniyati yutuqlari bilan yaqindan tanishishga ham intildi. O'z tashabbusi bilan Moskva va Peterburgga sayohat qildi: Kremlda bo'ldi, Tretyakov galereyasini ko'rdi. 1887-yili Peterburgga kelib N.I.Veselovskiy bilan uchrashdi. Veselovskiy unga shaharning diqqatga sazovor joylarini ko'rsatdi, o'qish uchun kitoblar bilan ta'minladi, u esa o'z navbatida rus olimining Samarqandga oid topshiriqlarini bajardi.⁵⁹

Mirza Abdullaning Peterburgda bo'lib, yirik rus olimlari bilan muloqotda bo'lishi uning keyingi faoliyatida o'z aksini topdi. Endi u oddiy yodgorlik to'plovchi emas, balki o'lkashunos-to'plovchi, qadimshunos sifatida u yoki bu qadimgi yodgorlik qay vaziyatda topilganligi bilan qiziqadigan bilimdon arxeolog-tadqiqotchiga aylandi. Yangi topilgan qadimgi yodgorliklar haqida Mirza Abdullaning mahalliy matbuotda tez-tez chiqib turishi imperator arxeologiya komissiyasi a'zolarida qiziqish uyg'otdi. Ular kolleksiyalari bilan tanishtirishni iltimos qilib, Turkiston general-gubernatori G.O.Rozenbax orqali unga murojaat etdilar. 1888-yilning 21-oktabrida Mirza Abdullaning roziligi bilan Peterburgga 6 quti qadimgi tanga va boshqa osori atiqalar yuborildi. Mirza Abdulla Buxoriy ularga hych qanday narx qo'ymadi, balki «bu topildiqlarni komissiya ixtiyoriga binoan mukofot tariqasida xazina foydasiga topshirish» istagini bildirdi. Hammasi bo'lib jo'natilgan 6300 qadimiy antiqa buyumlarning ko'pchiligi komissiya tomonidan qabul qilindi. 1888-yili komissiya bu buyumlar ichidan Ermitaj uchun tunjdan ishlangan sharq oynasi bilan mis ko'zani tanlab oldi.

1889-yilda Mirza Abdulla 13 ta oltin va mis tanga, 1890-yilda esa Ermitaj uchun 11 ta sopol idish yubordi. Mana shularning o'ziyoq mahalliy o'lkashunoslarning yoki savdogarlarning katta miqdordagi noyob eksponatlarning

⁵⁹Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи», 1996. 16-бет.

o'lkamizdan chiqib ketishida faol ishtirok etganligini ko'rsatadi. Bu ham tariximiz va madaniyatimizning eng boy osori atiqalaridan ajralib qolishni ta'minlashda salbiy rol o'ynagan edi.⁶⁰

Chorizm O'rta Osiyoda mustamlakachilikka xos o'ta reaksiya siyosat olib bordi. Bu ayniqsa madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo'lgan. Turkiston general-gubernatori Kuropatkin ham o'z kundaligida o'lkani madaniy-iqtisodiy taraqqiyotdan chetda tutib turganligini e'tirof etgan edi. Ilg'or rus sharqshunos va tarixchi olimi N.I.Veselovskiy (1846-1918) bu haqda o'z fikrlarini yanada ochiqroq tarzda ifoda qilgan edi: «Biz madaniyat olib keldik deb o'ylaymiz. Bo'ysundirilgan Osiyoliklarga tinchlik va osoyishtalik berdik deb o'zimizni ovutamiz, ammo bulardan ham yuksak bir oliy tuyg'u borki, bu millat va uning milliy iftixoridir». Taniqli olimning ana shu xolis iqroring o'ziyoq tub joy xalqlar tili, madaniyati va turmush tarzini ruslashtirish siyosatini ochib tashlaydi. Chorizm madaniyat targ'iboti bahonasida Turkistonga shovinistik g'oyasini yoydi. Fan va madaniyat sohasidagi siyosat yo'nalishini o'lka xalqlari tarixi, milliy qadriyatlari, an'anaviy urf-odatlar, islomiy ma'naviyatidan butunlay uzib tashlashga qaratdi. Buni general-leytenant Masiyevskiyning quyidagi yo'rig'ida ochiq bayon qiladi: «sharqshunoslik jamiyati deb yozadi U, Sharqni fan va Sharq manfaati uchun emas, balki mahalliy aholini chor Rossiyasiga singdirib yuborish, ya'ni ruslashtirish maqsadida o'zlashtirilishi lozim».

Rossiya Fanlar Akademiyasi sharqshunos olimlari o'zlari to'plagan Turkistondagi jamiki noyob tarixiy-badiiy ilmiy asarlarni Turkiston general-gubernatorlik huzurida 1870-yilda ochilgan kutubxonaga topshirishi lozim edi. O'sha yerda ularning ilmiy qiymati aniqlanib tanlangach, nodir nusxalari chor Rossiyasi markaziga jo'natildi. Natijada Turkistondan juda katta ma'naviy boylik, noyob xazinalar olib chiqib ketildi.

Moskva va Peterburgda sharqshunoslar ular ustida keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar. Fanda katta kashfiyotlar qildilar. Bu yutuqlaridan mustamlakachi hukumat idoralari harbiy, siyosiy maqsadlarda foydalandilar.

Rossiya chorizm markaziy hukumatiga Osiyo xonliklari oltin, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar makoni ekanligi Pyotr I zamonidanoq yaxshi ma'lum edi. Shunga ko'ra o'sha vaqtdan boshlab O'rta Osiyo xonliklarini egallash kun tartibidan tushmadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya maqsadiga erishgach, Turkistonning faqat moddiy boyliklariga tajovuzona munosabatda bo'lmay, balki uning asriy tarixiy-madaniy va ma'naviy-ilmiy qimmatga molik nodir boyliklarini ham talon-toroj etib, Rossiyaga tinimsiz olib ketishni yo'lga qo'ydi. Ularning ko'pchiligi jahon ahamiyatiga ega bo'lgan tarixiy san'at asarlari edi. Ushbu ishlarni rejali tashkil qilish uchun qator ilmiy jamiyatlar tashkil etildi. 1876-yili Toshkentda muzey ochilib, o'sha joyda osori atiqalar turlarga ajratildi. Uning ko'rgazma zallarida oltin, kumush, mis, bronza va boshqa qimmatbaho buyumlar, kulolchilikning ajoyib namunalari, gilamlar, xullas etnografiya,

⁶⁰Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учраждения Туркестанского Кружка любителей археологии. Ташкент, 1896, Стр. 58.

arxeologiya, amaliy san'at buyumlari namoyish etilib, nodir deb baholanganlari uzluksiz Rossiya markaziga jo'natildi. Ularning qanday usullar bilan to'planishiga doir masala osongina hal qilingan edi. Harakatdagi rus armiyasi qismlari uchun «Tavsiya»lar ishlangan edi. Undagi askar va zobitlar uchun maxsus ko'rsatmada, tarixiy yodgorlik buyumlariga alohida e'tibor berish uqtirilgan edi: «Asosiy maqsad Turkiston shaharlari va xonliklaridan qo'lyozmalar, hujjatlar, tangalar, muhrlar, amaliy san'at namunalari, noyob buyumlar, mahalliy hunarmandlar yasagan naqshinkor buyumlar, gilamlar, o'ymakorlik namunalari, egar-jabduqlar, qurol-aslaha, sopol buyumlar, zargarlik buyumlari, dur-gavhar toshlar bilan bezatilgan nodir metallardan yasalgan qilich, xanjarlar, arxiv hujjatlar, tilla, kumush tangalar, qo'lyozma kitoblar olinib xarakatdagi harbiy qismlar moddiy ta'minot bo'limiga topshirilsin». Qo'lga kiritilgan buyumlarni Peterburgga jo'natish general-gubernatorning maslahatchisi, sharqshunos A.L.Kun zimmasiga yuklatildi. 1873-yili Xiva xonligi saroy xazinasi osori-atiqalari, noyob kitoblar Peterburgga jo'natildi. 1876-yili Qo'qon xonligi tugatilib, xon saroyidagi barcha boyliklar tashib ketildi. Muhammad Raximxonning taxti san'at darajasiga ko'tarilgan naqsh o'ymakorligi namunasi bo'lib, 1874-yili Moskvadagi qurol-aslaha palatasiga topshirildi.

Buxoro amirligi vassal xonlikka aylanib, turli toifadagi rus amaldorlari sovg'a olish bahonasida saroyga oqib kela boshladilar. 1900-yildan rus amaldorlarining Xivaga safarlari kuchaydi. Ularning maqsadlari sovg'a ilinjida yurtni talash edi.

1895-yili Amir Temur maqbarasining nafis bezakli naqshinkor darvozasi Peterburgga olib ketildi.

1903-yili Amir Temur maqbarasidagi oyna qo'porib olinib, Nikolay II talabi bilan Peterburgga jo'natildi. Undagi bitiklar, tilla koshinlar, naqshinkor parchinlar jami 9 yashik qilib jo'natib yuborildi. Amir Temur va Ahmad Yassaviy maqbaralari ichidagi tilla, kumush aralashmasidan qilingan shamdonlar, yulduzsimon tilla qandillar, nodir qurol-aslahalar, harbiy kiyimlar olib ketildi.

Rus sharqshunosligi bu tuyg'u va intilishlarni qizg'in qarshi olib, qo'llab quvvatlaganligi Turkiston tarixchiligining rivojlanishi uchun yangi saxifa ochib berdi. Masalan, Sattorxon Abdug'afforov ham rus sharqshunosligining bevosita ta'siri ostida tarixchilar qatoridan o'rin olgan. U 1876-yili Peterburgda chaqirilgan III xalqaro sharqshunoslar syezdiga A.Kun, Jo'rabek, toshkentlik Muhammadqulov, Abdullo Niyozov va buxorolik Musojon Saidjonovlar bilan birga Turkiston vakili bo'lib qatnashadi. Rus tilini qunt bilan o'rgangan Sattorxon rus tilida yozilgan asarlarini «Turkestanskiye vedomosti» gazetasida bosib chiqaradi. Rus sharqshunoslari, jumladan, N.I.Veselovskiy rahbarligida Akram polvon Asqarov kabi havaskor tarixchi va arxeologlar etishib chiqdi. Akram Asqarov Toshkentning Rossiya tamonidan bosib olinganiga qadar Qo'qon qo'shinida nog'orachi edi. Toshkent bosib olingach, u 1870-yillarda Toshkentda tashkil qilingan ko'rgazmalarda faol qatnashdi.⁶¹ Sharqshunoslar ta'sirida

⁶¹ Журакулов М. Археология фанига муқаддима. Самарқанд., 2001. 45-бет.

Turkistondagi yodgorliklarga qiziqib qoladi. O'zining havaskorligi va qiziquvchanligi bilan bora-bora Turkistondagi fan ahliga tanila boshlaydi. A.Asqarov 1884-yilda arxeologiyaga oid qazish ishlari o'tkazish maqsadida Turkistonga kelgan professor N.I.Veselovskiyga yoqib qoladi va yordamchi sifatida U bilan birga Buxoroda, Farg'ona vodiysida va boshqa joylarda o'tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqotlarda qatnashadi. U tez fursatda arxeologiya bilimini o'zlashtirib olib, Veselovskiyga shogird tushadi. A.Asqarov arxeologiya sohasida mahalliy xalq orasida etishib chiqqan birdan-bir fan-amaliyotchi, bilimdon kishi sifatida tanildi. U prof. N.I.Veselovskiydan zarur maslahatlar olib turdi. N.I.Veselovskiy Turkistondan ketgandan keyin Akram Asqarov bir necha-yil mustaqil ravishda arxeologiyaga doir tadqiqot ishlari olib bordi. Uning to'plagan boy va qimmatli arxeologik ashyolar to'plami o'sha-yillar davomida nihoyatda samarali va keng ko'lamda ish olib borganligidan dalolat beradi. Akram Polvon Asqarov 1891-yilda vafot etgach, uning boy arxeologiyaga doir ashyolar to'plami Peterburgga olib ketilib, hozir ham Davlat Ermitajida saqlanmoqda.

1887-yil Rus Arxeologik Jamiyati Akram Asqarovni taqdirlagan. Akram Asqarov arxeologiya faniga katta yordam ko'rsatganligi uchun unga berilgan kumush medalga shunday so'zlar bitilgan: «Arxeologiya yutuqlariga hissa qo'shganligi uchun». Mahalliy o'lkashunos haqida quyidagilar gapirilgan: «Asqarov Turkistondagi arxeologik yig'ma materiallar topilishida katta xizmat ko'rsatdi. Boshqa mahalliy vakillardan farqli ravishda tashabbus ko'rsata oldi».

N.S.Likoshin guvohlik berishicha, A.Asqarov arxeolog darajasiga yaqinroq bo'lgan. Turkiston havaskor arxeologlar to'garagida kotib vazifasini bajargan. Kolleksiyalar bilan yaqindan tanishib chiqqan.

«Turkestanskiye vedomosti» gazetasining 1892-yil 31-sonida bosilgan professor Zvarniskiyning «Akram Asqarovning arxeologiyaga oid ashyolar to'plami» nomli maqolasida berilgan ma'lumotga ko'ra, ashyolar to'plamida 17 dona oltin pul, 1370 dona kumush pul, 13274 dona mis pul, neolit davriga oid tosh bolg'a, jezdan yasalgan sulug', jez oyna, jez iskana, jez ketmonlar (motiga) turli joylarda to'plangan sopoldan yasalgan odam haykalchalari, bir bo'lak nefrit, isirg'a, krest (but), boldoq, tumor, mis, sopol idish va shunga o'xshash tarixiy buyumlar bo'lgan. To'g'ri, o'zi to'plagan tarixiy buyumlarning tarixning qaysi davriga oid ekanligini idrok qila olmagan bo'lsada, oddiy bir o'zbekning o'sha vaqtda tarixiy nodir buyumlarning fan uchun to umrining oxirigacha tinmay xizmat qilishi rus sharqshunosligi faoliyatining samarali bo'lib, bu rus sharqshunosligi uchun ham, mahalliy tarixchilik uchun ham yangilik va foydali ish edi. O'rta Osiyo, shu jumladan Qo'qon xonligi, Namangan va Toshkentda yashagan, o'zbek xalqining tarixi, tilini va urf-odatlarini o'rganishda Vladimir Petrovich Nalivkinning (1852-1918) qo'shgan xissasi kattadir. U bu xaqda 40 dan ortiq ilmiy asarlar va maqolalar qoldirgan. U ko'pincha o'z asarlarini Jaxongir to'ra nomi bilan ham yozgan edi.⁶²

Shunday qilib, XX asrning 20-yillariga qadar, olimlar va o'lkashunos havaskorlarning faoliyatlari bilan O'rta Osiyo o'lkasini o'rganishga doir anchagina

⁶²Жўракулов М. Археология фанига муқаддима. Самарқанд, 2001. 46-бет.

manbalar to'plandi. Dastlabki, mahalliy arxeolog havaskorlar vujudga keldi. Biroq bularning orasida uzuq-yuluq va tasodifiy topilgan materiallar anchagina bo'lib, keng ilmiy asosda umumlashtirilmagan bo'lsada, ahamiyatli edi. Demak, O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekistonda arxeologiya fani quruq yerda emas, balki uning ko'hna ildizlari mavjuddir. O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekistonda arxeologiya fanining ilmiy shakllanishi, tashkil topishi asrimiz boshlarida va undan keyingi-yillarda samarali va fidokorona ish olib borish natijasida yaratildi va yanada chuqurlashtirildi. Boshqa fanlar singari arxeologiya fanining yangi taraqqiyot davri 1991-yil mustaqillikka erishilgandan so'ng boshlandi.

XULOSA.

Mustamlakachilar Turkiston xalqlari turmushida nimaiki ularning istiqboliga to'g'anoq bo'lsa, nimaiki ularni ozodlik uchun kurashdan chalg'itsa, hammasini qo'llab-quvvatlagan holda, istiqbolga xizmat qilajak barcha intilishlarning payini qirqdilar.

Rossiya imperiyasi o'lkani Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan iborat uch qismga bo'lib, tub joy aholi birligi va siyosiy qudratini sindirish yo'lida barcha vositalardan foydalandi. Ming-yillardan beri davom etib, avloddan-avlodga o'tib yashayotgan milliy davlatchilik va qadriyatlarni yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishga soldi. «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra shu maqsadga qaratildi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- a) mahalliy boshqaruv, urf-odat va qonun-qoidalardan milliy davlatchilikning barcha asoslarini tag-tugi bilan yo'qotish;
- b) o'lka turmushiga butkul yot va begona bo'lgan uyezd, uchastka, volost kabi ma'muriy-hududiy birliklarni joriy etish;
- v) qishloq yig'ini va volost qurultoyini ta'sis qilib, sun'iy tarzda qishloq boshqaruvini tashkil qilish;
- g) siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha ichki boshqaruvda saylov tizimini ta'sis etish va bu bilan aholi «o'zini-o'zi boshqaruvi»ni shaklan gavdalanitirish;
- d) rus va rusiyzabon aholi nufuzini oshirish, shu maqsadda o'lka shaharlarini «eski va yangi» qismlarga ajratib idora qilish;
- j) mahalliy boshqaruvga mirshab-josuslik tusini berib, quyi amaldorlarni itoatkor malaylarga aylantirish;
- ye) o'lkani ruslashtirish va yangi «Rus Turkistoni» ni barpo etish.

Bular mustamlaka idorasining barcha bo'g'inlarida o'z ifodasini topdi.

Rossiyaning Turkistondagi agrar siyosati o'zida metropoliya dvoryan-pomeshchiklari va burjuaziyasining iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini yaqqol gavdalanitirdi. Bu siyosatning bosh maqsadi o'lkani imperiya sanoatining xom ashyo makoniga aylantirish edi.

Imperiya ikki hukmron sinf manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Agrar siyosatda dvoryanlar talabiga ko'ra Turkiston xalqiga tegishli yerlarni zo'rlik bilan tortib oldi va rus posyolkalarini barpo etdi. Burjuaziyaning talabiga ko'ra esa, qishloqlarda paxta yakkahokimligini o'rnatish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga

oshirdi. Rossiyaning Davlat Kengashi, Vazirlar Qo'mitasi va Davlat Dumasida Turkiston haqida qabul qilingan qonun-qoidalarda dvoryan-pomeshchiklar va burjuaziya manfaatlarini o'z aksini topdi.

Sankt-Peterburg o'troq aholining yerlarini qishloq jamoalari va yig'inlariga birlashtirgan holda, soliq bo'yicha doiraviy mas'uliyatlik qoidasini joriy etish bilan sudxo'rlikni avj oldirdi.

Imperiyaning ko'chiruvchilik siyosati, doiraviy javobgarlik singari, o'lka aholisining yersizlanishini kuchaytirdi. ChorRossiyasining esa moddiy va siyosiy jihatdan nufuzini oshirdi.

Agrar siyosat imperiyaning harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining uzviy qismiga aylantirildi. Rus posyolkalari va tub joy aholi yashab turgan qishloqlarda rus xo'jaliklarining vujudga keltirilishi ana shu siyosatning amaldagi ijrosi bo'ldi. Turkistondagi har bir rus posyolkasi butun bir batalon xizmatini o'tovchi harbiy kuchga aylantirildi.

Amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat yer-suvni, yaylovlarni va barcha tabiiy boylikni chor hukumati qo'lida jamladi, ular no'may daromad manbaiga aylandi.

Metropoliya o'lkani xom ashyo makoniga aylantirib, paxtachilik, ipakchilik, qorako'chilik va boshqa muhim xom ashyo mahsulotlari etishtirish tarmoqlariga katta e'tibor berdi. Sanoat qurilishi sohasida chorizm metropoliya burjuaziyasi manfaatlariga mos - xom ashyoni dastlabki ishlovchi korxonalar qurilishini quvvatlab, o'lkada qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati rivojiga to'sqinlik qilib keldi.

Rossiyaning mustamlakachilik siyosati Turkistonni rus tovarlari sotiladigan, tayyor mahsulotlar xarid qiluvchi bozorga aylantirdi. Bu esa mahalliy hunarmandchilikni inqirozga olib kelib, yagona milliy bozorning rivojlanishiga yo'l bermadi.

Imperiyaning mustamlakachilik siyosati xalq maorifi va madaniy hayotida ham o'z aksini topdi. U maktab va madrasalar faoliyatiga deyarli e'tibor bermadi, aksincha ularning rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Asosiy e'tibor o'lkada ruslashtirishga xizmat qiluvchi rus-tuzem maktablari tarmog'ini yuzaga keltirishga qaratildi.

Umuman olganda, Rossiya imperiyasi ilm-fan, xalq maorifi, matbuot va madaniyat sohasida Turkiston xalqlarining qadimiy tarixi, tili, urf-odatlarini, milliy g'ururi va erksevarlik tuyg'ularini yo'qotishga, qisqasi, ularni o'zligidan judo qilishga qo'lidan kelgancha harakat qildi. Bu siyosatning asosiy maqsadi o'lkadagi milliy davlatchilik, milliy ong, milliy o'zlikni anglashga qaratilgan barcha harakatlarni tag-tugi bilan qo'porib tashlash edi.

Shunga qaramasdan, Turkistonda ilm-fan rivojlanishi to'xtab qolgan emas. Bu davrda yaratilgan ko'pgina ilmiy asarlar xozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 1967-yilda tashkil etilgan meteorologiya stansiyasi tashkil etilishi bilan o'lkaning iqlimi, tabiiy shart-sharoitlari o'rganila boshlagan bo'lsa, 1971-yilda O'rta Osiyo olimlar jamiyati tuzilishi o'lkaning ilmiy jihatdan o'rganilishini keng miqyosda olib borilishiga yo'l ochdi. Shu jumladan, o'lkaning boy tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish hududni arxeologik tadqiqotlar asosida o'rganilishini

boshlab beradi. Arxeologlar dastlab «geografiya jamiyati» tarkibida ish boshlagan bo'lsalar, 1895-yilda Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat olib bora boshladilar. Turkiston havoskor arxeologlar to'garagi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilk ilmiy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan arxeologiya fanining rivojlanishida munosib hissa qo'shishdi.

O'rta Osiyoning inqilobga qadar arxeologik jihatdan o'rganilishini shartli uch bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich — O'rta Osiyoning Rossiyaga bosib olinishigacha bo'lgan davr. Bu davrda o'lka haqidagi tarixiy manbalar to'plandi, ayrim xonliklarning tarixi yozildi. L.I.Richkovning XVII asrning ikkinchi yarmiga taalluqli «Orenburg tarixi», «Orenburg topografiyasi» asari shular jumlasidandir. XIX asrning 20-yillariga kelib, O.I.Senkovskiy Buxoro xonligi tarixi buyicha dastlabki manba bo'lgan P.S.Savelyevning «Muqimxontarixi»ni qayta ishladi va tarjima qildi. O'rta Osiyoning o'tmish tarixini o'rganishda P.S.Savelyev, V.V.Grigoryev, A.Middendorf, P.I.Lerx, V.V.Vel'yaminov-Zernov, I.Berezin kabilar anchagina ishlarni bajarganlar.

1819-yili kapitan N.N.Muravyev boshchiligida O'rta Osiyoga dastlabki arxeologik razvedka ekspeditsiyasi uyushtirildi. Ekspeditsiya Turkmaniston va Xiva tumanlariga jo'natilgan edi. U harbiy xarakterdagi ekspeditsiya bo'lsa-da, birmuncha qimmatli kuzatuvlar olib bordi, ko'pgina yodgorliklarni ro'yxatga oldi, turli turmush buyumlarini to'pladi. Keyinchalik N.N.Muravyevning kundalik daftari fransuz va nemis tillariga tarjima qilindi. Unda Xiva xonligi haqida muhim ma'lumotlar to'plangan edi. O'rta Osiyoda ibtidoiy kishilar yashaganligi haqida rus olimlari birinchi bo'lib fikr bildirgan edilar. Jumladan, A.S.Uvarovning uqtirishicha, agar Yevropa qit'asida mamont davrida ibtidoiy odamlar yashaganligi aniqlangan ekan, demak, bu jarayon O'rta Osiyoda ham bo'lgan. Bu vaqtda hali O'rta Osiyoda arxeologlar yo'q edi. Turli kasbdagi kishilar tomonidan to'plangan bu ma'lumotlar hozir ham muzey fondlarida saqlanadi. Muzey materiallarining guvohlik berishicha, XIX asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyoning tosh asri haqida birinchi ma'lumotlar to'plana borgan. Masalan, A.A.Spisinning ma'lumotlariga ko'ra, Qirg'izistonda 1850-yilning yozida qadimgi mozorlar ochib ko'rilganda, toshdan yasalgan 4 ta kamon o'qi topilgan. Shu-yili S.I.Gulyayev qadimgi tog' konlarida ibtidoiy qurollarning yotganligini kuzatadi. U shunday tosh bolg'alarining Qoraqolin okrugidan ham topilganligi haqida xabar beradi. Doktor A.Shrenko 1855-yili tosh bolg'alar topib, antropologiya va etnografiya muzeyiga topshirgani haqida ma'lumot beradi. A.Gebel topilmalari ham diqqatga sazovordir. U 1864-yili (hozirgi Fedchenko bo'g'ozi) Mang'ishloq yarim oroli territoriyasidan bir necha tosh paraqalari hamda o'zaklarini topgan va ularni Peterburgdagi antropologiya va etnografiya muzeyiga sovg'a qilgan. Bu dalillar O'rta Osiyo hududida ibtidoiy davrning boshdan kechirilganligi haqidagi ilk ma'lumotlar edi.

O'rta Osiyoni arxeologik jihatdan o'rganishning ikkinchi bosqichi uning Rossiyaga bosib olinishidan boshlandi. Bu davrda rus madaniyatining ijobiy ta'siri, olimlarning hamkorligi O'rta Osiyo tarixini arxeologik jihatdan o'rganishda

progressiv rol o'ynadi. Bu P.I.Lerx, V.V.Grigoryev, N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.V.Bartold kabilarning faoliyati bilan bog'liqdir. Rus olimlari O'rta Osiyoga kelgach, qadimiy yodgorliklarga e'tibor bera boshladilar, mahalliy o'lkashunos va havaskorlarni o'z atroflariga birlashtirdilar, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdilar. Shulardan biri o'zbek sharqshunosi Akram Askarov bo'lib, u yodgorliklarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda tashabbus ko'rsatdi.

Ibtidoiy davr tarixi haqida ham ma'lumotlar to'plana boshlandi. Masalan, 1870-yilda Toshkentdagi eski qal'a yaqinida tosh bolta topilgan. Samarqanddagi Afrosiyob xarobasi orqali o'tkazilgan yo'l qurilishi vaqtida tog' injeneri D.L.Ivanov chaqmoqtosh nukleusi (tosh o'zagi)ni topadi, keyinchalik N.I.Veselovskiy tosh qirg'ichchasini topgan edi. Bizning davrimizda, Afrosiyobda katta arxeologik tadqiqot ishlari bajarildi. Olib borilgan kuzatuv ishlari tufayli chaqmoqtosh qurol-aslahalari topildi. Ehtimol, bu yerda shahar paydo bo'lishidan oldin, eng qadimgi vaqtlarda, ibtidoiy odamlar yashagan bo'lsa kerak. Afrosiyob xarobasi atrofidan topilgan jez davri qabr qoldiqlari ham bu haqda guvohlik beradi.

1890-yilda eski Marv xarobalaridan A.V.Kaulbars tosh bolg'a, V.A.Jukovskiy Go'yarqal'adan silliqilgan tosh bolg'a topishadi. 1896-yilda Toshkent atrofidan topilgan tosh bolg'aga o'xshash topilmalar Orenburg, Issiqko'l rayonlarida ham topiladi. Bu topilmalarning o'z davriga nisbatan katta ahamiyati bor edi. Yuqorida aytilgan topilmalar ibtidoiy davr haqidagi dastlabki materiallar edi.

Turkiston havaskor arxeologlari to'garagining(THAT) ta'sis etilishi O'rta Osiyoni arxeologik jihatdan o'rganishning inqilobga qadar uchinchi bosqichi hisoblanadi.

1895-yili Toshkentda ko'pgina progressiv rus olimlarining va mahalliy o'lkashunoslarning tashabbusi bilan Turkiston havaskor arxeologlarining to'garagi ta'sis etildi va u 1917-yilga qadar faoliyat ko'rsatdi. Bu to'garakka turli kasb egalari a'zo bo'lgan edi. To'garak a'zolari jamoatchilik asosida ko'pgina ishlarni bajardilar. Ayniqsa, ibtidoiy davr haqida to'plangan ma'lumotlar e'tiborga loyiqdir. THAT to'garagi Ashxobodda tashkil etiladi. Shundan so'ng Samarqandda tashkil qilishga ham harakat qilingan. 1896-yilda Toshkentda THAT muzeyi tashkil qilinib, unda turli davr arxeologiyasiga doir materiallar yig'ilgan edi.

To'garak ishida mahalliy havaskorlardan Akram Asqarov, Mirza Buxarin, Mirza Abdulin, Hofiz kabilar faol qatnashgan. To'garakni tashkil qilish va unga rahbarlik qilish ishlarida Toshkentdagi yerlar gimnaziyasining direktori N.P.Ostroumovning xizmati kattadir. U faol arxeologiya havaskori edi. N.P.Ostroumov Peterburgdagi Arxeologiya komissiyasi bilan yaqin aloqada bo'lgan. Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi ish faoliyati va xarakteri jihatidan O'rta Osiyoda tashkil topgan dastlabki ilmiy jamiyatlardan biri edi. To'garakni V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy va boshqa progressiv rus olimlari qo'llab-quvvatlab turishdi. To'garak a'zolari turli tumanlardan birmuncha arxeologik material to'plashga muvaffaq bo'lganlar.

Progressiv rus olimlarining faoliyati O'rta Osiyoni arxeologik jihatdan o'rganish, ibtidoiy davr tarixi haqida ma'lumotlar to'plash ishiga ijobiy ta'sir

ko'rsatdi. Turli mutaxassislikdagi olim va havaskor o'lkashunoslar tomonidan ibtidoiy davr haqida ancha-muncha ma'lumotlar to'plashga erishildi. Shulardan A.I.Pavlovning kuzatishlari qiziqarlidir. U 1901-yilda hozirgi Bo'zsuvo kanali va Toshkent yaqinidagi Qoraqamish zonasidan paleolit odamlarining qurol-aslahalarini yig'ib olgan va keyinchalik uni Moskvadagi geologiya-qidiruv institutiga taqdim etgan. Keyinchalik bu yerlarda qazish ishlari olib borilib, ibtidoiy kishilarning qarorgohi bo'lganligi aniqlandi. 1892-yilda geolog Shmidt Qirg'izistonning Issiqko'l atrofidan, Qoysara stansiyasi yaqinidan bir necha chaqmoqtosh qurol-aslahalar topadi. Hozir bu kolleksiya Davlat Ermitajida(Leningrad) saqlanmoqda.

Shunday qilib, Turkistonning qadimiy tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish asta-sekin orta bordi. Bu borada THAT a'zolarining bajargan ishlari diqqatga sazovordir. Jumladan, 1893-yili N.P.Ostroumov Keles daryosining o'ng qirg'og'idagi Qoratepa makoni (poseleniye)ni qazish paytida chaqmoqtoshdan yasalgan kamon o'qini topgan edi. 1902-yilda I.P.Poslavskiy P.G.Xludov tomonidan ro'yxatga olingan Soymalitosh qoya toshlari ustiga solingan ibtidoiy davr san'at namunalarini qayta o'rganish dasturini ilgari surgan edi.

Ibtidoiy davr haqidagi masalalar THAT yig'ilishlarida muhokama qilingan. To'garak a'zolari o'z faoliyatlari haqida axborotlar berib turgan. Masalan, 1906-yil 11-dekabrda bo'lib o'tgan to'garak yig'iliishda I.P.Poslavskiyning hisoboti eshitilgan. U turli kishilar tomonidan topilgan ibtidoiy qurollar haqida, jumladan, To'rg'ay oblasti, Beshariq rayoni, Qoratorov va boshqa joylardagi topilmalar haqida ma'lumot bergan.

Ko'pgina olimlar turli topilmalar haqida qiziqarli ma'lumotlar berdilar. I.P.Tolmachev ham 1907-yilda Akmalinsk oblastidan yig'ib olgan tosh ashyoviy topilmalarini etnografiya muzeyiga tuhfa qilgan. M.M.Berezovskiy va V.N.Andrusovlarning turli joylardan to'plab antropologiya va etnografiya muzeyiga topshirgan tosh buyumlar kolleksiyalari ham qiziqarlidir.

Kolleksiyada turli ibtidoiy qurollar mavjud. To'garak a'zolari qoya toshlarga solingan ibtidoiy davr suratlari haqida ham ma'lumotlar to'plaganlar. Bulardan tashqari, 1902-yilda Amudaryo harbiy chegara xizmatchisi A.P.Yarchinskiy qadimgi Ayrtom xarobalari yaqinidan tosh pichoq topgan. 1904-yilda R.Pomepelli va G.Shmidtlar Ashxobod yaqinidagi Anav tepaliklarini qazib, ibtidoiy davrga oid ko'pgina materiallarni qo'lga kiritgan edi. 1905-yilda qadimgi Go'yarqal'a atrofidan ham tosh buyumlar topilgan edi. Bu yodgorliklar sovet olimlari tomonidan tadqiq qilinmoqda. Biz yuqorida ibtidoiy arxeologiya haqida ayrim ma'lumotlar keltirdik, xolos.

Topilmalar turli kasb egalari tomonidan to'planib aslida tasodifiy xarakterga ega edi va ularga haqqoniy ilmiy baho berilmagan edi. Ammo ularning fan uchun ahamiyati katta. Chunki bu topilmalar O'rta Osiyoning ibtidoiy tarixini inqilobga qadar o'rganishga harakat qilinganligi, Turkistonda arxeologiya fani quruq joyda tashkil topmaganligi haqida guvohlik beradi. Bu topilmalarning keyinchalik rejali, sistemali o'rganilishi asosida Turkistonda arxeologiya fani tashkil topdi va u yuksak taraqqiyot pog'onasiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar. **Фойдаланилган адабиётлар.**

- Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курашимиз. 7-жилд Тошкент. «Ўзбекистон» 1999.
- Каримов И.А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон». 1997.
- Karimov I. O'z keljagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. "Turkiston" gazetasi muxbirlarining savolariga javoblar. Toshkent., «O'zbekiston», 1999.
- Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент., «Ўзбекистон», 1998.
- Абаза К.К. Завоевание Туркестана. Спб., 1902.
- Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. Т., «Академия» нашриёти. 2002.
- Абдурахимова Н.А., Садыков А.С., Шамамбетов Б.Ш. Политические процессы в Туркестане, 1905-1917 гг. Нукус, 1988.
- Арциховский А. В. Археология асослари. Т. 1974.
- Бартольд В. В. Задачи русского востоковедения, Пг., 1915.
- Верещагин В.В. Самарканд в 1868 году. «Русская старина». 1889, №9.
- Верещагин В.В. Самарканд в 1868 году. «Русская старина». 1889.
- Веселовский Н. И. Заметка о курганах Туркестанского края, ЗВОРАО, т. II, 1888.
- Военная экспансия и колониальная политика царизма в Средней Азии. М., 1990.
- Вошинин В. Очерки нового Туркестана. Свет и тени колонизации. СПб., 1914.
- Галузо П.Г. Туркестан-коллония. М., 1929.
- Гаффаров Ш.С. Тарих ва тақдир. Россия империясидан Туркситонга кучирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср). Т, 2006.
- Гинзбург А.И. Русские в Туркестане. М., 1991.
- Граменицкий О. Очерки о развитии народного образования в Туркестанском крае. Т., 1896.
- Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. Спб., 1874.
- Демидов А. Динамика мирового хлопкового рынка. М., 1904.
- Демидов А. Экономический очерк хлопководства, хлопковой торговли и хлопковой промышленности Туркестана. М., 1929.
- Дмитриев Г.Л. Деша Е. Скайлера и проблемы Среднеазиатской политики царизма 70-х гг. XIX в. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб. науч. тр. № 517. Т., 1976.
- Добромислов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Ташкент, 1912.
- Дониш А. Путешествие из Бухари в Петербург. Душанбе. 1960.
- Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Изд. Прегресс. М., 1915.
- Жўрақулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. Тошкент. «Ўқитувчи». 1984
- Жўрақулов М.Ж. Археология фанига муқаддима. Самарканд., 2001.
- Зиёев Х.З. Национально-освободительное движение 1916 г. Общественные науки в Узбекистане, 1991, №7.
- Зиёев Х.З. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгиси. Тошкент, 2000.
- Зиёев Х.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент. 1998.
- Зимин Л. А. Нахшеб, Несеф, Карши, Ташкент, 1927.
- Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. Спб., 1890.
- История Узбекской ССР. Том II, Ташкент., «Фан» 1968.
- Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). Ташкент, 1997.
- Кастельская З.Д. Из истории туркестанского края. М., 1980.
- Кауфманский сборник. М., 1910.
- Кологривов Ю.В. Русские владения в Средней Азии. Спб., 1898.
- Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. СПб., 1871.

- Крафт Н.И. Судебная система в туркестанском крае. Т., 1903.
- Крачковская В. А. Эпиграфика Средней Азии, М-Л., 1953.
- Лунин Б.В. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. Историографический очерк. Отв.ред. Зияев Х.З. Изд. «Фан» Ташкент 1979.
- Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика В.В.Бартольдда. Средняя Азия в отечественном востоковедении. Отв.-ред. Зиеев Х.З. Изд. «Фан» Т., 1981.
- Лунин Б.В.Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895-1917гг.). Отв.ред. Набиев Р.Н. Изд. Акад.Наук. Т.,1958.
- Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учраждения Туркестанского кружка любителей археологии. Ташкент, 1896, (ПТКЛА, I,1896, 1-58).
- Лювомиров П.Г. Очерки по истории русской промышленности Изд.Акад.наук М.,1947.
- Маев Н.А. Материалы для характеристики народного хозяйства Туркестана за 1876 г.
- Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. Спб., 1879.
- Миддендорф А. Очерки Ферганской долины. Спб., 1882.
- Набиев А. Тарихий Ўлкашунослик. Т.: «Ўқитувчи».1996.
- Овирский О.Я. Революционные движения в царской армии в Туркестане. Т., 1960.
- Пален К.К. Отчет о состоянии Туркестанского края, Спб, 1910.
- Панков А.В. Археологические экспедиции в Восточном Туркестане, ПТКЛА, XIX, 1914, (Русские Ведомости, 1913, № 96-100).
- Покровский М.Н. Дипломатия и войны царской России в XIX столетии. М., 1924.
- Положение об управлении Туркестанским краем. Спб, 1886.
- Пухтаметов П.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX – начала XX вв. Ташкент. 1966.
- Романовский Д.И. Заметки по Среднеазиатскому вопросу. Спб, 1868.
- Саъдиев А.С. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш. Тошкент, «Ўқитувчи», 1993.
- Садиков Х., Шамсутдинов Р., Равшанов Г., Усманов К. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида (биринчи китоб). Шарқ нашриёти. Тошкент. 2000.
- Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. I kitob. Toshkent., «Sharq», 2011.
- Самарканд тарихи. I том. Тошкент.,»Фан». 1971.
- Спицын А. А. Древности Средней Азии, 1930.
- Терентев М.А. История завоевания Средней Азии. Т. I-III. Спб., 1906.
- Трегубов С.Н. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края. Журнал Министерства юстиции №11-12. Спб., 1903.
- Фиолетов Н. Судопроизводство в мусульманских судах Средней Азии. Суди казиев. Т., 1910.
- Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии. М. , 1974.
- Худайкулов А.М. Просветительская деятельность жадидов Туркестана. Автореф... канд.ист.наук. Т., 1995.
- Чижов В. Культурные преобразования К.П. Кауфмана в Туркестане. Одесса, 1915,
- Шубинский П.П. Очерки Бухари. Спб, 1892.
- Южаков Ю.Д. Итоги двадцатилетнего управления Туркестанским краем, Спб., т.1, 1886.
- Юлдашев А.М. Аграрные отношения в Туркестане. Т., 1969.
- Юнусходжаева М.Ю. Из истории землевладения в дореволюционном Туркестане. Т., 1970.

72,1,70,3,68,5,66,7,64,9,62,11,60,13,58,15,56,17,54,19,,52,21,50,23,48,25,46,27,4
4,29,42,31,40,33,38,35

36,37,34,39,32,41,30,43,28,45,26,47,24,49,22,51,20,53,18,55,16,57,14,59,12,61,1
0,63,8,65,6,67,4,69,2,71